хусн берувчи унсур бўлиб, ҳошия безакларида ритмик ёки симметрик (мутаносиб) тарзда қайтарилади. Антик ва ўрта аср даврлари санъатидан мерос бўлиб келган ушбу ўсимликсимон нақш тарихий босқичлар давомида бойлик ва фаровонлик, баҳорги уйғониш ҳамда наврўз тимсоли маъносини сақлаб келди. Риштон буюмларининг ҳошияларидаги энг қадимги нақшлардан бири “шашкасимон” нақш бўлиб, унинг генезиси Чуст ва Шкработда топилган бадиий буюмларда намоён бўлади. Ўзбекистон кулолчилик мактабларининг барчасига хос “чорбарг” нақши ҳам қадимий безаклардан ҳисобланиб, унинг аналогларини Хотан, Панжикент нақшу-нигорларида, Сомонийлар мақбарасининг панжарасида ҳамда Афросиёб ва қадимий Хоразм бадиий буюмларида учратиш мумкин. “Анор” тасвири ҳам қадимдан қўлланилган нақш тури бўлиб, XX асрнинг иккинчи ярмида Фарғона кулолчилик мактабининг асосий ва кўп ишлатиладиган безакларидан биридир. Анор тасвири маъмурлик ва фаровонлик рамзи, шу билан бирга унинг новдалари ва гуллари тасвири фасллар мангу айланиши ғоясини англатади. Ушбу безак ўрта аср Мовароуннахрининг амалий санъат буюмларида жуда кўп тасвирланиб келган, унинг генезиси эса Сўғд антик вазалари ва Афросиёб ҳайкалчалари тасвирларига бориб тақалади.

XX аср охири – XXI аср бошларида Риштон кулолчилигида энг кўп қўлланилган йўсинлар – “бодом гул”, “чорбарг”, “аноргул”, “барг”, “сарв”, ўсимликсимон нақшлар – “ислимий”, предмет тасвирлари – пичоқ ва кўзалар.

Геометрик нақшлар – ромб шаклидаги безак “тўрсимон”, учбурчак фигураларнинг ритмик бирикмаси “учбурчак”, “занжир”, “жингалак занжир”, нуқта нақш “нахот”, қора ва оқ квадратларнинг ритмик алмашинуви кўринишидаги нақш “шахмат”, қия ва тўғри чизиқлар кўринишидаги абстракт-геометрик нақшлар, шунингдек, доира ва розетка шаклидаги турли нақшлар ва ҳоказо.

Зооморф йўсинлар (ҳайвонот дунёсига оид) анъанавий Фарғона кулолчилигидаги – мурғоба (сув учун идиш)да қўлланилган. Шунингдек, “бутун учун қисм” тамойилига кўра, бутунлик ғояси ҳйвонлар ва қушлар танасининг алоҳида элементлари ёрдамида ифодаланади. Масалан, «булбул кўзи” нақши “чашми булбул”, икки юрак шаклида нақш “парпаша”, “илон изи”, “хўкиз шоҳи” ва бошқалар. Аммо, лаганларда қушларнинг тасвирлари кўринишидаги мустаҳкам тасвирлар ҳам мавжуд.

Риштон усталари буюмларнинг марказий композициясини безашдан ташқари, уларниг ҳошиясини безашга ҳам алоҳида эътибор берганлар. Геометрик характерга эга

ҳошия нақшлари тегишли атамалар билан белгиланган: “занжир”, “туморча”, “мадохили ислими” ва ҳоказо.

Риштон – Фарғона мактабининг анъаналарини ўзида мужассамлаштирган энг ёрқин кулоллик марказидир. Риштон кулоллик марказининг маҳаллий бадиий хусусиятларини белгиловчи нақшлар мажмуи, Ўзбекистон кулолчилиги томонидан ишлатиладиган безак нақшларининг бутун мажмуаси - геометрик ва ислимий нақшлари, предмет тасвирлари, зооморфик ва антропоморфик нақшлар мавжудлиги билан ажралиб туради.

Кулолчилик санъатида қўлланиладиган нақшлар асосан X-XI асрларда Ўрта Осиёда қарор топган ислом дини таъсирида (VIII аср) шаклланиб, халқ усталарининг кўп қиррали бадиий истеъдодини намоён қилиб келди. Маълумки, мусулмон мамлакатлари санъати анъаналарга қатъий риоя қилишга, анъаналарни мунтазам такомиллаштириш мақсадига асосланган қонун-қоидага мувофиқ келишга асосланувчи бадиий ижод тилини ташкил этади. Бу нуқтаи назардан, “бадиий кулолчилик мактаблари мураккаб бадиий система сифатида ривожланиши, ҳамда анъаналарни ўзлаштириш жараёни турли формациялар ўзгариши билан боғлиқ қонун-қоидаларга асосланганлигини белгилайди” (А.Ҳакимов,2013). Қонун-қоида тизим сифатида ўз ичига ҳар бир кулолчилик мактаби тажрибасини мустаҳкамлайдиган маҳаллий хусусиятларни қамраб, аҳоли этник таркиби, жойланиши ва тарихийлик тамойиллари билан бевосита боғлиқдир.

Ўзбекистон замонавий анъанавий кулолчилигининг энг жадал ривожланаётган марказларидан бири Риштан - анъанавий кулолчиликнинг ҳозирги ҳолатини ўзига хос хусусиятларини ишлаб чиқариш ва технологик жиҳатидан, шунингдек бадиий безак ва услубий хусусиятларни ўрганишнинг энг бой манбаи хисобланади. Риштан кулолчилигининг маҳаллий бадиий хусусиятлари асосан маҳсулотлардаги накшларнинг табиати билан белгиланади.Унинг маҳаллий бадиий хусусиятлари, асосан, сирланган сопол буюм нақш безагининг ўзига хослигининг тавсифи билан аниқланади. Маҳаллий усталар ясаган маҳсулотларнинг шакл ва безакларидаги ўзига хос хусусиятларида индивидуал-ижодий изланишлар яққол ифодаланади.

Риштон кулолчилик марказининг безаклари турфалиги, жумладан Ўзбекистон кулолчилиги томонидан ишлатиладиган безак нақшларининг бутун мажмуаси - геометрик ва ислимий нақшлари, предмет тасвирлари, зооморфик ва антропоморфик нақшлар мавжудлиги билан ажралиб туради. Шу билан бирга, кулолчилик санъатида бирламчи архетиплар (қадимий ва ўрта асрлар даври) ҳамда иккиламчи архетиплар (XIX – XX

асрлар бошидаги предметли тасвир) сирланган сопол буюмларни безаш жараёнида изчил давом этмоқда. Шунингдек, кулолчиликда замонавий бадиий жараёндаги ўзгаришлар таъсирида ривож топган учинчи авлод архетиплари (меъморий обидалар тасвирлари, араб ёзувлари ва хаказолар) ҳам фаоллашган.

Риштон кулолчилиги ривожида қуйидаги тамойил, яъни усталар томонидан анъанавий шакл ва безакни босқичма-босқич тиклаш, мавжуд анъаналарга риоя қилишдан шахсий ижодий ташаббусни ёрқинроқ ифодалаш, қўлланиладиган усуллар ва нақшлар спектрини кенгайтиришга интилиш кузатилмоқда.

Холбуки, сопол буюмларни безатишдаги янги усуллар нафақат нақшларни ифодалашда, балки маҳсулотларнинг янги шаклларини яратишда ҳам намоён бўлган. Аммо янгиликка интилиш, яъни ижодий новациялар ҳар доим ҳам ижобий натижаларга эмас, балки муайян даражада эклектикага ҳам олиб келган.

Кейинги йилларда Риштон кулолчилиги анъаналарини давом эттирадиган кўп сонли усталар фаолият кўрсата бошлашди. Лекин уларнинг сопол буюмларни тайёрлаш, безатиш технологияси ва ишлаб чиқарган маҳсулотларининг эстетикаси мукаммаллашувни талаб қилмоқда. Ўзининг ижодий фаолиятида Риштон кулолчилигининг мумтоз анъаналарини сақлаб қолган бир неча уста самарали меҳнат қилмоқда. Улар орасида, айниқса, Шарофиддин Юсупов ва Алишер ва Бахтиёр Назировларнинг ижодий изланишлари диққатга сазовордир. Андижонда кулол уста Мирзабаҳром Абдуваҳобов, Ғурумсаройда Ваҳобжон Буваев ўз фаолиятларини давом эттирмоқдалар.

Фарғона кулолчилик мактабининг яна бир муҳим маркази Андижон бўлиб, унинг усталари ишкор сиридан кам фойдаланганлар, уларнинг маҳсулотлари Гурумсарой ва Риштан безаклари билан ўхшашлигига қарамай, сариқ рангга эга бўлган, чунки улар қўрғошин сиридан фойдаланганлар.

М.Абдуваҳобов асосан анъанавий “тўртгул” ва “чорбарг” нақшларининг турли вариациялари ҳамда уларни саккиз ва олти қиррали шаклли йўсинларидан ҳам унумли фойдаланади. Риштон усталаридан фарқли равишда “бодом” йўсини кам қўллаб, ушбу безак марказий ёки етакчи нақш вазифасини эгалламайди. М.Абдувахобовнинг безак композициялари Ғурумсарой усталарининг композицияларига яқин. Умуман олганда, М. Абдувахабов Ғурумсарой кулолчилигининг асосий технологик ва бадиий тамойили ва услубларига содиқ қолган, шу билан бирга, ўзига хос ечимларни ҳам унумли киритган. М. Абдувахабов ясаган кулолчилик буюмлари нақшлари Ғурумсарой кулолчилик маркази услубидан кўра қўлланилган кўп сонли деталлари билан ажралиб туради, аммо, шу билан

бирга, Риштон кулолларининг нафис безакларига қараганда унчалик батафсил эмас. Ҳошиясида Ғурумсарой безаклари – “ислими барг” ёки “харрожи барг”,”тароки санги” ва ҳоказолар.

Фарғона кулолчилигининг машхур марказларидан бири – Ғурумсарой марказидир. Ғурумсарой сопол буюмлари ўзининг оқ-мовий, оқ-кўк тусдаги нақш, безаклари, зооморф ва ўсимликсимон унсурлар қўлланиши билан ажралиб турган.

Ушбу марказда 1970-1980 йилларда уч уста - М.Раҳимов, М. Туропов, С.Ҳакимов фаолият юритган. XIX аср Ғурумсарой кулолчилигининг нақш мажмуи, асосан бир нечта йўсинни қамраб олган бўлиб, “кўза”,”чойдиш” “тўртбарг”, “хочсимон” йирик нақшлардан иборат бўлган. Риштон маркази анъаналарига хос Ғурумсарой кулолчилигида ҳам сопол буюмларни – “қумғон”, “пичоқлар” каби маиший буюмлар тасвири билан безатиш анъанаси мавжуд бўлган.

Ғурумсарой сирланган сопол буюмларининг шакллари хилма-хил бўлиб, катта хажмдаги лаган (товоқи калон), тўй лаган (тўй товоқ) энг машҳур бўлган. Шунингдек, Ғурумсарой сопол буюмларини Риштон сирланган буюмларидан, айниқса, Ўзбекистоннинг бошқа марказларидан ажратиб турадиган ўзига хос бадиий хусусияти – ўзига хос кўзгу нақшидир, бунда нақшни бир вақтнинг ўзида фон сифатида ҳам, безак сифатида ҳам намоён бўлишидир .“Бундай ҳолда нақш, турли рангдаги нақшларнинг бир-бирига кириб бориш эффекти ёрдамида яратилади – кўк ва оқ нақшлар навбат билан фон ёки нақш вазифасини бажаради. Бундай тузилиш негизида нақшнинг ўзаро номунатосиб, кўзгули жойлашган унсурлари тамойили ётади (Хакимов, 1988).

Эндиликда Ғурумсарой кулолчилиги анъаналарини М.Туроповнинг шогирди В.Буваев давом эттирмоқда. Ваҳобжон Буваев Ғурумсарой марказини ижодий ва ташкилий жиҳатдан сақлаб қолиш учун кўп харакат қилди. Уста XIX аср охири – XX аср бошларига оид ноёб маҳалий буюмлар коллекциясини тўплаб, Ғурумсаройнинг мумтоз қонуният тизимини ўрганиб, ижодий ўзлаштирмоқда. Асл анъаналарга амал қилиш зарурлигини англаб, уста аста-секин шахсий-ижодий янгиликларни намоён этмоқда. Улар асосан буюмларнинг шакллари ва безакларнинг алоҳида унсурларини талқин этиш билан боғликдир. Ўрта хажмдаги лаганлар, дамтовоқлар, баркашлар ва турли майда идишлар – қаймоқдонлар, хумча, сут учун кўзалар – устанинг севимли шаклларидир.

Сопол буюмларни безашда “тўрт баргли” (чорбарг), “бўтсимон безак”, “хўроз тизмаси” (гултожи хўроз), “ислими гул”, “тўрли нақш” (четан) йўсинининг турфа вариантларини

унумли қўллайди. Буюм хошияларини безаш учун геометрик – “четан”, “тароки санги” ва ўсимликсимон безаклардан - “ислими барг”, “харрожи барг” кенг фойдаланади.

Мустақилликка эришилгандан кейин мумтоз миллий меросга, жумладан, амалий санъат ва бадиий ҳунармандчиликга муносабат тубдан ўзгаргани, ҳукумат қарорлари билан халқ усталарининг мақоми кўтарилганини гувохи бўлмоқдамиз. Бадиий ҳунармандчилик соҳалари ривожига кенг йўл берилди, хусусий тадбиркорлик қўллаб-қувватланди, амалий санъат усталарига иқтисодий ва солиқ имтиёзлари берилди, бу ўз навбатида анъанавий бадиий ҳунармандчиликнинг тикланишини ва ривожланишини рағбатлантирди. Ғоявий қарашлар ўзгаргани ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлди – миллий ўз-ўзини англаш жараёнининг тарихий жиҳатдан такомиллашуви маданий меросга бўлган қизиқишни уйғотди.

Шу билан бирга, анъанавий ҳунармандчилик фаолиятининг ижтимоий шароитларининг ўзгариши бадиий маҳсулотлар безагининг муайян трансформациясига олиб келган. Маҳсулотларнинг кўплаб анъанавий шакллари йўқолди; ҳозирги вақтда етакчи лаган шакли бўлиб қолмоқда, утилитар мақсадини ҳам йўқотмаган. Шу билан бирга, эксперимент сифатида анъанавий нақшлар мажмуида янги безак ечимларни излаш кенг урфга кирмоқда.

Бозор иқтисодиётининг куллолчилик санъати ривожига таъсири кўпинча анъаналар ва услуб хусусиятларини йўқотишга олиб келмоқда.

Шу билан бирга,“Усто-шогир” тизими ўзгарган.Натижада, юқори даражадаги уста-кулолларнинг тайёрлашнинг анъанавий тизимини бузадиган вазиятга дуч келмоқдамиз, бу эса таниқли кулолчилик марказининг умумий даражасининг пасайишига олиб келиши хавфи бор.

Шунингдек, накшлар мажмуи масаласи алоҳида эътибор талаб этади. Ҳозирда босқичда безакларнинг асл моҳиятини ва шу маънода Риштан кулолчилигининг бадиий ва мажозий тузилишининг поклигини, экологиясини сақлаш муаммоси долзарб бўлиб қолмоқда.

Кулолчиликнинг қайта тикланиши муаммоси сопол буюмларни ишлаб чиқариш технологияси, безак экологияси ва анъаналарни тиклаш билан боғлиқ қатор масалаларни қамраб олади. Анъанавий халқ ижодиёти соҳасида нархларни тартибга солиш ва муаллифлик ҳуқуқини ҳимоя қилиш масаласини ўрганиш керак.

Замонавий уста учун мактаб анъаналарини, у ўз маҳоратини олган минтақани сақлаб қолиш ва ижодий ривожлантириш жуда муҳимдир.

Хулоса:Ижодий ва ташкилий характерга эга муаммоларга қарамай, мустақиллик йилларида юз берган ижобий ўзгаришлар натижасида усталарнинг ижтимоий мавқеи ўсди ва Риштан анъанавий кулолчилиги ўзининг савдо брендига эга бўлиб, кулол касбига бўлган иштиёқ аҳолининг барча қатламларини қамраб олди.

Чунончи, Риштонда усталарнинг ташаббуси ва маҳаллий ҳокимият идораларининг саъй-ҳаракати шарофати билан етакчи усталар ижодини оммалаштириш ишлари сезиларли даражада фаоллашди, қатор музей ва ижодий студиялар ташкил этилди. Машҳур кулол Иброҳим Комиловнинг уй-музейи, 1997 йилда Рустам Усманов томонидан тузилган уй-галерея, 2005 йилда очилган Алишер Назировнинг ижодий устахонаси ва бошқалар бунга мисолдир.

29 йил 2021 январ куни Риштон шаҳрида Халқаро Кулолчилик Марказининг очилиши Ўзбекистон бадиий ҳунармандчилиги, хусусан, анъанавий кулолчилик соҳасини ривожлантиришга қаратилган ижобий ўзгаришларнинг натижасидир.

Буларнинг барчаси, албатта, Форгона кулолчилик мактабининг ривожидаги ижодий ва ташкилий муаммоларга қарамай, Марказий Осиёдаги ушбу йирик анъанавий кулолчилик мактаби тўғри йўналишда ривожланишига ишонч уйғотади.

Адабиётлар рўйҳати:

5. Хакимов А. А. (1988). Современное декоративное искусство республик Средней Азии (к проблеме традиций и новаторства). – Ташкент. - Издательство «Фан». - 1988.
6. Хакимов А.А. (2013). Прикладное искусство Узбекистана: традиции и инновации. – Ташкент, 2013.
7. Хакимов А.А.(2023). Ремесла Узбекистана. - Ташкент. - Издательство «Ochun». - 2023.
8. Алиева С.Ш. (2009). Художественная поливная керамика Узбекистана IX- начала XXI в. – Ташкент. – Издательство «San`at». – 2009.

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA USTOZ-SHOGIRD AN’ANALARINI RIVOJLANTIRISH (XORAZM KULOLCHILIK MAKTABI MISOLIDA)

PhD AbdullayevMasharib Saydamatovich
siti1928@mail.ru
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti,ilmiy ishlar bo’yicha director o’rinbosari, s.f.f.d., katta ilmiy hodim

***Annotatsiya*:** Bozor iqtisodiyoti sharoitida hunarmandchilik, jumladan, kulolchilikda “ustoz-shogird” tizimi va uning imkoniyatlarini baholash, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Kalit so'zlar: Bozor iqtisodiyoti, hunarmandchilik, kulolchilik, ustoz, shogird, “ustoz-shogird”, “risola”, “oq fotiha”, Madir, O. Matchonov.

Annotation: In the conditions of a market economy, assessing the "master-apprentice" system and its capabilities in crafts, including pottery, and identifying their specific features is one of the pressing issues of today.

Key words: Market economy, handicraft, pottery, teacher, disciple, "teacher-disciple", "treatise", "white blessing", Madir, O. Matchonov

Kirish: Bozoriqtisodiyotisharoitidahunamandchilikda, jumladankulolchilkda “ustoz-shogird” tizimi va uning imkoniyatlarini baholash hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlash bugungi kunning dolzar masalalaridan biridir.Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3393-son “Hunarmand” uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-

quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari sohani yanada rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot usullari: Maqolada dala tadqiqotlari, sorovnoma, badiiy tahlil, qiyoslash san’atshunoslik usullaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama: Yoshlarni ma’naviy jihatdan tarbiyalashda tarixiy yodgorliklar, an’ana va qadriyatlar, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib o‘tgan milliy hunarmandchilikni yanada rivojlantirishning ahamiyati katta. Ma’naviy madaniyatda muhim o‘rin egallagan o‘zbek hunarmandchiligi uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Milliy hunarmandchilikni rivojlantirish va uni yo‘q bo‘lib ketgan turlarini qaytadan tiklash, rivojlantirish, davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlanishi, hunarmandchilik maktablarini ochib yoshlarga hunar o‘rgatilishi, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, bularning barcha - barchasi milliy o‘zligimizni anglashga bo‘lgan intilish, ma’naviyatimiz poydevorining mustahkam ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbek xalqi hunarmandchilikning turli tarmoqlari bilan azaldan shug‘ullanib kelgan va an’ana sifatida bugungi kungacha ham davom etib kelmoqda. Hunarmandchilikning ba'zi tarmoqlari unut bo‘lmasdan, milliylikni, qadriyatni saqlab kolgan holda yetib kelishida usta-shogird an'anasining uzviyligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo‘li gul usta o‘z hunarining sir-asrorlarini o‘rgatish uchun o‘z farzandi yoki qarindoshini yoshligidan 7-8 yoshidan shogirdlikka olgan. Shogird usta yonida kecha-kunduz 7-12 yil davomida yurib, hunar o‘rgangan[Bobojonov D., Abdullayev M.,32]. Usta shu hunarni o‘rganishga juda ishtiyoqmand bo‘lgan boshqa bolalarni shogirdlikka sinov asosida qabul qilgan. Ya’ni sinov davri (uch yoki to‘rt oy) mobaynida usta shogirdini ta'lim-tarbiyasiga, qo‘li egri emasligiga, hunarni matonat bilan o‘rganishga sabri yetishligiga, hunarni o‘rganishga ishtiyoqi borligiga komil bo‘lgach, o‘z hunarini shogirdiga o‘rgatishga jazm qilgan. Aks holda, usta bolani shogirdlikka olmagan. Chunki, shogird farzanddan ham yaqin

bo‘lib, uni kelajakda yaxshi hunarmand bo‘lib yetishishidan tashqari, komil inson bo‘lib ta'lim-tarbiya topishida ustaning hissasi va majburiyati ko‘p. Shogirdlikka tushganlarning barchasi ham “usta” nomini ololmaganlar.

Usta shogirdiga kasbini tekinga o‘rgatgan. Usta shogirdiga nisbatan qattiqqo‘l, talabchan bo‘lib, risolalar ya’ni “shogirdlar uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar” [Bulatov S., Muxtorov A., 11]. Risola kasb-hunarga oid nizom chaqiriqlari (qonun-qoidalar)ni o‘z ichiga olgan [Nozilov D., 7]. Shogird hunar bilan birgalikda uy yumushlarini bajarishni ham o‘rganib borgan. Shogird kasbning nozik qirralari, qoidalari, usullarini puxta egallagandan so‘ng, uning mustaqil ish boshlashi uchun ustaga minnatdorchilik bildirib, duo olish marosimi o‘tkazilgan.

Ushbu marosim hunarmandchilikning turli sohalari, yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik, zardo‘zlik va h.k.da turlicha nomlanadi va har xil shaklda o‘tkazilgan. Jumladan, marosimning “kamarband, kamarbasta” (to‘quvchilik) [Otajonova D., 4], “oq fotiha” (yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik) kabi nomlari bor.

Olib borilgan dala tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, Xorazm kulolchilik maktabida (Kattabog‘ markazi misolida) “oq fotiha” marosimi quyidagicha o‘tkaziladi:

Shogird uyiga o‘z ustasi bilan bir qatorda, hunarmandchilikning turli sohalari bilan shug‘ullanuvchi kulol, temirchi, naqqosh, misgar, pichoqchi kabi hunar ustalarini ziyofatga chaqiradi. Ustalar nozu-ne’matga to‘la dasturxon atrofiga o‘tirishadi. Usta ziyofatxonada tik holatda ta’zimda turgan shogirdi yoniga kelib, beliga maxsus belbog‘ bog‘lab, uning o‘ng qo‘yniga oq tugunga o‘ralgan ikkita non va chap qo‘yniga kulolchilikda ishlatiladigan asbob-jihozlarni solib, uni duoi-xayr qiladi.

Shundan so‘ng, ustalar yonida usta o‘z shogirdini “risola” bo‘yicha savol-javob qiladi. Risolaga ko‘ra, shogird islom dinida ko‘rsatilgan diniy arkonlar bilan birga, ustaxonaga kirish, mijozlar bilan muloqot qilish, pokiza bo‘lish, halol mehnat qilish, boshqa hunarmandlarga nisbatan adovatda bo‘lmaslik, boylik orttirish maqsadini ko‘zlamaslik, xushfe’llik kabi tartib-qoidalarini bilishi zarur. Savol-

javobdan o‘tgach, usta shogirdiga “oq fotiha” va rozi-rizolik beradi. Shogird shundan so‘nggina “usta” maqomiga ega bo‘ladi.Shogird o‘ng tizzasini yerga tashlagan holatda, qo‘lini ko‘ksiga qo‘ygan holatda barcha ustalar bilan qo‘l berib ko‘rishib chiqadi. Ular ham duo qilishadi. Ziyofat yakunlangach, shogird ustaga ko‘nglidan chiqqan holda boshdan oyoq sarpo yoki kuylak tortiq qiladi.

Marosim bilan bog‘liq ushbu o‘zbek odatlarida olam-olam ma’no mujassam. Ustaning shogirdiga non berishi uni elda “nondek aziz”, hunar asboblarini sovg‘a qilishi esa, shu jihozlar bilan halol mehnat qilib, “rizqli-nasibali” bo‘lishini bildiradi.

Shogirdning mustaqil ravishda hunar bilan shug‘ullanishida, odob-ahloq mezoniga rioya etishida, yosh avlodni hunarmandchilik kasbiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashda usta-shogird an’anasi va u bilan bog‘liq bo‘lgan marosimlarning ahamiyati juda kattadir. Zero, hunarmandchilikda usta-shogird marosimlari qadimiy qadriyat hisoblanadi.

Ma’lumki, o‘zbek xalqi azaldan o‘z hunari, mehnatsevarligi, halol va pokligi, serqirra va takrorlanmas sharqona madaniyati, ma'naviyati bilan jahonga mashhur. Hunarmand ustalar tomonidan yaratilayotgan kulolchilik, kandakorlik, kashtado‘zlik, to‘quvchilik, zargarlik, naqqoshlik, o‘ymakorlik kabi bir qancha hunar mahsulotlarining nafisligixalqimizning yuksak did va ma'naviyati boy, ijodkor xalq ekanligidan dalolat beradi.Albatta, hunarmand ustalarni tarbiyalab yetishtirish shu bilan birga hunarmandlar sulolarining va avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tuvchi sulolaviy hunarning umriboqiyligini ta'minlashda, hech shubhasiz oilaning o‘rni va ta'siri beqiyosdir.

Xorazm kulolchilik maktabi Rishton (Farg‘ona), Toshkent, Samarqand, G‘ijduvon (Buxoro) va boshqa kulolchilik maktablaridan o‘ziga hos yasashuslubi, tehnologiyasi, naqsh kompozitsiyasi, rangi, dinamikligi (o‘ynoqilik), estetik tasirchanligi bilan alohida o‘rin tutadi. Madir markaz davomchisi Odilbek Matchonovdan an’anaviylik borasida so‘raganimizada u hozirda kulolchilik ustalar Xorazm uslubidan chetlashib, boshqa maktablar ta’siriga tushib qolmoqdalar,

bizning asosiy vazifamiz milliy an’analarimizni oʻz holicha keyingi avlodga yetkazishdan iborat deb javob berdi [Matjonov O.]. Otamiz kabi naqshlarni chizamiz yuzaga qarab oʻzim ijodiy yondoshaman. Yangilik qoʻshmaymiz, unga harakat ham qilmaymiz. Biz oʻsha an’anani kelajak avlodga oʻz holida yetkazib berishimiz kerak. Otamni ishlagan ishlariga qarab,oʻshanga oʻxshatib ishlayman. Ayrim ishlarda oʻzimni tasavvurim boʻyicha ishlayman va yangicha naqshlar yarataman, ular otamnikiga mutlaqo oʻxshamaydi. Ayrim elementlari esda qolgan, ayrimlarini oʻzim qoʻshganman.

Darhaqiqat madirlik kulollar ijodida eski shakl, texnika va ornamentni koʻramiz. Hozirda Madir maktabi ham maishiy buyumlar ishlab chiqarish, ham qurilish materiallari tayyorlash borasida faoliyat yuritmoqda. Koshin tayyorlash tarixiy binolarni ta'mirlash bilanbogʻliq boʻlgani bois, toʻlaligichamilliy an'analar asosida ishlanadi. Maishiy keramikada esa asosiy shakl, naqshlar, kompazitsiya avvalgi bodiyalar asosida tanlanadi, ammo ayrim elementlar qoʻshiladi,ya’ni ornament boyitiladi. Albatta, bu ustaning ijodiy qarashlari, mahorati bilan bogʻliq. Bunikeyingi madir bodiyalarida paxtagul, qaltiratma naqshlarining ishlatilishi, idishlarga turli tasvirlarni (shaxslar,tarixiy binolap, yubiley sanalari) koʻrish mumkin.

Biz Odilbek akadan ishqor borasida soʻraganimizda, hozirda tabiiy ishkor oʻrniga shisha kukuni ishlatilayotganini, ishkor tayyorlanadigan chagon oʻsimligi yoʻqolib ketganligini gapirib berdi. Bu borada bir qancha urinishlar boʻlgan, ammo muvaffaqiyatsiz chiqqan. Demak, Madir, umuman Xorazm kulolchiligidagi eng muhim muammolardan biri bu tabiiy ishkorni tiklash masalasidir.

Madir kulolchiligi ustazodalarning mashaqqatli va fidoiy mehnatlari bilan oʻz faoliyatini davom qildirmoqdalar. Kulolllar yangi ustaxona qurishib, uni ishga tushirdilar. Ustaxonani dastgohlar va zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi.

Ma’lumki, qadim-qadimdan oilada tarbiya topayotgan oʻgʻil bolalar pichoqchilik, sartaroshlik, duradgorlik, etikdoʻzlik kabi hunar bilan shugʻullangan boʻlsalar, qiz bolalar esa doʻppidoʻzlik, kashtachilik, tikuvchilik, toʻquvchilik

hunarini sir asrorlarini puxta o‘rganganlar. Oilada ota-onaning farzand oldidagi burchi – farzandining qobiliyati, iste’dodini to‘g‘ri yo‘naltira bilishi, bolaning o‘zi qiziqqan kasb-hunarni egallashiga imkon berishi va o‘rgatishdan iborat.

Har bir inson faqat bir kasb yoki hunarni o‘rganish bilan chegaralanib qolmaydi. U o‘z hayoti davomida izlanib, intilib, tajriba almashib yana bir qancha hunarni o‘rganadi. Biroq, har bir kasb-hunarning o‘ziga xos mashaqqati va fazilatli tomonlari mavjud. U insondan katta sabr-toqatni, qanoatlilikni talab qiladi.

Oilada yoshlarning kasb-hunar egallashlari, mehnatsevar bo‘lib tarbiyalanishlarida ustoz-shogird an’analariga rioya etmoq zarur. Qadimda hunarmand ustalar o‘z hunarining sir-asrorlarini yozib qoldirmaganlar, faqat shogirdlari bundan boxabar bo‘lganlar. Shogird ham vaqti kelib usta bo‘lgach u ham o‘z shogirdiga hunarini o‘rgatgan. Shu asnoda har qanday kasb an'ana tariqasida davrlar o‘tishi bilan taraqqiy etib kelgan.

Farzandning u yoki bu hunarni egallashida birinchi ustozi - bu ota-onasi hisoblansada, shu hunarni baribir mohir ustasidan o‘rganib, ta'lim-tarbiya olishi joiz. Chunki, ustoz ko‘rmagan hunarmandning ishida na baraka va na unum bo‘ladi. Bir kasbni boshidan mukammal o‘rganmagan shogird kelajakda hech narsaga erisholmaydi. “Ustoz ko‘rmagan shogird ming maqomga yo‘rg‘alar” degan naql ham shuning isbotidir.

Ustozning shogirdiga nisbatan talabchan, qattiqqo‘l bo‘lishi, kerak payti rag‘batlantirishi yoki jazolashi shogirdning mohir hunar sohibi bo‘lib kamol topishida muhim ahamiyat kasb etgan. Usta shogirdiga hunar o‘rgatish jarayonida o‘zi ishlab chiqqan maxsus odob-ahloq normalari asosida shogirdini ma'naviy jihatdan ham tarbiyalab borgan. Masalan, ular shogirdidan pokizalikni, rostgo‘ylikni, ish vaqtida chalg‘imaslikni, egri va noma’qul ishlarga yaqin yo‘lamaslikni, halollikni, ustoz ruxsatisiz biror ishga qo‘l urmaslikni qat'iy talab qilganlar [Bulatov S., Muxtorov A., 11].

Hozirgi globallashuv jarayonidayoshlarning o‘zi ixlos qo‘ygan kasb-hunarni maktab davridan o‘rganishlari ularning vaqti behuda o‘tishigayo‘l qo‘yilmasligiga,

yoshlarning har qanday nojo‘ya hatti-haraqatlardan xoli bo‘lishligiga, kelajakda jamiyatdao‘z o‘rnini topishiga undaydi. Bir so‘z bilan aytganda, kasb va hunar “hayotda uchragan qiyinchiliklar oqibatida tug‘ilishi mumkin bo‘lgan yomon fikrlardan qaytishga o‘rgatadi”[Mirzaahmedov M., 6].

Inson o‘zining halol mehnati, hunari orqaligina o‘z iste'dodi, qobiliyati, layoqatiniko‘rsata oladi shu bilan birga dunyoqarashi kengayadi, bilim saviyasi oshib, ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan o‘zini shakllantirib boradi.

Xulosa: Umuman olganda, oilada, mahallada, o‘quv yurtlaridayoshlarga ta’im-tarbiya berish bilan birga “ustoz-shogird” an’anasi asosida ularni salohiyati, qobiliyatini inobatga olib, o‘zi sevgan hunarga, mehnatsevarlikka o‘rgatish -yosh avlodni ham ma’naviy jihatdan shakllanishida, ham o‘z hunari va kasbining yetuk mutaxasisi bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniy merosimiz hisoblanmish hunarmandchilik noyob go‘zallikni o‘zida tarannum etgan zebu - ziynatlar, har xil ro‘zg‘or anjomlari, ip va ipakdan tikilgan matolar, loy va ganchdan yasalgan sopol hamda chinni idishlar, xum va xumdonlar, kulolchilik san'atiga mansub bo‘lgan buyumlar barchasi xalqimizning moddiy hamda madaniy merosi hisoblanadi.

Ustoz-shogird an’analari – milliy hunarmandchilik sohasini yanada takomillashtirish, uni jahon xalqlarining e'tiboriga molik ravishda taraqqiy ettirish va yosh avlodni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bobojonov D., Abdullayev M. Xorazm amaliy san’ati ustalari. – Xiva: Xorazm Ma`mun akademiyasi, 2010. – B. 32.
2. Bulatov S., Muxtorov A. Ganchkorlik. – T.: Musiqa, 2006. – B.11.
3. Nozilov D.A. O‘rta Osiyo dizayni tarixidan. – T.: O‘zbekiston, 1998. – B. 7.
4. Otajonova D. O‘rta Osiyoda “kamarbasta” hunarmandchilik marosimi // San’at. 2009. – № 1.
5. Kulol Matchonov Odilbek bilan suhbatdan (Xonqa tumani Madir qishlog`i, 2022-y.)
6. Mirzaahmedov M. Boshlang‘ich badiiy naqsh ishlash uslubiyati. – Toshkent: O‘zbekiston. 2002. – B. 6.

SAMARQAND, XIVA KULOLCHILIK MAKTABLARINING O’ZIGA HOSIGI..

Buvayev Vakhobjon Sadikovich

vahobjonbuvayev@gmail.com

Namangan davlat universiteti

Pedagogika fakulteti “San’atshunoslik”kafedrasi dotsenti

Annotation:. preservation of all types of National Crafts in our country, noble actions towards its development made it possible to preserve the activities of Masters and craftsmen even in the most complex conditions. These aspects show their results in the field of pottery, as do all areas of National Crafts. We are not mistaken to say that the art of ceramics of Uzbekistan in World Ceramics has a special and unique place. In my opinion, this is manifested when the ungrateful Masters managed to bring pottery to a high level of art.

Keywords:book, knowledge, culture, spirituality, education, knowledge.

Kirish. O`zbekiston kulolchilik san`ati ijodiyotning maxsus va mustaqil bir turi bo`lib, o`zining rivojlanish qonunlariga hamda taraqqiyot bosqichlariga egadir. Zamonaviy an`anaviy kulolchilik san`ati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tarixan shakllangan maktablarning an`anasi asosida rivojlanib kelmoqda. Badiiy bezatish uslubi va texnologik xususiyatlari bo`yicha uchta asosiy kulolchilik maktablari namoyon[1]: Farg’ona badiiy kulolchilik maktabi (asosiy markazlari Rishton, G’urumsaroy); BuxoroSamarqand badiiy kulolchilik maktabi (Samarqand, Urgut, G’ijduvon); Xorazm badiiy kulolchilik maktabi (Madir va Kattabog’ qishloqlari). Har bir maktab o`zining rivojlanish va ijodiy tamoyillari, etakchi markaz va ustalari, boshqa maktablardan farqlovchi xususiyatlari bilan belgilanadi. Ular o`z

[1] Abduvaxobova Sevara Alisher Qizi (2022). TEMA« SOVERShENSTVOVANIYe ZANYaTIY IZOBRAZITELЬNЫM ISKUSSTVOM I RAZVITIYe SPOSOBNOSTEY UChAIЩIXSYa». Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1 (2), 104-107. Doi: 10.5281/zenodo.7182013

qonuniyatlari doirasida faoliyat ko`rsatadi va asosiy badiiy tamoyillari umumiyligini saqlab keladi.

Material va metodlar: Kulolchilik san`atida qo`llaniladigan naqshlar asosan X-XI asrlarda O`rta Osiyoda qaror topgan islom dini ta`sirida (VIII asr) shakllanib, xalq ustalarining ko`p qirrali badiiy iste`dodini namoyon qilib keldi. O`zaro ta`sir jarayonida vujudga kelgan va shakllangan sir va sirlash texnologiyasi O`zbekiston madaniyati va san`atida juda boy hosila bergan. IX–XIII asrlar O`rta Osiyo sirlangan kulolchiligida bezak naqshlari: geometrik (xandasaviy), epigrafik, o`simliksimon (islimiy), zoomorf, antropomorf va boshqalarining mavjudligi shundan dalolat beradi. IX–XII asrlar kulolchilik san`atining mavzu va uslublari evolyutsiyasida murakkab dinamik jarayon kechgan. Bu davrlar sirlangan kulolchiligida kechgan uslubiy jarayonlar keyingi asrlar kulolchiligi naqsh tizimi taraqqiyotini belgilab bergan.

Ma`lumki, musulmon mamlakatlari madaniyati an`analarga qat`iy rioya qilishga, an`analarni muntazam takomillashtirish maqsadiga asoslangan qonun-qoidaga muvofiq kelishga asoslanuvchi badiiy ijod tilini tashkil etadi. Bu nuqtai nazardan, «badiiy kulolchilik maktablari murakkab badiiy sistema sifatida rivojlanishi, hamda an`analarni o`zlashtirish jarayoni turli formatsiyalar o`zgarishi bilan bog’liq qonunqoidalarga asoslanganligini belgilaydi» [2]. Qonun-qoida tizim sifatida o`z ichiga har bir kulolchilik maktabi tajribasini mustahkamlaydigan mintaqaviy, mahalliy xususiyatlarni qamrab, aholi etnik tarkibi, joylanishi va tarixiylik tamoyillari bilan bevosita bog’liqdir.

O`zbekiston kulolchilik san`atining eng boy merosini saqlab qolgan maskan hisoblanadi, chunki zamonaviy an`anaviy va noan`anaviy kulolchilik san`ati (XIX

[2] Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. S. O. (2020). Development Of Students' Descriptive Competencies In Pencil Drawing Practice. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, *2*(08), 261-267.

asrda tarixan shakllangan) vakillarida mahalliy madaniyatning tarixiy qatlamlariga qiziqishlari kuzatilmoqda.

O`zbekistonda qadimdan har vohaning hunarmandchilik markazlari vujudga kelib shakllangan. Ishlab chiqarish uslubi bo`yicha kulolchilik ikkita asosiy turlarga bo`lingan – sirlangan va sirlanmagan. Sirlanmagan kulolchilik qadim tarixga ega. VIII asr oxiri – IX asr boshida Movarounnahr shaharlarida sirlangan kulollik keng tarqalgan. IX-XVIII asrlarda ushbu uslub badiiy kamollikka va yuqori texnologik sifatga ega bo`ldi.

XX asrdan hozirgi O`zbekiston hududlarida asosiy maktablar va markazlar tashkil topdi: a) Samarqand-Buxoro maktabi, Toshkent, Samarqand, Urgut, Buxoro, G’ijduvon, SHahrisabz, Kitob, Kattako`rg’on, Denov markazlari bilan; b) Farg’ona maktabi Rishton va G’urumsaroy markazlari bilan; v) Xorazm maktabi Xonqa, Modir qishlog’i, Kattabog’, CHimboy markazlari bilan. Har bir markaz o`ziga xos mahalliy xususiyatlarini saqlagan. Ularda hozirgi vaqtda sopol idishlarning yassi (kosalar, laganlar), baland, ya`ni yuqoriga qarab yo`naltirilgan (ko`zalar, xumlar) turlari va uy-ro`zg’or buyumlar ishlab chiqarilmoqda.

Natijalar muhokama: Samarqand sopol buyumlari jarangdor nafis bo`lib chiqishida qo`rg’oshinli sir va sarg’ish-yashil, jigarrang bo`yoqlar muhim o`rin egallaydi (namoyondalari Alisher va Abdulla Narzullaevlar (G’ijduvon), Namoz va No``mon Obloqulovlar (Urgut), X.Haqberdiev (Samarqand).

Samarqandda kulolchilik neolit davridan buyon mavjud bo`lsa-da, uning eng rivojlangan davrlari eramizning IX–XII asrlarga to`g’ri keladi. Sanoat rivojlangan davrga kelib bu soha ancha susaydi, so`nggi o`n yilliklarda uning ayrim ko`rinishlari hatto yo`qolib ketish xavfi ostida qoldi[3].

[3] oglu Sharipjonov, M. S. OLIY PYEDAGOGIK TA’LIMDA TALABALARGA MUAMMOLI MASHG’ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI.

Ana shunday paytda kulollar sulolasini davom ettirib kelayotgan hunarmand oilalar o`z maktabini tashkil etdi. Ulardan biri – Bobomurodovlar sulolasi.

Samarqand kulolchilik maktabining o`ziga xosligi texnologik omil bilan bog’liqdir. Ushbu maktab markazlari uslubining ichki omillari ko`proq «afrosiyob» sopoli an`analariga asoslanadi. O`zbekiston miq`yosida XX asr ikkinchi yarmidagi xalq xo`jaligini rivojlantirish rejalari (chinni zavodlari va kulolchilik korxonalarini barpo etilishi) va shaharlar ahamiyatining oshish jarayoni an`anaviy Toshkent va Samarqand kulolchilik markazlariga salbiy ta`sir ko`rsatdi. Xozirgi kunda Buxoro-Samarqand an`anaviy kulolchilik maktabini asosan G’ijduvon, Urgut markazlari namoyon etmoqda. Ushbu markazlarda keng qo`llaniladigan naqshlardan biri «bofta» yoki «charbargi davra» aylana naqshidir. Ba`zi ma`lumotlarga qaraganda, bu aylanalar yulduz, oy va quyoshni ifodalaydi. Bu hol «aylana» naqshining diniy qarash va e`tiqodini bildiruvchi solyar quyosh tizimi bilan aloqador ekanligini ko`rsatadi «ushbu yo`sinlar kosmologik tafakkur hamda diniy marosimlar bilan bog’liq xalq san`atining eng qadimiy – arxaik qatlamlariga taaluqlidir». Asrlar osha bu ramziy belgilarning estetik ma`nosi kuchayib, ornamental bezak tizimida mustaqil joy olgan.

Samarqand maktabining, uning badiiy bezak majmuining belgilovchi xususiyatlaridan biri qush va hayvonot olami unsurlaridan tashkil topgan ramziy naqshlardir. Ayniqsa, G’ijduvon kulolchilik markazida ko`p qo`llaniladigan: «dumi burgut», «murg’i safid» (oq qush), «boy qush», «guli tovus» va hokazolar[4].

Hayvonot olami unsurlarini tasvirlash ushbu maktabning naqshlar semantikasi genezisini IX– XI asrlardagi klassik Afrosiyob sopol buyumlarida namoyon bo`ladi. Afrosiyobning mashhur bo`lgan sopol buyumlaridagi bir necha lavhalarida oq kaptarni ko`rish mumkin. Kaptar, o`rdak, xo`roz va ot tasvirlari bu davrdagi

[4] Mirzahamdamovna, QB (2022). BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILARIDA BADIIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHGA AMALIY SAN'ATNING O'RNI. *SARQ UYGLANISHI: INNOVATSION, TA’LIM, TABIY VA IJTIMOIY FANLAR ILMIY JURNALI* .

sopol buyumlarda deyarli real shakllarda tasvirlangan. Ba`zi bir shartli holdagi tasvirlar xom ashyo xususiyatidan kelib chiqib ijro etilgan. Ammo ob`ektiv voqelik timsolini sub`ektiv tarzdagi shartlilikda berilishini ham inkor etish mumkin emas. Real voqelikning ob`ektlarini bunday tarzda tasvir etilishi va tasviriy mavzuga salbiy munosabatda bo`lgan xukmron din davrida qadimgi ma`nolarning berilishi ijtimoiy-tarixiy muhit bilan izohlanadi. Mazkur davr Renessans hisoblanib, fan va madaniyat ravnaqi eng yuksak samaralar bergan edi, antik tushunchalar bilan omuxtalashgan falsafiy fikrlar esa dunyoni anglashni tasdiq etish darajasiga ko`tarilgan edi.

Xorazm an`anaviy kulolchilik bezaklari orasida geometrik shakllar hamda o`simliksimon tasvirlar katta o`rin egallaydi. Xorazm naqshlari Farg’ona va Samarqand kulolchilik maktablaridan aniq ranglarga qat`iy rioya qilinishi, geometrik naqshlarning o`ziga xos usulda talqin qilinishi bilan ajralib turadi. O`zbekiston kulolchilik san`atiga xos an`anaviy sxemalar – yuzali buyumlarning satxini hoshiya va markaziy qismga bo`lish – Xorazm buyumlarida keng ravishda qo`llanilmagan. Badiiy buyumlarning markaziy qismiga geometrik arabeska «girix» tushurish, Xorazm kulolchiligining o`ziga xos xususiyatidir. Girix O`rta Osiyoda va YAqin SHarqda keng tarqalgan naqsh bo`lib, uning rivojlanish davri IX-XII asrlarga to`g’ri keladi. Xorazm badiiy kulollik san`ati qadimdan me`morchilikning rivojlanishi bilan chambarchas bog’liq bo`lgan. Kulolchilik buyumlarida me`morchilik bezaklariga taalluqli naqshlarni ko`rish mumkin – girix, va murakkab ko`rinishga ega bo`lgan turlicha «madohil», «turunj» kabi asosini medal’on sifat naqshlar majmuidan iborat tasvirlar egallagan.

XX asr kulolchilik san`atining badiiy bezak tizimi o`zida qadim va o`rta asrlarda shakllangan naqshlar majmui va XIX asr oxiri va XX asrlarda bezak tizimidan joy olgan buyum tasvirlari asosida rivojlanib kelmoqda. SHu bilan birga, 1990 yillarda badiiy kulolchilik san`ati bezak majmui tizimiga 1930-50-yillar kabi

begona unsurlar, ya`ni portretlar, me`moriy binolar tasviri, arab yozuvlari va hokazolar kirib keldi.

XX asr oxiri XXI asr boshida kulolchilik san`atida birlamchi arxetiplar (qadimiy va o`rta asrlar davri) hamda ikkilamchi arxetiplar (XIX – XX asrlar boshidagi predmetli tasvir) sirlangan sopol buyumlarni bezash jarayonida izchil davom etgan.[5] SHuningdek, kulolchilikda zamonaviy badiiy jarayondagi o`zgarishlar ta`sirida rivoj topgan uchinchi avlod arxetiplari (me`moriy obidalar tasvirlari, arab yozuvlari va xokazolar) ham faollashgan.

Kulolchilik san`atida uzoq muddatli rivojlanish natijasida yuzaga kelgan naqshlar majmui, badiiy an`analar, birinchidan ijtimoiy ongning mazkur shakliga xos hamda turli tarixiy davrlarda umumiy bo`lgan tomonlarni, ikkinchidan, xalqning avloddan avlodga o`tadigan o`ziga xos mahalliy jihatlarini, uchinchidan, muayyan maktab va yo`nalish uchun xos bo`lgan tomonlarni o`ziga qamrab oladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida aniq chegaralangan maktablar asosida rivojlanib kelayotgan ko`plab xunarmandchilik markazlari qatorida kulolchilik markazlari ham XX asr davomida qator o`zgarishlarni boshidan kechirdi. XX asrning ikkinchi yarmida an`anaviy kulolchilik san`ati rivojida salbiy o`zgarishlar guvohi bo`lamiz. Ayniqsa, bu o`zgarishlar an`anaviy markazlar taqdirida yorqin namoyon bo`lgan. XX asr mobaynida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlarning o`zgarishi, amaliy san`at turlarining an`anaviy markazlari taqdiri masalalarini, badiiy ishlab chiqarilgan mahsulot an`analarga rioya qilinishi muammolarini hamda naqshlar majmuasi muhitida qator o`zgarishlarni yuzaga keltirdi.

Misol uchun, XX asrning 1930 yillaridagi siyosiy o`zgarishlar natijasida hamma markazlarda maxsus kurslar va artellar paydo bo`ldi. SHu bilan birga,

[5] Abdinabi, A. va Rayhona, T. (2024). Tasviriy san'at turlari va janrlarida badiiy ijod asoslarining o'ziga xos xususiyatlari. *Web of Teachers: Inderscience Research* , *2* (3), 219-228.

o`sha davrning tasviriy san`atida kechayotgan jarayonlar hamda umumsan`atning asosiy tamoyillari ta`sirida xalq ustalari ijodida, ya`ni an`anaviy sopol buyumlarda, ularning naqsh majmuasida portret va syujet yo`sinlari paydo bo`la boshladi[6]. Bu albatta, an`anaviy naqsh tabiatini buzilishiga va uslubiy eklektikaga olib keldi. Bu hol, 1950-yillarda ham ustalar ijodida o`z aksini topadi, lekin ayrim unsurlar, masalan, Rishton va G’urumsaroy markazlarida kumg’on va pichoqlar tasviri, Xorazmdagi Madir qishlog’idagi kulolchilik markazida qurolasrorlar tasviri, an`anaviy naqshlar majmuasiga muvofiq ravishda uyg’unlashib ketgan, hamda zamonaviy kulolchilik san`atida markazlarni o`ziga xos belgisi sifatida idrok etiladi.

XX asrda O`zbekistonda kulolchilik mahsulotlarini an`anaviy tarzda ishlab chiqarish sekinlik bilan pasayib, ularning o`rniga sanoat mahsulotlari egallay boshlagan. Buning oqibatlari hunarmandchilikning mazkur turi umumiy holatiga salbiy ta`sir ko`rsatgan, – sirlangan kulolchilik buyumlari o`ziga xos xususiyatlarini, bezak madaniyatini yo`qota boshlagan, an`analarning davomiyligi buzilishiga olib kelgan. Natijada kundalik turmushda keng qo`llanib kelgan maishiy predmetlar, jumladan, kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish barham topa boshlagan.

XX asr ikkinchi yarmida paydo bo`lgan yangi plastik san`at shakllari va an`anaviy hunarmandchilik faoliyatining ijtimoiy sharoitlarining o`zgarishi badiiy mahsulotlar bezagining muayyan transformatsiyasiga, O`zbekiston badiiy sirlangan kulolchiligi naqsh majmuasi mazmunida islom komponentining tenglashuviga olib kelgan.

O`zbekiston kulolchilik san`atida qo`llaniladigan naqshlar majmui asosi geometrik va o`simliksimon bezaklar, ramziy belgilar, hayvonot olami va

[6] Winetsky, D. E., Negoescu, D. M., DeMarchis, E. H., Almukhamedova, O., Dooronbekova, A., Pulatov, D., ... & Goldhaber-Fiebert, J. D. (2012). Screening and rapid molecular diagnosis of tuberculosis in prisons in Russia and Eastern Europe: a cost-effectiveness analysis. *PLoS medicine*, *9*(11), e1001348.

antropomorfik mavzular va buyumlar tasvirida tashkil topgan. Ushbu naqshlar IX asrda qaror topa boshlab, XIX asrlarga kelib shakllangan. Bezak majmuining tasvirdan naqshga qadar bo`lgan evolyutsiyasida uning murakkab badiiy tizimi genezisi xususiyatlari namoyon bo`ladi.

XX asr oxiri – XXI asr boshida kulolchilik bezak san`atida naqshlar majmuasidagi davomiylik saqlanib qolgan. Respublikada xalq san`ati, jumladan, kulolchilikning rivojlanishi uchun qulay iqtisodiy va ijtimoiy sharoit yaratishga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilingan. Ushbu holatlarning ijobiy ahamiyatini O`zbekistondagi qator an`anaviy kulolchilik maktablari tiklanishi misolida ko`rish mumkin.

Kulolchilik san`ati maktab va markazlarini saqlash va rivojlashtirish masalalari, kulolchilik san`atida uzoq muddatli rivojlanish natijasida yuzaga kelgan mahalliy maktablar xususiyatlari, shaxsiy va jamoaviy ijodiyot, badiiy an`analar, naqshlar majmui, hamda xalqning avloddan-avlodga o`tadigan o`ziga xos mahalliy jihatlarini o`ziga qamrab oladi.

Xulosa: xulosamiz yakunida Samarqand va Xiva kulolchilik maktablari o‘zaro farq qiladigan, lekin bir-birini to‘ldiruvchi an'anaviy san'atlardir. Samarqand kulolchilik maktabi o‘zining kompleks naqshlari va ingliz ustozi san'ati bilan tanilgan bo‘lsa, Xiva kulolchilik maktabi ranglar va naqshlar bo‘yicha o‘ziga xoslikni saqlab kelgan. Ikkala maktab ham O‘zbekistonning kulolchilik tarixida katta o‘ringa ega bo‘lib, ularning mahsulotlari nafaqat milliy, balki xalqaro bozorga ham mashhur.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abduvaxobova Sevara Alisher Qizi (2022). TEMA« SOVERShENSTVOVANIYe ZANYaTIY IZOBRAZITELЬNЫM ISKUSSTVOM I RAZVITIYe SPOSOBNOSTEY UChAЩIXSYa».

Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1 (2), 104-107. Doi: 10.5281/zenodo.7182013.

2. Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. S. O. (2020). Development Of Students' Descriptive Competencies In Pencil Drawing Practice. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, *2*(08), 261-267.
3. oglu Sharipjonov, M. S. OLIY PYEDAGOGIK TA’LIMDA TALABALARGA MUAMMOLI MASHG’ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI.
4. Mirzahamdamovna, QB (2022). BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILARIDA BADIIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHGA AMALIY SAN'ATNING O'RNI. *SARQ UYGLANISHI: INNOVATSION, TA’LIM, TABIY VA IJTIMOIY FANLAR ILMIY JURNALI* .
5. Abdinabi, A. va Rayhona, T. (2024). Tasviriy san'at turlari va janrlarida badiiy ijod asoslarining o'ziga xos xususiyatlari. *Web of Teachers: Inderscience Research* , *2* (3), 219-228.
6. Winetsky, D. E., Negoescu, D. M., DeMarchis, E. H., Almukhamedova, O., Dooronbekova, A., Pulatov, D., ... & Goldhaber-Fiebert, J. D. (2012). Screening and rapid molecular diagnosis of tuberculosis in prisons in Russia and Eastern Europe: a cost-effectiveness analysis. *PLoS medicine*, *9*(11), e1001348.

КУЛОЛЧИЛИК МАШҒУЛОТЛАРИДА ТАЛАБАЛАР ТОМОНИДАН МАТЕРИАЛШУНОСЛИК АСОСЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШНИНГ МЕТОДИК ТИЗИМИ

К.Б. Сиддиқов. Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти доценти.

Аннотация:Дастлабки босқичда талабаларни ўқитиш бўйича методик тизимни ишлаб чиқишда уларнинг касбий фазилатларини шакллантиришнинг турли жиҳатлари ҳисобга олинади, бу уларнинг кулол-рассом сифатида бадиий-ижодий ривожланишига ёрдам беради.

Калит сўзлар: мутахассис, яратиш, ишлаб чиқариш, кулол-рассом, ҳайкал, сопол, маҳсулот, бадиий безаш.

Аннотация:Разработка методической системы подготовки студентов на начальном этапе позволит учитывать разные стороны формирования профессиональных качеств, что способствует художественно-творческому развитию их как керамист-художников.

Ключевые слова: специалист, создание, производство, гончар, скульптура, керамика, изделие, художественное оформление.

Abstract:At the initial stage, the development of a methodological system for teaching students takes into account various aspects of the formation of their professional qualities, which contributes to their artistic and creative development as a potter-artist.

Key words: specialist, creation, production, potter, sculpture, ceramic, product, artistic decoration.

60210800 – Амалий санъат (бадиий кулолчилик) таълим йўналиши бўйича компетентли мутахассисларни тайёрлаш мазмуни бадиий таълимда замонавий технологияларни ўрганишни ўз ичига олади. Талабаларнинг замонавий санъат масалаларини тушуниши уларнинг бадиий диди ва тасаввурини ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этади. Кулолчилик санъатини ўргатиш ва ижодкорликни ривожлантиришнинг турли йўналишларини таҳлил қилиш жараёнида талабаларда визуал хотира шаклланади, диққат кучаяди ва когнитив қизиқиши намоён бўлади, бу эса уларнинг махсус тайёргарлигига ижобий таъсир кўрсатади. Фанларни ўзлаштириш ва кулол-рассомларни тайёрлашда турли ёндашувлар мавжуд.

Шу билан бирга, кулол-рассомларни сопол буюмлар яратишда материалларни қайта ишлаш технологияси бўйича махсус тайёрлашда зарур бўлган «Бадиий кулолчиликда ашёлар технологияси» фанидан методик тизимни ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ. Талабалар томонидан декоратив кулолчилик буюмларини яратишнинг техниктехнологик босқичларини тушуниши уларнинг касбий ривожланишининг асоси эканлигини таъкидлаш жоиз. Бу эса таълим муассасасида ўқишнинг дастлабки босқичида фанни

ўрганиш жараёнида мажбурий ҳисобланади. Бу қуйидагилар билан боғлиқ, яъни талабалар турли даражадаги тайёргарликка эга ва улар дастлаб технологик асосларни тушунишлари мақсадга мувофиқ. Аммо талабалар технологик кўникмаларни буюмларни лойиҳалаш элементлари ва атроф муҳитни бадиий безаш билан бир вақтда эгаллашлари лозим, бу эса уларнинг бадиий тафаккурларини ривожлантиришнинг муҳим компоненти бўлиб, касбни эгаллашга тайёрлайди. Мазкур йўналиш педагогик нуқтаи назардан муҳим аҳамият касб этади. Материалшунослик, технология ва ишлаб чиқаришни ўрганишда талабалар бадиий-ижодий қобилиятлари ривожланади. Натижада улар касбий маҳорат асосларини фаол ўргана бошлайдилар.

Умуман амалий безак санъати фанлари учун замонавий ўқитиш методикасини ишлаб чиқиш келажакдаги декоратив-амалий санъат рассомларининг касбий фазилатларини шакллантиришнинг турли жиҳатларини ҳисобга олишга имкон беради. Бир томондан, техник-технологик кўникмаларни ўзлаштиришда талабаларнинг шахсийижодий ривожланишини баҳолаш, иккинчи томондан эса декоратив буюм яратишда ашёларга бадиий ишлов беришнинг босқичларини аниқлаш имконияти мавжуд. Ҳозирги вақтда ўқув дастурларида [4, 4 б.] талабаларни махсус тайёрлашга оид қоидалар ҳали тўлиқ ишлаб чиқилмаган. Биринчи йил давомида ўқитиш айниқса муҳимдир. Талабалар томонидан бадиий тажрибани эгаллаш уларнинг касбий маҳоратини методик жиҳатдан асосланган ривожланиши, янги методик тизим томонидан таъминланиши керак бўлган кулолчилик санъатида мавжуд бўлган технологик жараёнларнинг қонуниятлари ва бадиий хусусиятларини англаш билан бевосита боғлиқ. Демак, бўлажак амалий безак санъати рассоми учун кулолчилик буюмларини яратишнинг технологик жараёнини ўрганиш, ҳатто таълим жараёнида ҳам, атрофмуҳитни бадиий безашнинг бир бўлаги бўлган бадиий меҳнат объектини бажариш мисолида амалга оширилиши лозим. Ўқув жараёнида ўқувчиларга декоратив буюмнинг бадиий қиёфасининг пайдо бўлиши атроф-муҳит билан узвий боғлиқлигини кўрсатиб бериш муҳим. Хусусан, маҳсулот бадиий лойиҳаланган, атроф-муҳит билан алоқада ва бадиий безаш объекти бўлиши керак. Баъзи ҳолатлар эса у интерьерни тўлдириш мақсадида безак сифатида ҳам ишлатилади. Декоратив кулолчилик буюмларининг пластик асоси шундан иборатки, бадиий ва ҳайкалтарошлик материаллари ёрдамида атроф- муҳитни бадиий безаш мумкин. Бу холат таълим соҳасида жуда юқори баҳоланади, чунки тайёргарликнинг ушбу даражаси малакага эга бўлиб, моддий маданият объектлари эса интерьернинг бадиий безаги ҳисобланади. Ушбу тайёргарлик даражасида талабалар онгли равишда безакни ифода этиш воситаси сифатида ишлатиш ғоясига мурожаат этишлари мумкин, бу эса турли объектларни безатиш услубларига таъсир ўтказади. Талабалар интерьерни бадиий безашнинг анъанавий услуби бўлган

буюмларни яратиш жараёнида уни қўллаш нуқтаи назаридан безакни бадиий жиҳатдан идрок этишлари, кўришлари ва эстетик баҳо беришлари мумкин. Фаннинг асосий педагогик вазифалари қуйидагилардан иборат: – бўлажак кулол-рассомларнинг маълум бир объектни ижро этиш мисолида ривожланишини таъминлаш (бадиий ташкил этиш тамойиллари асосида яратилган чизиқли сопол безак - раппорт , раппорт элементларидан иборат йўл ичидаги композицияни ижро этиш); – бадиий кулолчилик бўйича материалшуносликнинг моҳиятини очиб бериш, талабаларнинг бадиий кулолчилик буюмларини яратишнинг асосий технологик босқичларини тушуниши, устахонада ишлаш ва ишлаб чиқариш шароитида фанни ўрганиш; – талабалар томонидан бадиий безак буюмларининг атроф-муҳит мазмуни ва интерьер билан алоқадорлиги, умуман пластик санъат тури гўзаллигининг моҳияти ролини тушуниш. Ўзаро келишувга биноан объект сифатида раппорт қабул қилинди, чунки плитка кўринишидаги ушбу сопол маҳсулот белгиланган параметрлар бўйича (йўл ичидаги безак композицияси, унинг ўлчамлари, бажариш техникаси ва материаллар) ишлаб чиқарилган. Раппорт технологик жиҳатдан модул сифатида белгиланган бўлиб, талабаларнинг касбий маҳорат ва тажрибасини ортишига туртки бўлади. Айнан шу нарса талабаларга кулолчилик буюмларини тайёрлашнинг босқичларини ўрганишга имкон берди: эскизларни ишлаб чиқиш, бадиий лойиҳалаш, моделлаштириш ва бадиий безатиш усулларини ўзлаштириш, печда пишириш босқичи, маҳсулотларни кулолчилик бўёқлари билан бўяш, йўл ичида композиция яратиш. Интерьер билан боғлиқ бўлган чизиқли безак кўринишидаги бадиий-ижодий ишларни бажариш пайтида берилган вазифаларни ҳал қилиш жараёнида талабалар рассом сифатида керакли касбий фазилатларни эгаллайдилар. Рельефли безак композицияларини яратиш талабалар учун мураккаб ўқув вазифаси ҳисобланади. Шунинг учун улар атроф-муҳитни безатиш мақсадида махсус – сопол маҳсулотни яратиш қонуниятларини ўрганишда технологик жиҳат бўлган, бадиий кулолчилик санъатига хос бўлган усулни ўрганадилар. Йўл ичидаги безакни бажариш, ўқувчиларнинг атроф-муҳит тасвирида ишлаш кўникмаларини шакллантириш ва ривожлантириш жиҳатларини ўз ичига олади. Бу талабаларга интерьерни ифода этиш хусусиятларидан фойдаланиш қобилиятини беради, бу эса унга безакни киритиш учун жуда муҳим. Ушбу ўқув вазифалари ўқувчиларнинг фазовий тасаввурларини, уларнинг тасаввурларини ривожлантирадиган ва бадиий услуб ҳақида ғояларни шакллантиришга хизмат қилади. Ўқитиш методикасида қуйидаги вазифаларни эътироф этиш жоиз: талабаларнинг бадиий-ижодий ривожланиши муаммоларини ҳал этишга мос келадиган объектни лойиҳалаш; маҳсулотни бажаришда анъанавий технологик жиҳатини ажратиб кўрсатиш, турли услублар асосида бадиий ечимни излаш; талабаларнинг лойиҳали-образли фикрлашини ривожлантириш ҳамда уларнинг шахсий-ижодий қобилиятларини очиб бериш.

Хулоса ўрнида таъкидлаш жоизки, талабалар махсус тайёргарлик ҳажмини тушунишлари, амалий безак санъатининг муаммоларини билишлари, технология бўйича вазифаларни ижодий ёндашув асосида бажаришни ўрганиш, шунингдек уларни касбий идрок этиш жиҳатида қўллашлари мақсадга мувофиқ.

Адабиётлар:

1. Алиева С.Ш. Философия форм и цвета в творчестве мастера керамиста. // SAN`AT. – T.: 2014. – №1. – С.14-17.

2. Буббико Ж. Крус Х. Керамика: техники, материалы, изделия. – М.: Ниола-пресс, 2009.

3. Бодров А. Ю. Формирование профессиональных компетенций будущих художников керамистов в процессе изучения специальных дисциплин. ВЕСТНИК МГУКИ. – М.: – № 5 (31) 2009. – С.227-230.

4. Гзовская О.Л., Гилевич Г.И., Демчев П.Г. и др. Примерная программа дисциплины «Основы теории декоративно-прикладного искусства с практикумом». – М.: «Прометей» МПГУ, 2004.

5. Декоративно-прикладное искусство. Современная энциклопедия: художественная обработка камня, кожи, металла, художественная эмаль, литье, керамика, мозаика из дерева, точение по гипсу: Современная энциклопедия. – Ростов-на-Дону: Феникс; Донецк: Кредо, 2007.

6. Поверин А.И. Гончарное искусство (художественная керамика): учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: МГУКИ, 2006.

QORAQALPOQ AMALIY SAN’ATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
San’atshunoslik fakulteti San’atshunoslik kafedrasi assistent o‘qituvchisi
Yusupov Alimjon To‘raboyevich
oyusupov031@gmail.com
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institute Badiiy kulol va tamirlash kafedrasi 2-bosqich magistranti
To’raboev Mansur Olimjon O’g’li
toraboevmansur@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Qoraqalpoq amaliy san’atining tarixiy shakllanishi, asosiy turlari va rivojlanish yo‘nalishlari yoritilgan. Muallif gilamchilik, kashtachilik, zargarlik, yog‘och o‘ymakorligi va sopolchilik kabi an’anaviy san’at turlarining xususiyatlarini bayon qiladi. Shuningdek, islom madaniyati ta’siri va san’atdagi bezak elementlarining o‘zgarishi ko‘rsatib o‘tiladi. So‘nggi yillarda bu sohani rivojlantirish, yosh avlodga o‘rgatish va xalqaro maydonga olib chiqish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilinadi.

Annotation

The article explores the historical development, main types, and modern trends of Karakalpak applied arts. It highlights traditional crafts such as carpet weaving, embroidery, jewelry-making, wood carving, and pottery. The influence of Islamic culture and the evolution of decorative elements are discussed. The paper also analyzes recent efforts to preserve and promote these art forms, including education for youth and international representation.

Kalit so’zlar: utilitar (amaliy), spool, geometrik naqshlar, islomiy motivlar, arabiy yozuvlar, kashtachilik, gilamchilik, zargarlik, yog‘och o‘ymakorligi, tendensiyalar.

Qoraqalpoq amaliy san’ati Qoraqalpoq xalqining boy tarixiy, madaniy merosini o‘zida aks ettirgan san’at turidir. Bu san’at xalqning kundalik turmushi, urf-odatlari va diniy e’tiqodlariga asoslangan bo‘lib, asosan qo‘lda tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari, bezak buyumlari va an’anaviy kiyim-kechaklarga qaratilgan. Qoraqalpoq amaliy san’ati o‘zining o‘ziga xosligi, estetik jihatlari va chuqur tarixiy ildizlari bilan ajralib turadi.

Qoraqalpoq amaliy san’ati uzoq tarixga ega bo‘lib, asrlar davomida rivojlanib kelgan. Uning kelib chiqishi Qoraqalpoq xalqining ko‘chmanchi hayot tarzi, o‘ziga xos tabiiy sharoitlari va turmush tarzi bilan bog‘liqdir. Qoraqalpoqlar ko‘chmanchi xalq bo‘lgani uchun ular o‘z kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan ko‘plab buyumlarni qo‘lda yasashgan va bu jarayon davomida estetik bezak va amaliy san’at mahsulotlari yaratilgan.

Ilk davrlar: Qoraqalpoq amaliy san’ati qadimgi davrlarda asosan utilitar (amaliy) funksiyaga ega bo‘lgan. Ushbu davrda asosan uy-ro‘zg‘or buyumlari, uylar uchun bezaklar, kiyim-kechak va qurol-yarog‘lar tayyorlangan. Mahsulotlar tabiiy materiallardan – yog‘och, teri, tosh va junlardan tayyorlangan.

Ko‘chmanchi davr: Ko‘chmanchi hayot tarzi davrida qoraqalpoqlar o‘z hayot tarzlariga mos keladigan amaliy san’at asarlarini yaratishgan. Ayniqsa, gilam to‘qish, kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi, zargarlik buyumlari va sopol idishlar yasash an’anaviy qoraqalpoq san’atining asosi bo‘lgan.

Musulmon madaniyati ta’siri: Qoraqalpoq xalqining musulmon bo‘lishi va islom dinining tarqalishi amaliy san’atda yangi yo‘nalishlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Islom madaniyati ta’sirida qoraqalpoq san’atida geometrik naqshlar, islomiy motivlar va bezaklar ko‘p qo‘llanila boshlandi. Xususan, kashtachilik va gilamchilikda arabiy yozuvlar va islomiy belgilar paydo bo‘ldi.

Qoraqalpoq amaliy san’atining asosiy turlari

Gilamchilik: Gilam to‘qish qoraqalpoq amaliy san’atining eng qadimgi turlaridan biri hisoblanadi. Qoraqalpoq gilamlarida geometrik naqshlar, tabiat manzaralari va turli xil ramziy obrazlar ishlatiladi. Qoraqalpoq gilamlarining o‘ziga xosligi ularning rang-barangligi va naqshlarining simmetrikligida namoyon bo‘ladi.

Kashtachilik: Qoraqalpoq ayollari tomonidan yaratilgan kashtachilik asarlari xalqning turmush tarzi va an’analarini aks ettirgan. Kashtachilik buyumlari asosan kiyim-kechak, turli to‘qimachilik buyumlari va uylarga bezak sifatida ishlatilgan. Qoraqalpoq kashtachiligida gul va o‘simlik naqshlari keng qo‘llanilgan.

Zargarlik: Qoraqalpoq zargarlik san’ati ham uzoq tarixga ega. Zargarlik buyumlari, jumladan, ayollar uchun taqinchoqlar (bilakuzuk, sirg‘a, taqinchok) milliy madaniyatning muhim qismi bo‘lib, ular xalq orasida yuqori qadrlangan. Zargarlik buyumlari ko‘pincha kumush va boshqa qimmatbaho metallar bilan bezatilgan.

Sopol buyumlar (kulolchilik): Qoraqalpoq kulolchilik san’ati asosan kundalik turmush uchun zarur bo‘lgan idish-tovoqlar, sopol buyumlar va boshqa uy-ro‘zg‘or anjomlarini tayyorlash bilan bog‘liqdir. Ushbu buyumlar ko‘pincha qo‘lda ishlangan va ular ustida o‘ziga xos naqshlar chizilgan.

Yog‘och o‘ymakorligi: Qoraqalpoq yog‘och o‘ymakorligi san’ati uylar va masjidlar uchun yog‘ochdan tayyorlangan mebel, ustunlar va bezaklar yaratishni o‘z ichiga oladi. Yog‘och o‘ymakorlik mahsulotlarida ko‘pincha geometrik naqshlar va diniy motivlar ishlatilgan.

Qoraqalpoq amaliy san’atini rivojlantirish tendensiyalari

So‘nggi yillarda qoraqalpoq amaliy san’atini rivojlantirish va saqlab qolishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Quyida ushbu tendensiyalar haqida batafsil ma’lumot keltiriladi:

Madaniy merosni saqlash: Qoraqalpoq amaliy san’atini rivojlantirishda milliy madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mahalliy hunarmandlar va san’atkorlar tomonidan o‘ziga xos qoraqalpoq an’analarini tiklash va rivojlantirishga qaratilgan turli xil dasturlar amalga oshirilmoqda.

Hunarmandchilik maktablari: Qoraqalpog‘istonda an’anaviy hunarmandchilik turlarini yosh avlodga o‘rgatish maqsadida maxsus o‘quv kurslari va hunarmandchilik maktablari tashkil etildi. Bu maktablarda o‘quvchilar gilam to‘qish, kashtachilik, zargarlik va boshqa amaliy san’at turlarini o‘rganadilar.

Xalqaro ko‘rgazmalar va festivallar: Qoraqalpoq amaliy san’atini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish maqsadida turli xalqaro ko‘rgazmalar va festivallar tashkil etiladi. Ushbu tadbirlar orqali qoraqalpoq san’ati jahon hamjamiyatiga tanitiladi va xalqaro bozorga chiqish imkoniyati kengayadi.

Texnologiyalarni joriy etish: Zamonaviy texnologiyalarni qoraqalpoq amaliy san’atiga joriy qilish orqali yangi ishlab chiqarish usullari yaratildi. Xususan, hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlashda texnologik innovatsiyalar qo‘llanila boshladi. Bu esa mahsulotlarning sifatini oshirish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Turizm va hunarmandchilikni rivojlantirish: Qoraqalpog‘istonning madaniy merosi va amaliy san’ati turizm sohasida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Hunarmandchilik mahsulotlari milliy turizmni rivojlantirishda muhim omillardan biri bo‘lib, xorijlik sayyohlar orasida qoraqalpoq mahsulotlariga talab ortib bormoqda.

Xulosa

Qoraqalpoq amaliy san’ati o‘zining boy tarixi va ko‘p qirrali madaniy merosi bilan ajralib turadi. U ko‘plab asrlar davomida rivojlanib kelgan va o‘ziga xos an’analarga ega. Davlat tomonidan qabul qilingan qonun va qarorlar, jumladan, hunarmandlarga berilgan imtiyozlar va moliyaviy yordam, bu sohaning iqtisodiy va madaniy jihatdan barqaror o‘sishini ta’minlamoqda. Hunarmandchilik va amaliy san’atning rivojlanishi milliy qadriyatlarni saqlab qolish bilan birga, jahon bozorida O‘zbekiston mahsulotlarini targ‘ib qilishga yordam bermoqda.

So‘nggi yillarda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, madaniy merosni saqlash va qoraqalpoq amaliy san’atini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish bo‘yicha sezilarli qadamlar qo‘yildi. Bu tendensiyalar milliy san’atning yangi rivojlanish bosqichiga kirishiga va uni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.I.Ruziyev. educational guide "geometric and Projective Drawing" Tashkent-2010

2. K.D.Rakhimov, A.S. Uralov textbook "design of objects of Landscape Architecture". Publishing house" Sano-standard": Tashkent-2015

3. Sh.Kalliklishov, M.Amanbaev "Karakalpak national patterns" 2011

4. https://meros.uz, https://mHYPERLINK https://mfa.uz / " faHYPERLINK https://mfa.uz/.uz

5. Авижанская С.А., Бикбулатов Н.В., Кузеев Р.Г. Декоративноприкладное искусство башкир. Уфа, 1964.

6. Алиева З.Ж. К истории каракалпакских женских украшений // SAN’AT. № 1.Ташкент, 2000. Алиева З.Ж. Женские ювелирные украшения каракалпаков XIX-XX вв.: Дис. … канд. искусствоведения. Ташкент, 2004.

7. Алиханов-Аварский М. Поход в Хиву (кавказских отрядов). 1873. Степь и оазис. Санкт-Петербург, 1899.

8. Алламуратов А. Художественные особенности каракалпакской народной вышивки: Автореф. дис. … канд. искусствоведения. Нукус, НИИ Теории и истории изобразительного. искусства АХ СССР, 1969.

9. Богословская И.В. Киймешек // SAN’AT. № 2 Ташкент, 2003. Богословская И.В. Тайнопись каракалпакского узора // SAN’AT. Ташкент. 2008. № 2. Богословская И.В. Зооморфные мотивы в каракалпакском орнаментальном искусстве // SAN’AT. № 2. Ташкент: 2009.

10. Хазанов А.М. Кочевники Евразийских степей в исторической ретроспективе // Кочевая альтернатива социальной эволюции. МОСКВА, 2002. ЦГА РУз, ф.И.-16, оп. 1, д.337, л.41.

11. Царева Е.Г. Ковры в собрании Российского этнографического музея. Интерактивный каталог. СПб.: РЭМ, 2011. 60 с. Чепелевецкая Г.Л. Сузани Узбекистана. Ташкент, 1961.

12. Akmoldoeva Bibira, Sommer John, Klavdiya Antipina. Ethnographer of the Kyrgyz / Spring Hill Press. Mc.Kinleyville, California. 2002. Decorative and Applied Art of Turkmenia / Compiled and introduced by L. Beresneva.

AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY KULOLCHILIKDA, TALABALARNING AMALIY KASBIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Maxmudjon Ubaydullayev Axmadjonovich

Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada an’anaviy va zamonaviy kulolchilik sohasining rivojlanishi va uning talabalarning amaliy kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Kulolchilikda an’anaviy uslublar va zamonaviy texnologiyalarning o‘zaro integratsiyasi, ularning ta’lim jarayoniga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarni kasbga yo‘naltirish, ijodkorlikni rivojlantirish va amaliy ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati ko‘rsatilgan. Maqolada an’anaviy va zamonaviy kulolchilikni uyg‘unlashtirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: an’anaviy kulolchilik, zamonaviy texnologiyalar, kasbiy ko‘nikmalar, amaliy ta’lim, ijodkorlik, innovatsion yondashuvlar.

KIRISH.

Kulolchilik insoniyat tarixining eng qadimiy san’atlaridan biri bo‘lib, u asrlar davomida nafaqat amaliy ehtiyojlar uchun, balki madaniy merosning ajralmas qismi sifatida ham rivojlanib kelgan. Kulolchilik asarlari milliy madaniyat, qadriyatlar va an’analarni ifodalashda muhim vosita sifatida xizmat qilgan. Shu sababli, mazkur soha nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy jihatdan ham ahamiyatlidir.

Ta’lim jarayonida kulolchilik o‘ziga xos amaliy san’at sohasi sifatida talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni anglash va ularni asrab-avaylash ko‘nikmalarini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, zamonaviy ta’lim tizimida kulolchilikni amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘qitish, talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga, ularni ekologik ong va mas’uliyatli yondashuvga o‘rgatadi. Bu jarayon nafaqat talabalarning

hunarmandchilik mahoratini oshiradi, balki ularda ijodiy fikrlash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qobiliyatini rivojlantiradi.

Bugungi kunda kulolchilik sohasida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning joriy qilinishi, uning ta’limdagi o‘rnini yanada mustahkamlash imkonini bermoqda. Masalan, 3D texnologiyalar, raqamli modellashtirish va ekologik toza materiallar yordamida talabalarga loy bilan ishlash jarayonini chuqurroq o‘rgatish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa kulolchilikni nafaqat an’anaviy hunarmandchilik sifatida, balki zamonaviy kasbiy faoliyat sifatida ham taqdim etishga sharoit yaratadi.

Shuni ta’kidlash joizki, kulolchilik ta’limi orqali talabalar milliy madaniyat va san’atni o‘rganish bilan bir qatorda, xalqaro ko‘nikmalarni ham egallashi mumkin. Xalqaro darajada tashkil etiladigan kulolchilik festivallari, ko‘rgazmalari va ustaxonalar orqali talabalar o‘z bilim va tajribalarini boyitib, kasbiy mahoratini oshirishi mumkin. Bu jarayon esa ularni global mehnat bozoriga muvaffaqiyatli tayyorlashga yordam beradi.

Maqolaning ushbu bo‘limida kulolchilikning ta’lim jarayonidagi ahamiyati, uning talabalarning kasbiy va ijodiy rivojlanishiga qo‘shgan hissasi batafsil ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy yondashuvlar va an’anaviy uslublarni uyg‘unlashtirish orqali talabalarga sifatli va samarali ta’lim berishning ahamiyati haqida ilmiy asoslangan fikrlar bayon etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Kulolchilik bo‘yicha ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar an’anaviy san’at va hunarmandchilikning turli jihatlarini qamrab oladi. Shu jumladan, quyidagi yo‘nalishlarda izlanishlar olib borilgan:

An’anaviy kulolchilikning nazariy asoslari: Ko‘pgina tadqiqotchilar (J. Boisselier, N. P. Lobachevskaya va boshqalar) kulolchilikni xalq san’ati va madaniyatining ajralmas qismi sifatida o‘rganib, uning tarixiy va etnografik xususiyatlarini tahlil qilganlar.

An’anaviy kulolchilik ming yillik tarixga ega bo‘lib, uning nazariy asoslari ko‘p jihatdan xalq amaliy san’atining qoidalariga asoslangan. Xususan, an’anaviy kulolchilikda loydan foydalanish, uni maxsus texnikalar yordamida shakllantirish va uni kuyish jarayonida mustahkamlash singari amaliyotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Kulolchilikning nazariy asoslari asosan materialning xususiyatlarini, uning moslashuvchanligini, mustahkamligini va estetik ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan.

Ko‘plab tadqiqotlar kulolchilik mahsulotlari yaratishda madaniy va ekologik omillarni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Jumladan, an’anaviy kulolchilikda ishlatiladigan uslublar va bezaklar muayyan mintaqaning madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Masalan, O‘rta Osiyoda qadimdan rivojlangan kulolchilik maktablari har biri o‘ziga xos texnikalar va dizaynlar bilan ajralib turadi. Ushbu maktablarning tajribasi va mahorati xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar va milliy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Nazariy jihatdan, kulolchilik amaliyoti ijtimoiy o‘zaro ta’sirning bir qismi sifatida qaraladi. Bu esa talabalarni nafaqat texnik ko‘nikmalarga, balki jamiyat bilan uyg‘unlikda ishlashga ham o‘rgatadi. Shuningdek, kulolchilik san’ati asarlarining yaratilishida tabiat bilan uyg‘unlikni saqlash va ekologik barqarorlik tamoyillariga rioya qilish masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, kulolchilikning an’anaviy nazariyasi zamonaviy ta’lim mazmunida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar va kulolchilik: Zamonaviy texnologiyalarni kulolchilik sohasiga joriy etish bo‘yicha olib borilgan izlanishlar, masalan, D. Thompsonning 3D-modellashtirish va innovatsion materiallar bo‘yicha ishlari, ushbu sohaning rivojlanish istiqbollarini ko‘rsatadi. Zamonaviy texnologiyalar kulolchilik san’atini yangi bosqichga olib chiqdi va uni rivojlantirishda asosiy vositalardan biriga aylandi. Bugungi kunda 3D printerlar, raqamli modellashtirish dasturlari va lazerli gravirovka uskunalari kulolchilikda keng qo‘llanilmoqda.

Ushbu texnologiyalar kulolchilik jarayonini nafaqat tezlashtiradi, balki yanada murakkab va nafis dizaynlarni yaratish imkonini beradi.

Masalan, 3D texnologiyalar orqali talabalar loydan mahsulot yaratish jarayonini yanada mukammal tushunib, o‘z g‘oyalarini real hayotga tatbiq etish imkoniga ega bo‘lmoqda. Raqamli modellashtirish dasturlari orqali loy mahsulotlari avval kompyuterda rejalashtirilib, keyinchalik amaliyotga joriy etiladi. Bu esa nafaqat vaqt va resurslarni tejaydi, balki talabalar uchun ko‘nikmalarni rivojlantirishda interaktiv va qiziqarli muhitni yaratadi.

Shuningdek, ekologik masalalar ham zamonaviy kulolchilikda muhim o‘rin tutadi. Yashil texnologiyalar yordamida qayta ishlangan materiallardan foydalanish va energiya samaradorligini oshirish orqali ekologik barqarorlikka erishilmoqda. Zamonaviy kulolchilik jarayonida keramika mahsulotlarini sintezlash uchun kimyoviy xavfsiz moddalar qo‘llaniladi, bu esa talabalarni ekologik mas’uliyatni anglashga undaydi.

Zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash talabalarni global mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllantiradi. Ular xalqaro darajadagi tendensiyalarni o‘rganib, innovatsion g‘oyalarni mahalliy kulolchilik amaliyotiga joriy etish imkoniga ega bo‘ladi. Bu jarayon nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shadi.

Ta’lim jarayonida kulolchilikni o‘rgatish: Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kulolchilik darslari nafaqat amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki talabalar ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi (J. Devey, S. Roberts) . Ta’lim jarayonida kulolchilikni o‘rgatish nafaqat talabalar kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan muhim jarayondir. Kulolchilik amaliy mashg‘ulotlari orqali talabalar materiallar bilan ishlash texnikasini o‘rganadi, ularning tabiatini tushunadi va texnologik jarayonlarning ketma-ketligi haqida bilimga ega bo‘ladi. Ushbu bilimlar ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga mustahkam zamin yaratadi.

Kulolchilikni o‘rgatish jarayonida bir nechta pedagogik yondashuvlar muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Masalan: *Amaliy o‘rgatish metodikasi:* Loy bilan ishlash jarayonida talabalar nazariy bilimlarni bevosita amaliyotga tatbiq qiladi. Bu usul talabalar uchun qiziqarli va motivatsion muhit yaratadi, chunki ular o‘z qo‘llari bilan tayyorlagan mahsulotni ko‘rish imkoniga ega bo‘ladi. *Ko‘rgazmali o‘qitish:* Kulolchilik mahsulotlari namunalarini namoyish qilish, ularning texnologik jarayonlari va san’at uslublarini ko‘rsatish orqali talabalar o‘z fikr doiralarini kengaytiradi. Shu bilan birga, ko‘rgazmali yondashuv ularning o‘z mahsulotlariga ijodiy yondashishini rag‘batlantiradi. *Interfaol darslar:* Bugungi kunda ta’lim jarayonida texnologiyalardan foydalanish keng tarqalmoqda. Masalan, 3D modellashtirish, video darslar va onlayn mahorat darslari orqali talabalar nafaqat mahalliy, balki xalqaro tajribalarni ham o‘rganishi mumkin.

Kulolchilik san’atining ta’limdagi o‘rnini oshirish uchun qo‘shimcha ravishda quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

Ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish: Talabalar loy bilan ishlashda o‘zining individual uslubini topadi, bu esa ularda badiiy didni shakllantiradi.

Ekologik ongni rivojlantirish: Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarni ekologik mas’uliyatga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Kulolchilikda qayta ishlangan materiallardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik toza texnologiyalardan foydalanish bu borada yaxshi natijalar beradi.

Madaniy qadriyatlarni asrab-avaylash: Talabalar milliy kulolchilik uslublarini o‘rganish orqali xalq madaniyati va tarixini chuqurroq anglaydi.

Ta’lim jarayonida kulolchilikni o‘rgatish bo‘yicha ilg‘or tajribalar xalqaro miqyosda ham e’tiborga sazovor. Xususan, Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi kulolchilik akademiyalari tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar, talabalarni milliy va xalqaro kulolchilik an’analariga jalb qilish orqali ular uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bois, o‘quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni

joriy qilish va an’anaviy hunarmandchilik elementlarini uyg‘unlashtirish orqali ta’lim mazmunini boyitish mumkin.

Natijada, kulolchilikni o‘rganish nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga, balki talabalarni madaniy va ekologik mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa ta’lim tizimining maqsadlariga mos keladi va milliy san’atning davomiyligini ta’minlaydi..

Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida kulolchilikning an’anaviy va zamonaviy jihatlarini uyg‘unlashtirish orqali ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy qilish zarurati aniqlandi.

MUNOZARA

Kulolchilik talabalarning ijodkorlik salohiyati va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagi asosiy yo‘nalishlarda muhim ahamiyatga ega:

Kulolchilik san’ati ta’lim jarayonida nafaqat kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, balki ijtimoiy, madaniy va texnologik jihatlardan ham muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida turli nazariy va amaliy yondashuvlarni tahlil qilish muhimdir. An’anaviy kulolchilik va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligi talabalar uchun noyob ta’lim muhitini yaratadi. Ushbu jarayonni har tomonlama tahlil qilish orqali biz ta’lim jarayonida kulolchilikning o‘rnini yanada chuqurroq anglaymiz[3].

An’anaviy va zamonaviy kulolchilikning taqqosiy tahlili:

An’anaviy kulolchilik asrlar davomida milliy qadriyatlar, madaniy xususiyatlar va urf-odatlarni saqlashda o‘zining muhim o‘rnini saqlab qolgan. Bu uslub asosan qo‘lda ishlashga asoslangan bo‘lib, ijodiy fikrlash va qo‘l mehnati malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, an’anaviy usullarning murakkabligi va ko‘p vaqt talab etishi uni bugungi kunda texnologiyalar bilan boyitishni zarur qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar esa kulolchilikni rivojlantirishga yangi imkoniyatlar ochdi. Ayniqsa, 3D modellashtirish, lazerli texnologiyalar va

avtomatlashtirilgan asbob-uskunalar yordamida murakkab mahsulotlarni qisqa vaqt ichida yaratish mumkin bo‘lmoqda. Bu yondashuv nafaqat jarayonni soddalashtiradi, balki milliy uslubni zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatini ham beradi.

Ekologik masalalar va barqaror rivojlanish:

Bugungi kunda ekologik barqarorlik masalasi kulolchilik sohasida ham dolzarbdir. Loy materialining qayta ishlanishi, ekologik toza texnologiyalar va xavfsiz xomashyolardan foydalanish orqali ishlab chiqarish jarayonini yanada samarali va barqaror qilish mumkin. Ta’lim jarayonida ushbu tamoyillarni o‘rgatish nafaqat ekologik mas’uliyatni oshiradi, balki talabalarda tabiatni asrash va resurslarni tejash ko‘nikmalarini rivojlantiradi[4].

Talabalar amaliyoti va kasbiy tayyorgarlik: Ta’lim jarayonida kulolchilikni amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rgatish talabalar uchun kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar loy bilan ishlashning barcha bosqichlarini o‘rganadi: xomashyoni tayyorlash, mahsulotlarni shakllantirish, ularni bezatish va kuyitish jarayonlarini o‘zlashtiradi. Bu esa ularning ijodiy va texnik malakalarini oshirish bilan birga, ularda mustaqil fikrlash va innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga yordam beradi.

Madaniyatlararo muloqot va xalqaro ko‘nikmalar: Xalqaro kulolchilik festivallari va ko‘rgazmalar talabalar uchun madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va global tendensiyalarni kuzatish imkonini beradi. Talabalar o‘z asarlarini namoyish etish orqali xalqaro hamjamiyat e’tiborini jalb qiladi va o‘z mahoratini takomillashtiradi. Bu jarayon ularning dunyoqarashini kengaytirib, milliy va xalqaro darajada muvaffaqiyat qozonishga zamin yaratadi.

Innovatsion yondashuvlarning ta’limdagi o‘rni: Zamonaviy ta’lim tizimida texnologiyalarni joriy etish talabalar uchun ijodiy va kasbiy imkoniyatlarni kengaytiradi. Masalan, 3D printerlar yordamida loydan tayyorlanadigan mahsulotlar avval raqamli shaklda modellashtiriladi, keyinchalik esa jismoniy

mahsulot sifatida yaratiladi. Ushbu yondashuv nafaqat jarayonni qiziqarli va interaktiv qiladi, balki talabalarni texnologiyalardan samarali foydalanishga o‘rgatadi.

Milliy hunarmandchilikni rivojlantirishdagi ta’limning roli: Kulolchilikni ta’lim tizimiga integratsiya qilish orqali milliy hunarmandchilikni yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Ta’lim jarayonida o‘rgatiladigan an’anaviy va zamonaviy uslublar talabalarni nafaqat milliy qadriyatlarni anglashga, balki ularni zamonaviy dizayn tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishga undaydi. Bu esa milliy hunarmandchilikni global bozorga olib chiqishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kulolchilikni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali milliy va xalqaro miqyosdagi ahamiyatini oshirishga qaratilgan yondashuvlar rivojlantirilishi zarur. Zamonaviy texnologiyalar va an’anaviy hunarmandchilik uyg‘unligi, ekologik barqarorlik va ijodiy yondashuvlar talabalarning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kulolchilik san’ati o‘zining ming yillik tarixi davomida milliy madaniyat, qadriyatlar va an’analarni ifodalash vositasi sifatida rivojlanib kelgan. Bu san’at turi nafaqat amaliy ehtiyojlar uchun, balki madaniy merosni saqlash va boyitishda ham muhim ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida kulolchilikni o‘rgatish talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni anglash va ularni asrab-avaylashga undashda katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan yondashuvlar kulolchilik sohasini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Bugungi kunda 3D texnologiyalar, raqamli modellashtirish dasturlari va ekologik barqarorlik tamoyillari orqali kulolchilikni nafaqat an’anaviy hunarmandchilik sifatida, balki zamonaviy kasbiy faoliyat sifatida ham rivojlantirish imkoniyati mavjud. Ushbu innovatsion yondashuvlar talabalarni nafaqat texnik ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi, balki ekologik ong va mas’uliyat hissini ham shakllantiradi. Shuningdek, xalqaro ko‘rgazma va festivallarda ishtirok

etish orqali talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini boyitib, global mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllanadi.

Shu bois, kulolchilikning ta’lim tizimidagi o‘rni faqat hunarmandchilik mahoratini oshirish bilan cheklanmaydi. U talabalarda ijodiy fikrlash, milliy merosga hurmat, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llay bilish kabi ko‘plab qobiliyatlarni rivojlantiradi. Bu jarayon nafaqat milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga, balki yosh avlodning ma’naviy va kasbiy kamol topishiga ham sezilarli hissa qo‘shadi.

Mazkur maqolada keltirilgan tahlillar va munozaralardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari surildi:

An’anaviy va zamonaviy kulolchilikni uyg‘unlashtiruvchi maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish uchun ta’lim muassasalarida ilg‘or texnik asbob-uskunalar bilan jihozlangan ustaxonalarni tashkil etish.

Talabalarni xalqaro kulolchilik ko‘rgazmalarida ishtirok etishga rag‘batlantirish.

Mahalliy va xalqaro ustalar ishtirokida mahorat darslari tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Boisselier, J. Traditional Pottery and Art: History and Development. Paris, 2008.

2. Dewey, J. Art as Experience. New York, 1934.

3. Thompson, D. Innovative Pottery Techniques and Modern Materials. Oxford, 2015.

4. Roberts, S. Creative Learning in Craft Education. London, 2019.

5. Lobachevskaya, N. P. Kulolchilik san’ati tarixiy va madaniy meros sifatida. Moskva, 1998.

6. Amanullaev, A. (2022). SPECIFIC FACTORS OF COMPREHENSIVE STUDY AND ANALYSIS OF THE HISTORY AND CULTURE OF THE UZBEK PEOPLE. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(02), 1-4.

7. Amanullaev, A. A. (2022). CURRENT ISSUES IN THE TRAINING OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(03), 1-3.

8. Абдимуминова, Д. А., & Амануллаев, А. А. (2018). Использование традиций этики" устоз-шогирд"(мастер и ученик) на занятиях прикладного искусства. *NovaInfo. Ru*, *2*(85), 203-206.

9. Abdumo‘minovich, A. A. (2023). QADIMDA USTALARNING SHOGIRD TAYYORLASHDA O’ZIGA XOS MILLIY ANANAVIY ASOSLARI. *Journal of Universal Science Research*, *1*(5), 1440-1447.

10. ABDUMO‘MINOVICH, A. A. (2023). BO’LG’USI TASVIRIY SAN’AT O’QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA HOZIRGI DAVR DOLZARB MASALALARI. *Journal of Universal Science Research*, *1*(5), 1423-1429.

11. Sodiq, AM (2022). TASVIRIY SAN’AT ASARLARIDA KOPOZİTsiyaNING BADDIY QIMMATINI TAHLIL VA TASHRIB BERA VA O’QUVCHILARNING BADDIY Idrok HAQIDAGI BILIMLARINI OSHIRISH. *XALQARO JURNALI IJTIMOIY FAN VA INTERDISPLINAR RESEARCH ISSN: 2277-3630 Ta'sir faktori: 7.429* , *11* (03), 149-151.

12. Sodiq, A. M. (2023). BOLAJAK TASVIRIY SANAT OQITUVCHILARIDA BADIIY-IJODIY MAHORATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MANZARA JANRIDAN FOYDALANISH USULLARI. *Journal of Universal Science Research*, *1*(5), 1430-1439..

13. Dildora, A. (2022). THE EMERGENCE OF SOME MODERN PROBLEMS IN THE FIELD OF ARCHITECTURE IN THE MODERN CONSTRUCTION OF ANCIENT CITIES RICH IN HISTORICAL MONUMENTS AND RELICS. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(02), 9-11.

14. Абдумуминов, М. А. Ў. (2022). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ПУТЕМ ИЗУЧЕНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ ХУДОЖНИКОВ-ЖИВОПИСЦЕВ. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, *1*(2).

15. Abdinabi, A. (2024). THE COMPOSITIONAL STRUCTURE OF THE WORKS OF ARTISTS WHO CREATED STILL LIFE IN PAINTING IS THEIR SCIENTIFIC ANALYSIS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *18*(01), 17-21.

16. Dildora, A. (2024). TEACHING COMPOSITION TO STUDENTS IN FINE ART EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND DEVELOPING ARTISTIC AND CREATIVE THINKING AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *18*(01), 22-27.

17. Abdinabi, A. (2024). THE COMPOSITIONAL STRUCTURE OF THE WORKS OF ARTISTS WHO CREATED STILL LIFE IN PAINTING IS THEIR SCIENTIFIC ANALYSIS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *18*(01), 17-21.

18. Sadiq, A. M. (2024). STUDYING THE STAGES OF THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF THE LANDSCAPE GENRE AND ITS IMPORTANCE IN THE DEVELOPMENT OF THE ARTISTIC AND CREATIVE SKILLS OF FUTURE VISUAL ARTS TEACHERS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *18*(01), 28-32.

19. Ubaydullayev, M. A. (2023). DEVELOPMENT AND POPULARIZATION OF METHODS OF TEACHING STUDENTS OF THE DIRECTION OF FINE ARTS THROUGH INFORMATION TECHNOLOGY. *Евразийский журнал академических исследований*, *3*(2), 166-169.

20. Pulatov, D., & Ubaydullaev, M. (2023). FORMATION OF NEW CREATIVE DIRECTIONS IN MODERN FINE ART OF UZBEKISTAN. *Solution of social problems in management and economy*, *2*(2), 34-39.

21. Убайдуллаев, М. А. (2022). ПРОБЛЕМА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЗАРУБЕЖНОЙ ПЕДАГОГИКИ. *Science and innovation*, *1*(JSSR), 177-182.

22. Saymamutovich, P. D., & Akhmadjonovich, U. M. (2023). THE END OF THE 20TH CENTURY THE BEGINNING OF THE 21ST CENTURY UZBEKISTAN MAGNIFICENT SCULPTURE. *Open Access Repository*, *4*(2), 102-107.

23. Убайдуллаев, М. А. (2022). КОМПОЗИЦИЯ АСОСЛАРИНИНГ ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИДА ҚУЛЛАНИЛИШИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(12), 329-332.

O'zbekiston haykaltaroshlik maktabini o'quvchi yoshlar o'rtasida metodik ko'nikmasini shakllantirish

Qodirov Bobirjon Botirjonovich

Andijon davlat universiteti

“Tasviriy va amaliy san'at” kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Haykaltaroshlik maktabida tahsil olayotgan yoshlarda metodik mahoratni rivojlantirishning muhim jihati o‘rganiladi. Uslubiy mahorat haykaltaroshlar uchun zarur bo‘lib, ijodiy ifodalash, texnik mahorat va badiiy jarayonlarni chuqurroq anglash uchun zamin yaratadi. Tadqiqot mavjud adabiyotlarni o‘rganadi, haykaltaroshlik ta’limida qo‘llaniladigan usullarni tahlil qiladi, tadqiqot natijalarini taqdim etadi va O‘zbek haykaltaroshlik maktabi o‘quvchilarida uslubiy ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: Uslubiy mahorat, haykaltaroshlik ta’limi, badiiy jarayonlar, ijodiy ifoda, O‘zbek haykaltaroshlik maktabi, yosh haykaltaroshlar.

Annotation: This article examines the important aspect of developing methodical skills in young people studying at the School of Sculpture of Uzbekistan. Stylistic skills are essential for sculptors and provide the foundation for creative expression, technical mastery, and a deeper understanding of artistic processes. The study examines the available literature, analyzes the methods used in sculpture education, presents research results, and concludes with suggestions on the formation of methodological skills in students of the Uzbek school of sculpture.

Key words: Stylistic skill, sculpture education, artistic processes, creative expression, Uzbek school of sculpture, young sculptors.

Haykaltaroshlik san'at turi sifatida badiiy iste'doddan tashqari o'ziga xos qobiliyatlarni talab qiladi. Texnik mahorat, kontseptual tushunish va intizomli amaliyotni o'z ichiga olgan uslubiy ko'nikmalar muvaffaqiyatli haykaltaroshlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqola O'zbekiston Haykaltaroshlik maktabida tahsil olayotgan yosh shaxslarda ushbu ko'nikmalarning shakllanishini o'rganib, samarali san'at ta'limi strategiyalari haqida suhbatga hissa qo'shishni maqsad qilgan. O`zbekistonda ham haykaltaroshlikning ulkan maktabi shakllangan. Haykaltaroshlikning maktab sharoitida keng tarqalgan turlaridan biri, loy yoki plastilin bilan ishlashdir. Haykaltaroshlikning bu turidan haykaltaroshlar haykal maketini tayyorlashda, xalq amaliy san’ati ustalari oʻyinchoqlar va mayda plastika tayyorlashda foydalanadilar. Oʻzbekistonda turli oʻyinchoqlar ishlaydigan xalq ustalari va kulollardan U.Joʻraqulov, A.Muxtarov (Samarqand), U.Umarov, A.Hazratqulov, M.Nazrullayev (G`ijduvon), B.Boisov, R.Matchonov (Xorazm), K.Turobov, Y.Ziyomuhamedov, A.Rahmatov, M.Rahimov, R.Orifjonov, A.Noʻmonov, T.Miraliyev, A. Aminov (Toshkent), T.Tillaxo'jayev (Namangan), A.Xudoynazarov (Kattaqoʻrgʻon), B.Xalilov (Denov), M.Obloqulov (Urgut), aka-uka Hojimirovlar (Andijon), X.Rahimova (Buxoro), Sh.Qalandarov (Xoʻjayli) va boshqa ustalar katta hissa qoʻshganlar.

Adabiyotlarni o'rganish haykaltaroshlik ta'limi, uslubiy mahoratni rivojlantirish va yosh haykaltaroshlar oldida turgan o'ziga xos muammolarga oid mavjud tadqiqotlarni har tomonlama tekshirishni o'z ichiga oladi. U turli oʻqitish usullarining samaradorligini tanqidiy baholaydi, muvaffaqiyatli yondashuvlarni ta’kidlaydi va mavjud amaliyotdagi kamchiliklarni aniqlaydi.

Tadqiqot Oʻzbek haykaltaroshlik maktabi oʻquvchilari oʻrtasida uslubiy koʻnikmalarni rivojlantirish boʻyicha ma’lumotlarni toʻplash uchun soʻrovlar, suhbatlar va kuzatuv tadqiqotlarini birlashtirgan holda aralash usullardan foydalanildi. So'rovnomalar talabalar, o'qituvchilar va bitiruvchilarga tarqatildi, intervyu esa asosiy manfaatdor tomonlarning tajribalari va tushunchalari haqida

sifatli tushunchalar berdi. Kuzatuv tadqiqotlari real vaqt rejimida uslubiy ko'nikmalarni qo'llashni tushunish uchun sinf dinamikasi va amaliy mashg'ulotlarga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari yosh haykaltaroshlar o‘rtasida turli xil o‘qitish usullarini joriy etish va uslubiy ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Interfaol seminarlar, hamkorlikdagi loyihalar va turli haykaltaroshlik an'analari bilan tanishish samarali strategiyalar sifatida belgilandi. Bundan tashqari, murabbiylik va individual fikr-mulohazalar talabalarning uslubiy qobiliyatini tarbiyalashda hal qiluvchi elementlar sifatida paydo bo'ldi.

O’quvchilar darslarida haykallar yaratish mahoratni rivojlantirish va badiiy ifoda etish uchun juda foydali faoliyat bo'lishi mumkin. Haykallarning shakllanishi mahoratning rivojlanishi va o'sishiga qanday hissa qo'shishi mumkin:

- **Nozik vosita mahorati:** haykaltaroshlik murakkab qo'l harakatlari va loy, gips yoki sim kabi materiallarni manipulyatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon orqali talabalar nozik vosita mahoratini oshirishi, qo'l-ko'zni muvofiqlashtirish va epchillikni yaxshilashi mumkin.
- **Ijodkorlik va tasavvur:** haykaltaroshlik o'quvchilarga o'zlarini badiiy ifoda etish va ularning ijodini o'rganish imkonini beradi. Ular g'oyalarni uch o'lchovda tasavvur qilishni o'rganadilar, tasavvur va innovatsion fikrlashni rivojlantiradilar.
- **Muammoni yechish qobiliyati:** haykaltaroshlik ko'pincha shakllarni muvozanatlash, kerakli shakllarga erishish va tizimli muammolarni bartaraf etish kabi qiyinchiliklarni engib o'tishni o'z ichiga oladi. Talabalar haykaltaroshlik jarayonida ushbu muammolarga echim topishda muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

- **Fazoviy xabardorlik:** haykaltaroshlik fazoviy munosabatlar va nisbatlarni tushunishni talab qiladi. Talabalar kosmosni idrok etish va boshqarishni o'rganadilar, bu esa fazoviy xabardorlik va vizual idrokni yaxshilaydi.
- **Tanqidiy kuzatish:** haykaltaroshlik o'quvchilarni namuna, natyurmort yoki mavhum tushuncha bo'ladimi, o'z mavzularini diqqat bilan kuzatishga undaydi. Bu ularning shakllar, to'qimalar va tuzilmalarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi, kuzatish qobiliyatini oshiradi.
- **Sabr-toqat va qat'iyat:** haykaltaroshlik sabr-toqat va qat'iyat talab qiladigan ko'p vaqt talab qiladigan jarayondir. Talabalar muvaffaqiyatsizliklar, tuzatishlar va muvaffaqiyatsizliklar orqali ishlashni o'rganadilar, qat'iyatlilik va qat'iyatlilikni tarbiyalaydilar.
- **O'z-o'zini ifoda etish va muloqot:** haykaltaroshlik talabalarga o'zlarining san'at asarlari orqali g'oyalar, hissiyotlar va rivoyatlarni etkazish uchun platforma yaratadi. Ular o'zlarini samarali ifoda etish qobiliyatini oshirib, ma'noni vizual tarzda etkazishni o'rganadilar.
- **Madaniy va tarixiy xabardorlik:** turli madaniyatlar va davrlardagi haykaltaroshlik texnikasi va an'analarini o'rganish talabalarni turli xil badiiy qarashlarga duchor qiladi. Bu madaniy ongni va san'at tarixini qadrlashni rivojlantiradi.

Haykaltaroshlik darslarida mahoratni rivojlantirishga ko'maklashish uchun o'qituvchilar namoyishlar, amaliy mashg'ulotlar, tanqidlar va tadqiqot topshiriqlari kabi turli xil o'qitish usullari va tadbirlarini o'z ichiga olishi mumkin. Konstruktiv mulohazalarni taqdim etish va tajribalarni rag'batlantirish talabalarning haykaltarosh sifatida o'sishini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, talabalarni bir qator haykaltaroshlik texnikasi va materiallari bilan tanishtirish ularga turli xil yondashuvlarni o'rganishga va o'zlarining badiiy afzalliklari va kuchli tomonlarini kashf etishga imkon beradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, o’quvchilar darslarida haykaltaroshlikni shakllantirish mahorat va iste'dodni rivojlantirishga ko'p qirrali yondashuvni taklif etadi. Bunday tadbirlarni o'quv dasturlariga kiritish orqali o'qituvchilar o'quvchilar orasida ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini tarbiyalashlari mumkin. Oldinga qarab, san'atga asoslangan amaliyotlarni ta'limga integratsiyalashuvini targ'ib qilish va haykaltaroshlikni shakllantirish tashabbuslarini amalga oshirish uchun etarli resurslar va qo'llab-quvvatlash zarur. Ushbu topilmalar asosida o'qituvchilar amaliy o'rganish va ijodiy izlanishlarga ustuvor ahamiyat beradigan innovatsion pedagogik yondashuvlarni qabul qilishga da'vat etiladi. Haykaltaroshlik kuchidan foydalanib, o’quvchilar darslari mahoratni rivojlantirish va shaxsiy o'sish uchun jonli maydonga aylanishi mumkin.

Tadqiqot O‘zbekiston haykaltaroshlik maktabi o‘quvchilarida uslubiy ko‘nikmalarni shakllantirishda muvaffaqiyatlarga erishganligi haqida xulosa qildi. Biroq, ko'proq interfaol va hamkorlikda o'rganish tajribasini integratsiyalash orqali yaxshilash uchun joy mavjud. Murabbiylik va shaxsiy fikr-mulohazalarning muhimligini tan olgan holda, maktab ta'limning umumiy sifatini yanada oshirishi va yosh haykaltaroshlarni san'at olamining qiyinchiliklariga yaxshiroq tayyorlashi mumkin.

Yosh haykaltaroshlarning uslubiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun quyidagi takliflar taklif etiladi:

1. Ko'proq interfaol va hamkorlikda o'rganish tajribasini amalga oshirish.
2. Tajribali haykaltaroshlar va talabalar o'rtasida kuchli murabbiylik dasturlarini rivojlantirish.
3. Talabalarga turli haykaltaroshlik an'analari bilan shug'ullanish imkoniyatini yaratish.
4. O‘quv jarayonida individual mulohazalar va konstruktiv tanqidni rag‘batlantirish.

5. Haykaltaroshlik va zamonaviy san'atdagi rivojlanayotgan tendensiyalarga mos keladigan o'quv dasturini doimiy ravishda yangilab turing.

Ushbu takliflarni hayotga tatbiq etish orqali O‘zbekiston haykaltaroshlik maktabi o‘quvchilarining haykaltaroshlik bo‘yicha muvaffaqiyatli va to‘laqonli faoliyat olib borishlari uchun zarur bo‘lgan uslubiy ko‘nikmalar bilan yaxshi ta’minlanishini ta’minlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1. Abdullayev N. San’at tarixi 2-jildlik, 2/1 tom .-T ., 2001.
2. Abdirasilov S.F. Tasviriy san’at metodikasi. -T., «Ilm-Ziyo», 2006.
3. Abdirasilov S.F., Tolipov N.X. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. -T ., «Aloqachi», 2007.
4. Ростовцев Н.Н. Методика преподавания изобразительного искусства в школе. - М.: «Просвещение», 2000.
5. Ростовцев Н.Н. Учебный рисунок. - М.: «Просвещение», 1984.
6. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘IIari. - T.; Nizomiy nomidagi TDPU, 2004.
7. Yo`ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalami amaliyotga joriy qilish. - T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008.

РИШТОН КУЛОЛЧИЛИГИНИНГ БАДИИЙ ҲУСУСИЯТЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШИ

М.О.Акрамов – Камолиддин Бехзод номидаги
Миллий рассомлик ва дизайн институти ўқитувчиси.

Аннотация:*Ушбу мақолада Риштон кулолчилигининг тарихий манбаълари, унинг ривожланиши, машҳур усталари, устоз ва шогирд анъаналари, олимларнинг фикрлари ва яратилган асарларнинг бадиий хусусиятлари ҳақида сўз боради. Муаллиф томонидан Риштон кулолчилик мактаби, унинг намояндалари, халқ усталаримиз анъаналарини давом эттириш, кулолчилик санъатини илмий ва ижодий жиҳатдан янада ривожлантириш, уни асраб авайлаш ва келажак авлодга етказиш масалалари баён этилган.*

Калит сўзлар: *кулолчилик санъати, устоз ва шогирд анъаналари, ҳунарманд, нақш, уста-кулол, буюм.*

Аннотация: *В статье рассматриваются исторические источники риштанской керамики, ее развитие, известные мастера, традиции наставничества, мнения ученых и художественные особенности созданных произведений. Автор описывает Риштанскую школу керамики, ее представителей, продолжение традиций наших народных мастеров, дальнейшее научное и творческое развитие искусства керамики, его сохранение и передачу будущим поколениям.*

Ключевые слова: *искусство керамики, традиции наставничества, ремесленник, узор, мастер-гончар, предмет.*

Abstract: *The article examines the historical sources of Rishtan ceramics, its development, famous masters, mentoring traditions, opinions of scientists and artistic features of the works created. The author describes the Rishtan school of ceramics, its representatives, the continuation of the traditions of our folk masters, the further scientific and creative development of the art of ceramics, its preservation and transmission to future generations.*

Key words: *ceramics art, mentoring traditions, artisan, pattern, master potter, item.*

Фарғона деганда кўз олдимизга Марғилоннинг нафис ипакдан тўқилган камалакранг атласи-ю адраси, Қўқон усталари қўлида сайқал топган заргарлик буюмлари, Риштоннинг ложувард кулолчилик буюмлари кўз олдимизга келади. Чиндан ҳам Фарғона водийси азал-азалдан уста-ҳунармандларнинг юрти бўлиб келган. Қадимда “Дамашқ қиличи” номи билан оламга машҳур бўлган қиличу ханжарлар ҳам айнан Фарғона заминида тайёрланган.

Саноат технологияси ривожланиши натижасида ўтган асрда кўплаб ҳунар турлари йўқликка юз тутди. Бироқ, айрим ҳунар турлари усталарнинг ўз ота-боболаридан қолган касбига бўлган ихлоси сабаб бугунги кунга қадар етиб келди. Қолаверса устоз-шогирд анъаналарининг бардавомлиги ҳунарларнинг ривожланишига асос булмоқда. Маълумотларга қараганда ўтган асрнинг 50-60 йилларига қадар мамлакатимизнинг деярли барча шаҳар ва туманларида уста-кулоллар бўлиб, улар уй-рўзғор буюмлари: коса, кўза, лаган, шокоса, хум, товоқ, гулваза, тандир кабиларни ясашган. Бундай марказларнинг айримларида буюмлар сирланган. Бироқ, талаб ва эҳтиёжнинг пасайиши сабабдан уста-кулоллар бошқа касб ортидан тирикчилик қилишган.

Риштон қадимдан Марказий Осиёда кулолчиликнинг йирик марказларидан бири бўлган. Бунинг бош омили кулолчилик учун боб бўлган қизил тупроқ сероблигидир. Риштонликлар ўзларини қадимги суғдийлар авлоди деб хисоблашади. Риштон сўзининг суғдча сўздан олинган “қизил ер” деган маънони англатишини таъкидлайдилар. Бу ерда ўрта асрларга кулолчиликнинг ривожланганлиги сўнгги йилларда олиб борилаётган археологик тадқиқотлар ҳам тасдиқлайди. Бугунги кунда Риштоннинг “Кулолон”, “Кўзагарон”, “Чиннигарон” сингари маҳалла-гузарларида 80 дан ортиқ уста-кулоллар истиқомат қилишади. Бу ерда кулолчилик ҳунари асрлар давомида авлоддан-авлодга ўтиб сайқалланиб, ривожланиб келаверган ва ўзига хос сирлаш техникаси шаклланган. Айни пайтда давом эттириб келаётган Маҳмуджон Азизов, Нодиржон Элибоев (Ғанижон Элибоевнинг ў0ли), Одилжон Ниғматов, Музаффар Саидов, Шарофиддин Юсупов, Алишер Назиров, Бахтиёр Назиров, Рустам Усмонов каби отамерос ҳунарини давом эттириб келаётган уста куллоллар яратга амалий санъат буюмлари хорижий мамтакатларда ўтказилаётган халқаро фестивал ва кўргазмаларда юқори баҳоланмоқда. Риштонлик усталар яратаётган маҳсулот ҳам шаклан ҳам мазмунан нафислиги, ранглар ва нақшларнинг бир-бирига уйғунлиги, энг муҳими ҳар бир орнамент алоҳида рамзий маъно касб этиши билан ажралиб туради. Бу ҳақда академик Акбар Ҳакимов қуйидаги фикрларни қайд этган: XIX аср охирги даврида Риштон услуби билан бир қаторда ифодали ранглар орқали тўлдирилган йирик нақшли буюмлар ҳам учрайди. Нақшда аниқ предметлар тасвири киритилган – кўзалардан ва мусиқа аспоблридан тортиб то милтиқ ва пичоқларгача. Кичик гулли нақшлар йирик гулли нақшлар билан алмашади. Нақшкорликнинг нозик ишлова умумлаштирилган. XX аср бошларида бундай умумлаштирилган нақш солиш услуби ҳукмронлик қилган. Риштон кулолчилигининг нақшкорлик репертуари янада бой ва жозибадордир. Энди у ҳандасавий ва наботий

нақшларни, белгиларни, буюмлар тасвирини ҳайвонлар нақши ва одамсимон нақшларни ўзида акс эта бошлади. Риштон кулолчилигида кенг тарқалган мотивлар деб тўртбаргли (“чорбарг”), анор гули ва мевалари (“аноргул”), стилизацияланган бодом гули (“бодомгул”), барг, кипарис (“сарв”), ўсимлик новдалари (“ислимий”), буюмлар тасвири кўзалар, пичоқлар ва бошқаларни мисол тариқасида келтириш мумкин[7].

Мустақиллик йилларида кулолчилик санъати ҳам ўзининг янги даврини бошлади. Унинг етук вакиллари Акбар Раҳимов, Шарофиддин Юсупов, Худойберди Ҳақбердиев, Шариф Азимов шу йилларда академик унвонига сазовор бўлдилар. Бу санъаткорларнинг ҳар бири ўз услубига эга ва бир-биридан асарларни яратиш учун ашё танлаш, уларга шакл ва безак беришда ажралиб, кулолчилик санъатининг бугунги ранг-баранглигини белгилайди[8].

Уста-ҳунармандларни қўллаб-қувватлаш ва солиқ масаласида бир қатор имтиёзлар берилиши соҳа ривожига ўзининг ижобий натижасини кўрсатди. Жумладан 2019 йилнинг сентябр ойида бошлаб ҳар йили Қўқон шаҳрида ҳар йили халқаро ҳунармандчилик фестивалининг ўтказилиши ва унда дунёнинг саксондан ортиқ мамлакатлардан вакиллар иштирок этиши қадриятларни авайлаб асраш, устоз-шогирд анъаналарини давом эттириш, кўп асрлик меросимизни жаҳон ҳамжамиятига намойиш этиш борасида муҳим қадам бўлди. Муҳтарам Юртбошимизнинг 2019 йил 28 ноябрда “Ҳунармандчиликни янада ривожлантириш ва ҳунармандларни қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори миллий ҳунармандчилигимиз ҳамда бадиий ижод ривожини янги босқичга кўтарди.

Бугун биз инновацион техник ва технологик ривожланган асрда яшамоқдамиз. Ҳаёт сурати тезлашмоқда. Инсониятнинг моддий эҳтиёжларини қондириш учун янгидан-янги маиший техника воситалари яратилмоқда. Лекин шундай бўлсада, онгли равишда инсониятнинг табиий тоза маҳсулотларга бўлган талаб ва эҳтиёжи ортиб бормоқда. Хусусан, табиий ва соф тупроқдан қўл меҳнати асосида яратиладиган кулолчилик буюмларига ҳам. Кулолчилик амалий санъатининг ўта нозик ва мураккаб турларидан бири саналади. Уста-кулолга шогирд тушган бола ушбу ҳунарнинг сир-асрорларини мукаммал ўзлаштириши учун 8-10 йил вақт керак бўлади. Яроқли тупроқ танлаш, лой қориб пишитиш, дасгоҳда шакл бериш, хумдонда керакли меъёрдаги оловда пиширириш, нақшу-

[7]Ҳакимов А. Файзиева В.Ўзбекистон Давлат Санъат Музейи ноёб хазинасидан –Т.:Бактрис пресс, 2014. Б.16.
[8]Абдуллаев Н.Ўзбекистон санъати тарихи: ўқув қўлланма, Т.:Ўзбекистон файласуфлари миллий жамият ьи нашриёти, 2007. – Б. 211

нигорлар билан зийнатлаб сирлаш ва яна оловда қиздириш. Махсулот харидор қўлига етиб боргунча шунча босқичлардан ўтади. Риштонлик усталар ясайдиган маҳсулотлар маиший ҳаётда ишлатиладиган буюмгина эмас у фойдаланувчига бадиий эстетик завқ берувчи, руҳияти ва кайфиятига ижобий таъсир кўрсатувчи амалий санъат асари даражасидадир. Бу албатта уста-кулолнинг катта меҳнати ва ўз касбига ижодий ёндашувининг самарасидир.

Бугунги кунда жаҳондаги энг сердаромат соҳа бу туризм саналади. Халқаро ва ички туризмнинг ривожлантириш амалий санъат турларининг ҳам ривожланишига бевосита самарали таъсир кўрсатади. Чунки хорижлик сайёҳларнинг кўпчилиги Шарқ халқлари хусусан халқимизга хос бўлган амалий санъат асарларини харид қилиш ва унинг яратилиш жараёни билан бевосита танишини хоҳлайдилар. Бу борада Риштон хорижликларга Фарғона водийсига хос бўлган кулолчилик санъатини бор жозибасини намоён этадиган йирик сайёҳлик марказига айланади.

Риштонда Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги, “Ўзсаноатқурилишбанк”нинг молиявий кўмаги асосида Риштон кулолчилик мажмуаси барпо этилди. 1,1 гектар майдонни қамараб олган мажмуада замонавий ва миллий меъморчиликни уйғунлаштирган холда йигирма нафар уста-кулолларга мўлжалланган икки қаватли уй, музей-галерея ва банк хизматлари маркази қурилди. Энди Фарғонага келувчи сайёҳлар Риштондаги ушбу кулоллар мажмуасига ташриф буюриб усталар фаолияти билан танишилари ва ўзлари ҳам бу жараёнда иштирок этишлари мумкин. Бу эса водийнинг туристик жозибадорлигини янада оширишга ҳизмат қилмоқда.

Фойдаланилган манбалар:

1. Ҳакимов А. Файзиева В. Ўзбекистон Давлат Санъат Музейи ноёб хазинасидан. – Т.: Бактрис пресс, 2014. – 236 б.

2. Абдуллаев Н. Ўзбекистон санъати тарихи: ўқув қўлланма. –Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2007. – 236 б.

3. www.ziyouz.com

4. www.uza.uz

UO‘K: 745/749

BADIIY KULOLCHILIK: AN’ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK

A.A.Isakova

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ilm-fan targ‘iboti markazi, fvat@gmail.com,
K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, info@mrdi.uz

Abstrakt: In Uzbekistan, non-traditional pottery began to take shape starting from the 1970s. It was during these years that significant stylistic and plastic transformations occurred in sculpting and decorative ceramics. The process of harmonizing sculpture and ceramics had already begun. Despite the similarities in artistic solutions and methods in sculpture and ceramics, and the "disappearance of genre boundaries", non-traditional pottery developed independently from traditional pottery. According to art historians, the evolution of non-traditional art and crafts in our country, and its distinctive rise, occurred after the independence.

Key words: innovation, conceptualism, integration, Afrasiab, Kushan Pottery, lead glaze, ishqor, shamot, ornament

KIRISH

Kulolchilik san’ati O‘zbekistonda murakkab davrlarni bosib o‘tgan bo‘lib, XIX asrning o‘rtalaridan – XX asrning boshlarigacha mintaqa ustalarining ishlarida o‘ziga xos naqshlar va motivlar tizimi hamda o‘ziga xos bezak uslubi shakllandi. Buxoro, Gijduvon, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Shahrisabz, Rishton, Xiva va boshqa milliy kulolchilik markazlaridagi ustalarning ishlari shakllarning mukammalligi va bezakdorligi jihatidan bir-biridan ajralib turadi. Uslubdagi farqlarga, shakllarining mahalliy xususiyatlariga, ornamentlarning tarkibi va texnologik usullarga qaramay, bu markazlardagi kulollar ixtisoslashuvi ko‘plab umumiy xususiyatlarga ega edi. Ammo ba’zi maktablar va an’analar manifakturalarning yopilishi va artellar paydo bo‘lib, konveyr mahsulotlar ishlab chiqish rivojlanganligi sababli o‘zning indivudallik xususiyatini yo‘qotdi.

Mustaqillik yillarida ko‘plab badiiy maktablar faoliyati, hunarmandlarning harakati tufayli an’analar tiklandi. Kulolchilikning eng boy merosini saqlab qolgan holda, zamonaviy an’anaviy va noan’anaviy kulolchilik san’ati (XIX asrda shakllangan) shiddatli ravishda rivojlandi. O‘zbekiston zamonaviy san’ati yildan-yilga o‘z noan’anaviy san’at va hunarmandchilik taraqqiyotining yangi ko‘rinishi bilan jahon sahnasida dadil odimlamoqda. O‘zbekistonda kulolchilik nafaqat uy-ro‘zg‘or buyumlari tayyorlashda, balki xalq amaliy san’atining yuksak namunasi sifatida ham rivojlangan. Har bir mintaqada shakllangan kulolchilik maktablari o‘ziga xos uslubi, rang tanlovi, naqsh bezaklari va texnik ishlovlari bilan farqlanadi.

TADQIQOT USULLARI

Maqolada dala tadqiqotlari va badiiy tahlil kabi san’atshunoslik usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mustaqillik davrdagi ijobiy o‘zgarishlar hunarmandichilikning barcha sohalarda o‘z aksini topdi. Ayniqsa, oxirgi yillarda sirlangan kulolchilik bilan bog‘liq vaziyat ijobiy tarzda o‘zgara boshladi. Buni biz Rishton, Andijon, G‘urumsaroy, G‘ijduvon, Kattabog‘, Madir, Urgut markazlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Biroq, bir qator taniqli markazlarni saqlab qolish imkoni bo‘lmadi. Samarqandda sirlangan kulolchilik yo‘qoldi. XX asr oxirida Denovda, Usto Badal uning ukasi Usto Zuhur Rasulov esa XXI asr boshida ishlagan, lekin uning vafotidan

soʻng bu markaz ham yoʻqoldi. Shahrisabz, Kitob, Kattaqoʻrgʻon va Boysunning sirlangan kulolchilik an’analarini tiklash harakatlari oʻz ijobiy natijasini bermadi. YUNESKO ning Oʻzbekistondagi vakolatxonasi tomonidan bu yoʻnalishda katta ishlar amalga oshirildi – ammo bu loyihalar mahalliy hamjiyat tomonidan qoʻllab-quvvatlanmaganligi tufayli rivojlanmadi (Hakimov, 2022). Ammo global bozor iqtisodiyoti va zamonaviy tendensiyalar ustalarni innovatsiyalar ustida ham bosh qotirishga undamoqda. Faqat bu yoʻlda muayyan zamonaviy dizaynning oʻziga xos xususiyati – minimalizm estetikasi hisoblanadi. Oddiy va geometrik shakllar, toza chiziqlar va oqilona tanlangan ranglar zamonaviy keramika buyumlarini tavsiflaydi. Ular interyerga zamonaviy koʻrinish berib, funksionallik va soddalikni ta’kidlaydi. Kulolchilikadagi zamonaviy dizayn ijodiy fikrlash va yangilikka intilishning timsolidir. Ushbu uslub kulolchilikka yangicha qarashni keltirib chiqaradi va uni zamonaviy san’atga aylantiradi. Oddiy va minimalist shakllardan murakkab va xayoliy kompozitsiyalargacha intilgan zamonaviy kulolchilik individuallik va ijodkorlikni ifodalash uchun cheksiz imkoniyatlarni taklif etadi.

Oʻzbekistonning qadimiy hunarmandchilik maktablaridan biri bu – Fargʻona vodiysining kulolchilik an’analaridir. Bu san’at turi asrlar davomida oʻzining nafis rangi, betakror bezaklari bilan kishini oʻziga jalb qildi.




Lagan. XX asr boshi (1920-y.) Rishton.



Sh.Yusupov. G’urumsaroy va Rishton kulolchiligi an’analari asosida

Bugungi kunda Farg’ona vodiysida koʻplab usta kulollar va ularning shogirdlari faoliyat yuritib kelmoqda. Ayniqsa, Rishton kulolchilik matrkazi alohida e’tiborga loyiq. Keyingi yillarda Fargʻona kulollari oʻz an’analarini asrab-avaylab, uni yangi zamonaviy dizaynlar bilan uygʻunlashtirmoqda. Oʻzbekiston boʻylab tashkil etilayotgan hunarmandlar festivallari, koʻrgazmalar va ustaxonalar orqali bu san’at turining kelajak avlodga oʻtishi ta’minlanmoqda. Rishtonlik kulol Alisher Nazirov kulolchilik san’atida an’analarga hurmat bilan yondashadi va shu bilan bir qatorda o’zning ijodiy qarashiga ham ega. Ayniqsa, kulolchilikda keramika va sopol buyumlar yaratishda oʻzining maxsus yondashuvi va ijodiy qarashlari bilan ajralib turadi. Usta oʻz asarlarini nafaqat estetik jihatdan goʻzal, balki amaliy maqsadlar uchun ham xizmat qilagan va har bir buyumni oʻziga xos shakl va naqshlar bilan bezaydi. Shuningdek, u oʻz asarlarini yaratishda oʻzbek xalqining qadimiy naqsh san’atiga ham tayanadi, lekin zamonaviy elementlar bilan yangilab boradi.



A.Nazirov. Lagan. Charxpalak



A.Nazirov. Lagan. Baliq

Buxorolik taniqli kulol Abduvohid Karimov ham Afrosiyobning oq fonli kulolchiligi va XVIII–XIX asr Buxoroning ko‘k-moviy kulolchilik an’analarini qayta tiklab, bugungi kunda ham innovasion izlanishlar qatorida ish olib bormoqda. Abduvohid Karimov nafaqat O‘zbekistonda, balki xorijda ham mashhur (Хакимов, 2013). U o‘zining an’anaviy va zamonaviy kulolchilik asarlarini yaratishda ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lib, ularning ko‘pchiligi xalqimizning madaniy merosini yanada boyitishga hissa qo‘shgan. Abduvohid Karimov o‘zining mahorati va ijodiy yondashuvi bilan ham mashhur. Uning asarlari ko‘pincha an’anaviy o‘zbek kulolchilik uslublariga asoslanib, chiroyli bezaklar, naqshlar va ranglar bilan bezatilgan bo‘ladi. Karimov ko‘plab keramika va kulolchilik ishlari yaratgan bo‘lib, ular orasida turli xil vazalar, idishlar, sopol buyumlar, dekorativ va amaliy san’at asarlari mavjud.



A. Karimov. Langari tovoq. 2019-y.



Langari tovoq — katta lagan. XIX asr oxiri. Buxoro


O‘zining ijodiy faoliyati davomida Abduvohid Karimov ko‘plab ko‘rgazmalarda ishtirok etgan va o‘zining asarlarini ko‘plab yurtlar va shaharlarda tanitgan. U o‘z asarlarini faqat estetik jihatdan go‘zal va chiroyli emas, balki amaliy maqsadlar uchun ham yaratgan, bu esa uning ishlariga amaliy jihatdan foydaliligi qo‘shgan.



A. Karimov. Italiya biennalesi. 2023

Rahimovlar sulolasi — o‘zbek kulolchilik san’atida taniqli va hurmatga sazovor bo‘lgan sulola. Bu sulola o‘zining an’anaviy kulolchilik ishlari va mahorati bilan mashhur bo‘lib, ko‘plab avlodlar davomida o‘zining san’ati va ustaliklarini davom ettirgan. Rahimovlar sulolasining asarlari ko‘plab ko‘rgazmalarda namoyish etilgan va ular butun O‘zbekistonda, shuningdek, xorijda ham mashhurdir. Sulolaning o‘zi o‘zbek kulolchilik san’ati tarixida alohida o‘rin tutadi. Rahimovlar o‘zlarining yuqori mahorati va ijodiy izlanishlari bilan yangi avlod kulollari uchun muhim ilhom manbayi bo‘lgan. Bu sulola o‘zbek xalqining madaniy merosini boyitish va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim rol o‘ynagan (Ahmedova, 2024).

Sulolaning eng katta vakillaridan biri bo‘lmish Muhiddin Rahimov – Kushon, Afrosiyob kulolchilk uslublarini qayta tikladi. Bu boradi juda kop mehnat qilib, bir qator ekspedisiyalarda qatnashdi. Alisher Rahimov Toshkent kulolchiligi an’anasi asosida qator turkum asarlar yaratdi. Sulolaning kenja vakili Shohruh Rahimov bugungu kunda zamovaniy va minimalstik uslubda ishlab kelmoqda.



Akbar Rahimov. Ko’za



Alisher Rahimov. Ko‘zalar



Shohruh Rahimov. Idishlar

O‘zbekistoda noan’anaviy uslubda faoliyat yuritayotgan kulol Anush Avakyan asarlarida o‘zini-o‘zi ifodalashning barcha transmilliyligi bilan badiiy-plastik jihatdan Sharq madaniyati unsurlari ham mavjud. Rassomning ayrim asarlari postmodernism uslubida yaratilgan. Avakyanning sopol idishlari qandaydir qadimiylik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Anush Avakyan ko‘pincha oq va qizil loy bilan ishlaydi, lekin uning so‘zsiz tanlovi shamotdir (Алиева, 2022). Dekorativ kompozitsiyalar, vazalar, kosalar, ko‘zalar, amforalar, haykaltaroshlik va mahobatli sopol shamdonlar muallifning turli ijodiy izlanishlari va topilmalari tomoshabinni hayratda qoldiradi. Ularning barchasi an’anaviy shakllar, boy assotsiativ va metaforik mazmuni bilan ajralib turadi. Uning asarlari yaxlitlik, minimalistik, monoxrom xususiyatlarni o‘zida

mujassam etadi. Asarlariga avangard yechimi beradi. Qadimgi davr kulolchiligi – Mesoptamiya, Kirit-Miken keramikasini sinchiklab oʻrgangan va loyning yangi plastik va dekorativ xususiyatlarini ochib berdi. Asarlarga oʻziga xos majoziy va semantik hajm berdi. Oʻz xususiyatlariga qarab real borliqni obyektiv mavjud sifatlari — hajm, rang, fazo, shuningdek, predmetning moddiy shakli va nur havo muhiti, harakat va oʻzgarishlari hissini yaratadi, bunda tasvirning hissiy konkretliligidan illyuzionizmga oʻtishi ham mumkin. A. Avakyan ishida materialning oʻziga xos xususiyatlarini izlash va texnologik effektlardan mohirona foydalanib interyer bilan birlashtiradi. Bir qarashda dekorativ koʻringan asarlari funksional qoʻllanishga moʻljallanadi.



Anush Avakyan. Komplekt

XULOSA

Zamonaviy badiiy jarayonlar ijodkorlarning faoliyatiga katta ta’sir koʻrsatdi. Jahon badiiy hayotini oʻrganish, tajriba almashinish, festivallar, koʻrgazmalarning uzluksiz tashkil etilishi oʻzbek ijodkorlarinig dunyoga tanitdi va ularning rivojlantirishda juda katta ijobiy tajriba berdi. Bugungi kunda ijodkorlar oʻz tarixi, nazariyasi, estetikasi, zamonaviy tendensiyalari va hatto ba’zilari jahon arenasida oʻz imzosiga egadirlar. Mazkur ustalar an’anaviy texnologiyani saqlab qolishadi, ammo turli tarixiy davrlarning bezaklaridan foydalangan holda mahsulotlarni bezashda oʻziga xos yangiliklarni joriy etishadi.

Kulolchilik san’ati va maktablari oʻzida xalqning ruhiyati, didi va tarixiy xotirasini mujassam etgan noyob madaniy merosdir. Uni asrash, rivojlantirish va dunyoga tanitish — har birimizning burchimizdir.

ADABIYOTLAR:

1. Алиева С. Философия форм и цвета в творчестве мастера-керамиста // San’at, 2015
2. Ahmedova E. Usto, ustoz, olim. Toshkent, 2024. 8-b.
3. Xakimov A. Mustaqillik davrida Oʻzbekiston badiiy hunarmandchiligida an’ana va innovatsiya // San’at, 2022.
4. Хакимов А. Прикладное искусства Узбекистана: традиции и инновации. – Ташкент, 2013. 138 с.

"O‘ZBEK XALQ AMALIY SAN’ATI VA HUNARMANDCHILIGINI RIVOJLANTIRISH: AN’ANALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR"

Andijon davlat universiteti “Tasviriy va amaliy san’at” kafedrasi o’qituvchisi

Qambarov Murodjon Qodirovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada G‘urumsaroy kulolchilik maktabining tarixiy an’analarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirib rivojlantirish, milliy mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga chiqarish, hunarmandchilikni turizm bilan bog‘lash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar milliy madaniyatimizning ravnaq topishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so’z: madaniyat, hunarmand, ijodkor, kulolchilik, tarix.

Annotation: In this article, the work carried out to develop the historical traditions of the Gurumsaroy pottery school in combination with modern technologies, to introduce national products to domestic and foreign markets, and to connect crafts with tourism is of great importance for the development of our national culture.

Keywords: culture, craftsman, creator, pottery, history.

Kirish

Mamlakatimizda amaliy san’at va xalq hunarmanchiligini rivojlantirish va ularni kelajak avlodga yetkazish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ko’plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.12.2017 sanasidagi №1003-sonli “O’zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyini tashkil etish to’g’risida”gi qarorida amaliy san’ati va xalq hunarmandchiligida erishilgan yutuqlarimizni, yurtimizda shakllangan o’ziga xos maktablarni, boy madaniy merosimizni, urf-odat va an’analarimizni keng jamoatchilikka targ’ib qilish eng asosiysi kelajak avlodga yetkazish uchun xizmat

qiladi.[9] O’zbek milliy hunarmandchilik va amaliy san’at namunalarini keng jamoatchilikka targ’ib qilish va mamlakatimizning iqtisodiy, turistik salohiyatini oshirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Qo’qon shahrida 14.09.2019 sanasida 2 yilda bir marotaba o’tkazilishi rejalashtirilgan Xalqaro hunarmandchilik festivali o’tkazildi. Festivalda o’zbek milliy hunarmandchilik va amaliy san’at vakillari, ustalaridan tashqari 83 davlatdan hunarmandchilikning 29 yo’nalishi bo’yicha 191 xorijlik hunarmandlar ishtirok etdilar. Tadbir ochilishida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev so’zga chiqib “Umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi bo’lgan xalq amaliy san’ati dunyodagi har bir xalq hayotida , uning turmush tarzi va qadriyatlari rivojida alohida o’rin tutadi. Insoniyatning ongli hayotida hunarmandchilikning paydo bo’lishi – sivilizatsiya sari tashlagan eng muhim tarixiy qadam, desak haqiqatni aytgan bo’lamiz”,[2] deya o’z fikrlarini bayon etdilar. Yurtboshimiz tomonidan olib borilayotgan bunday tashabbuskorlik, yurtimizda amaliy san’at va xalq hunarmandchiligi ravnaqi yo’lid[10]a olib borilgan har bir ijodkor faoliyatini dunyoga tanitadi, yuksaltiradi. O‘zbekistonning qadimiy kulolchilik maktablaridan biri bo‘lgan G‘urumsaroy hunarmandchilik an’analarini saqlab qolgan holda, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda kulollik sanoatini qo‘llab-quvvatlash, milliy mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga targ‘ib etish, hunarmandchilikni turizm bilan bog‘lash hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

To‘xtamatova H. & Yunusaliyev M. O‘zbekiston xalq amaliy san’ati bo‘yicha maqolasida xalq san’ati, uning tarixi, rivojlanish yo‘nalishlari hamda

[9] **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV** Toshkent sh., 2021-yil 23-mart, PQ-5033-son

[10] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning birinchi Xalqaro hunarmandchilik festivalining ochilish marosimidagi nutqi 14.09.2019 Qo’qon, president.uz saytidan olindi

ularni yaratgan olimlarning hissasi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, xalq amaliy san’atining davomiyligi, ustoz-shogird an’analari va hunarmandchilik maktablarining rivoji haqida fikr yuritilgan.

Buvayev V. (2022). *Gʻurumsaroy kulolchilik maktabi tarixi va uning oʻziga xos jihatlari*. Oriental Art and Culture Scientific Methodical Journal, 3(4), 706-711. Ushbu maqolada Gʻurumsaroy kulolchilik maktabining shakllanishi, uning tarixiy taraqqiyoti, an’anaviy va zamonaviy uslublar sintezi hamda mazkur maktab vakillarining hunarmandchilikka qoʻshgan hissasi yoritilgan.

Mazkur ilmiy adabiyotlar kulolchilikning tarixiy taraqqiyoti, texnologik rivoji va ijtimoiy ahamiyatini oʻrganishda muhim manbalar hisoblanadi. Gʻurumsaroy kulolchilik maktabining oʻziga xosligi va milliy an’analar bilan bogʻliqligi haqidagi tadqiqotlar hunarmandchilikni rivojlantirish boʻyicha olib borilayotgan islohotlarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Gʻurumsaroy kulolchilik maktabi Oʻzbekistonning qadimiy kulolchilik markazlaridan biri boʻlib, u yerda asosan milliy kulolchilik an’analari saqlanib qolgan va rivojlanib kelmoqda. Hozirgi kunda ushbu hududdakulolchilikni rivojlantirish boʻyicha bir qator islohotlar olib borilmoqda.

Natijalar

Mamlakatimizda kulollik hunarini rivojlantirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar olib borilmoqda. Xususan, "Hunarmand" uyushmasi tomonidan kulollarga davlat tomonidan grantlar va imtiyozlar berilmoqda. Ushbu grantlar orqali hunarmandlar oʻz ustaxonalari uchun zarur boʻlgan asbob-uskunalar, xomashyo va texnologiyalarni xarid qilish imkoniyatiga ega boʻlishmoqda.

Shuningdek, yangi avlod kulollarini yetishtirish maqsadida maxsus kurslar va ustaxona-treninglar tashkil etilgan. Ushbu kurslarda yoshlar kulolchilik sir-asrorlarini oʻrganib, milliy hunarmandchilik an’analarini davom ettirish imkoniyatiga ega boʻlishmoqda. Davlat tomonidan berilayotgan soliq imtiyozlari

esa kulollarga o‘z mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga chiqishga katta imkoniyat yaratmoqda. G‘urumsaroy kulolchilik mahsulotlarini nafaqat ichki bozorga, balki xalqaro miqyosga olib chiqish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, "Made in Uzbekistan" brendi ostida milliy hunarmandchilik mahsulotlarini xorijiy bozorga eksport qilish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Bundan tashqari, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi yirik shaharlarda hunarmandchilik yarmarkalari va ko‘rgazmalari muntazam o‘tkazilib, kulollar o‘z mahsulotlarini keng ommaga namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. G‘urumsaroy kulollarining mahsulotlari xalqaro hunarmandchilik festivallarida namoyish etilib, milliy kulolchilik san’atini dunyoga tanitishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda kulollik sohasida zamonaviy texnologiyalar joriy qilinmoqda. Kulollar uchun maxsus zamonaviy pechlar, chizmachilik dasturlari hamda yangi sir (glazur) texnologiyalari bilan ishlash imkoniyatlari yaratilmoqda.

Shuningdek, milliy an’anaviy kulolchilik uslublarini saqlab qolgan holda, zamonaviy interyer dizayni uchun mos mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu yondashuv kulolchilik mahsulotlarini nafaqat amaliy maqsadda, balki dekorativ san’at asari sifatida ham qo‘llash imkoniyatini yaratmoqda. O‘zbekistonning sayyohlik salohiyatini oshirish maqsadida G‘urumsaroyda **turistik yo‘nalishlar** ishlab chiqilib, **kulolchilik ustaxonalari** sayyohlar uchun ochilmoqda. Mahalliy va xorijiy sayyohlar ushbu ustaxonalarga tashrif buyurib, milliy kulolchilik san’ati bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Bundan tashqari, kulolchilikka qiziquvchilar uchun **"Kulolchilik master-klasslari"** tashkil etilib, ular amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘z qo‘llari bilan milliy kulolchilik buyumlarini yasash imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Bu esa hunarmandchilikning ommalashishiga, yoshlarning kulolchilik san’atiga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa

G‘urumsaroy kulolchilik san’ati milliy madaniyatimizning ajralmas qismi bo‘lib, bugungi kunda davlat tomonidan uning rivojlanishiga katta e’tibor qaratilmoqda. Kulollarga imtiyozlar berilishi, eksport salohiyatining oshirilishi, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi va turizm bilan bog‘lanishi ushbu sohaning yanada rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida G‘urumsaroy kulollik maktabi nafaqat O‘zbekiston, balki xalqaro miqyosda ham keng e’tirof etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘xtamatova H., Yunusaliyev M. (2020). O‘zbekiston xalq amaliy san’ati va uning rivojlanishi. *Ilmiy maqolalar to‘plami*.
2. Buvayev, V. (2022). G‘urumsaroy kulolchilik maktabi tarixi va uning o‘ziga xos jihatlari. *Oriental Art and Culture Scientific Methodical Journal, 3(4)*, 706-711.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori №1003 (20.12.2017). *O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida*.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qo‘qon Xalqaro Hunarmandchilik festivali ochilish marosimidagi nutqi (14.09.2019).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hunarmandchilikni rivojlantirish va milliy mahsulotlarni targ‘ib qilishga oid farmonlari va qarorlari.

ME’MORIY OBIDALAR BEZAGIDAGI KOSHIN VA KOSHIN BURUSH MAXSULOTLARINING KULOLCHILIKDA LOYDAN PLAST TORTIB YASASH TEXNIKASI

Umarov Xasanboy Tojimirza o’g’li
Namangan davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti (PhD)
umarovxasanboy92@gmail.com

AnnotatsiyaUshbu maqolada sopol loyidan yasalgan koshin va koshin burush mahsulotlarining me’moriy obidalar bezagidagi o’rni, shuningdek, loydan plast tortib yasash texnikasi haqida to’xtalib o’tiladi.

Kalit so`zlar: Me’moriy obidalar, koshin va koshin burush, loydan plast tortib,geometrik, o’simliksion, epikrafik, animalstik,xumdonlar,bezaklar.

Аннотация в этой статье будет рассказано о роли глиняной черепицы и изделий из черепицы в отделке архитектурных памятников, а также о технике изготовления глиняных пластин.

Ключевые слова : архитектурные памятники, облицовка и облицовка, глиняная пластика,геометрические, растительные, эпические, анималистические,гобелены,орнаменты

Annotation this article will dwell on the role of tin and tin burush products made of ceramic clay in the decoration of architectural monuments, as well as the technique of making plast out of clay.

Key words: architectural monuments, tin and tin burush,Plast from clay, geometric, vegetative, epicraphic,animalistic,humdons, ornaments.

San'at har doim insoniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib kelgan. U nafaqat estetik qadriyatlarni yaratish, balki inson ruhiyatini shakllantirish, jamiyatni anglash va rivojlantirishda muhim o’rin egallaydi. San'atning amaliy shakllari esa, alohida ahamiyatga ega, chunki ular jamiyatning kundalik hayotida bevosita ishtirok etib, odamlar o'rtasida madaniyat va mehnatni bog'laydi. Amaliy san'a deb ataladigan ushbu soha o'zining keng qamrovli va ko'p qirrali xususiyatlari bilan ajralib turadi. U nafaqat estetik go'zallik yaratish, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ham hissa qo'shadi. Insoniyatning maishiy xayotida ma’naviy shakillanishida amaliy san’atning barcha turlari qatorida kulolchilik sohasi muhim ro’l o’ynaydi Bunga misol muzeylarda saqlanib kelinayotgan qadimiy sopol buyumlar xamda ochiq osmon ostidagi me’moriy obidalarning bezak qisimlarida foydalanilgan koshin va koshinburush kabi loydan tayyorlangan kulolchilik maxsulotlari misol bo’la oladi.Ushbu kulolchilik buyumlari bezaklaridagi kompozitsiyalar insonlarning ma’naviy shakillanishida xizmat qilib kelgan .Buyumlarning bezak qisimlaridagi kompozitsiya ko’rinishlari turlicha mavzularda bo’lgan.Misol uchun epigrafika:yozuvli , geometrik geometrik shakillardan

tuzulgan,:zoomorfniy:hayvon tasviri tushurilgan ,rastitelniy:o’simlik simon naqsh turlaridan tuzilgan kompozitsiyalari keng qo’llanilgan,

Me’moriy obidalar bezagidagi koshin va koshin burush mahsulotlari o’zining tarixiy, estetik va madaniy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ushbu mahsulotlar ko'plab davrlar davomida insoniyatning yuksak hunarmandchilik mahoratini va san’atga bo’lgan chuqur ehtiromini namoyish etgan. Xususan, kulolchilikda loydan plast tortib yasash texnikasi bu mahsulotlarning asosiy ishlab chiqarish usullaridan biridir. Ushbu maqolada koshin va koshin burush mahsulotlarining me’moriy obidalar bezagidagi o’rni, shuningdek, loydan plast tortib yasash texnikasi haqida to’xtalib o’tiladi.

Koshin va koshin burush mahsulotlari o’zining estetik jihatidan yuksak darajada ishlab chiqilgan bo’lib, ular ko’pincha me’moriy obidalar va binolarda bezak sifatida ishlatilgan. Ularning tarixiy ahamiyati juda katta, chunki bu mahsulotlar faqatgina bezak emas, balki muhim madaniy ramzlar ham bo’lgan. Koshinlar ko’pincha saroylar, masjidlar, maqbaralar, madrasalar va boshqa me’moriy obidalarni bezashda ishlatilgan.

Koshin va koshin burushlarining yasalish jarayonida qo’llaniladigan materiallar asosan loy bo’lib, ular turli shakllar va naqshlar bilan bezatilgan. Loyning o’zi juda qulay material hisoblanadi, chunki u oddiy va arzon bo’lib, hunarmandlarga katta imkoniyatlar yaratadi.

Loydan plast tortib yasash texnikasi kulolchilik san’ati uchun eng qadimiy va keng tarqalgan usullardan biridir. Bu texnika yordamida kulol loyni yumshoq va elastik holga keltirib, turli shakllar yaratadi. Loydan plast tortib yasash jarayoni quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi:

- **Loyni tayyorlash**: Loyning sifatli bo’lishi juda muhim. Loyni tayyorlash jarayonida uning tarkibi va suv miqdori muhim ahamiyatga ega. Loyning to’g’ri tayyorlanishi mahsulotning mustahkamligi va uzun muddat ishlashini ta’minlaydi. Koshin va Koshin burush tayyorlashda loydan plast tortib maxsulotning tak qismini tayyorlanadi. Plast tortishda loyga kvars qumi yoki,shamot toshchalari va shunga o’xshash maxsus qo’shimchalar qo’shib aralashtirgich tegirmoniga solinadi va tayyor bo’lgan suyuqroq ko’rinishdagi loyni to’rt tomoniga kerakli o’lchamda bo’lgan yog’ochlar qotirib olinadi. Tayyor bo’lgan o’rtacha suyuqlikdagi loyni bir chekadan qoyib chiqamiz .Kerakli o’lchamdagi yog’ochli chegarani to’ldirib bo’lgach ustki qismidagi ortiqcha loylarni olib tashlab tekkislash jarayonlariga o’tamiz va plastimiz qattiqroq ko’rinishiga kelguncha kutamiz.Tayyor bo’lgan plastimizni yana bir marotaba maxsus shpatel yordamida tekkizlab chiqiladi ,Tortilgan plastimizni tayyor bo’lish bosqichida loyning(usadka) qisqarish jarayonida qattiq suyuq loylar o’ydim chukur ko’rinishiga kelib qoladi shu sababdan yana bir marotaba maxsus shpatel yordamida plast yuza qismini tekkizlab chiqiladi.
- **Shakllantirish**: Tayyor bo’lgan plast ustiga kalka qog’ozi yordamida chizilgan kompozitsiyani tushurib chiqiladi .Ushbu tushurilgan kompozitsiyani xoxlasak (relief)bo’rtmali ko’rinishda yoki plastning o’ziga chizmali ko’rinishda loyga ishlov berib

chiqish mumkin. Bu jarayonda hunarmandlar loyni qo’l yoki maxsus asboblar yordamida istalgan shaklga keltiradilar. Bu bosqichda koshinlar va koshin burushlarning murakkab naqshlari va shakllari yaratila boshlanadi.

- **Quritish**: Shakllangan mahsulotlar quritilishi kerak. Bu bosqichda mahsulotlar asta-sekin suvi qochib, o’zining to’liq shaklini oladi. Tayyor bo’lgan maxsulotni qurutish jarayonini to’gri taxsimlash muhim xisoblanadi Chunki maxsulot qurush jarayonida yorilib ketishi yoki qiyshayib ketishi mumkin .bu esa maxsulotni sifatsiz ko’rinishga olib keladi . Agar bajariladigan kompozitsiyammizning xajmi kata bo’lsa plastni quritish va pishirish bosqichida yorilishi va qiyshaymasligi uchub kerakli joylardan kesib olish zarur .Quritish bosqichi ikki tur ko’rinishda bo’ladi tabiiy va suniy, tabiiy ya’ni quyosh yoki xona sharoitida ,suniy qurutish esa maxsus pepchlarda qurutiladi .
- **Pishirish**: Loydan yasalgan mahsulotlar yuqori haroratda pishiriladi. Pishirish jarayoni mahsulotni yanada mustahkam qiladi va uning uzoq muddat xizmat qilishini ta’minlaydi. Bu jarayon kulolchilikda eng muhim bosqichlardan biridir.
- **Bezash**: Pishirilgan mahsulotlar ustiga turli naqshlar, rasm va bezaklar chiziladi. Koshin va koshin burushlarining naqshlari ko’pincha geometrik shakllar, o’simlik va hayvonot dunyosidan olingan motivlardan iborat bo’ladi.

3. Koshin va Koshin Burush Mahsulotlarining Me’moriy Obidalar Bezagidagi O’rni

Me’moriy obidalar bezagida koshin va koshin burushlarning roli juda katta. Bu mahsulotlar nafaqat binolarning estetik go’zalligini ta’minlabgina qolmay, balki ularning diniy, siyosiy va madaniy ahamiyatini ham oshiradi. Koshin va koshin burushlarining bezak sifatida ishlatilishi me’moriy obidalar yuzasiga nafaqat sathiy tarzda, balki chuqur, o’yilgan naqshlar orqali jonlilik bag’ishlaydi.

Misol uchun, Markaziy Osiyo va O’rta Sharqdagi ko’plab tarixiy masjidlar, madrasalar va saroylarda koshinlar bilan bezatilgan devorlar va baland minoralarga duch kelish mumkin. Bunday obidalar ko’pincha diniy va ma’rifiy mazmunni o’zida mujassamlashtiradi, shuningdek, ularning bezaklari an’anaviy san’atning murakkabligini va chuqur ma’nosini namoyish etadi.

4. Xulosa

Koshin va koshin burush mahsulotlari me’moriy obidalar bezagida o’zining alohida o’rniga ega bo’lgan va juda qadimiy san’at shakllaridan biridir. Kulolchilikda loydan plast tortib yasash texnikasi yordamida yaratilgan bu mahsulotlar nafaqat me’moriy obidalar, balki butun madaniyat tarixiga chuqur iz qoldirgan. Loydan plast tortish usulining o’ziga xos xususiyatlari va mahsulotlarning estetik jihatlari insoniyat tarixining o’ziga xos madaniy merosini saqlab qolishga katta hissa qo’shgan.

Koshin va koshin burush mahsulotlarining me’moriy obidalar bezagidagi o’rni hozirgi kunda ham jozibali bo’lib qolmoqda, ular san’at va hunarmandchilik sohasida yangi avlod uchun ilhom manbai bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. **Xoshimov, B.** (2010). *O'zbekistondagi me'moriy obidalar va ularning bezak elementlari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
2. **Mansurov, K.** (2007). *O'zbek kulolchilik san'ati: Tarixiy rivojlanish va texnologiya*. Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. **Sultonov, A.** (2008). *Me'moriy obidalar va xalq san'ati: O'zbekistondagi keramika usullari*. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
4. **Tashmuhamedov, Sh.** (2015). *O'zbek kulolchiligidagi an'anaviy texnologiyalar: Loydan plast tortib yasash* (p. 115–128). Toshkent: Fan nashriyoti.
5. **Abdullaeva, R.** (2019). *Me'moriy obidalar bezagida keramika mahsulotlarining o'rni va tarixi*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
6. **Yusupov, N.** (2014). *Keramika va kulolchilik san'ati*: O'zbek xalq san'ati. Toshkent: Yangi O'zbekiston.
7. **Shomurodov, F.** (2012). *O'zbek keramika san'ati va uning zamonaviy rivojlanishi*. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.
8. **Davronov, M.** (2005). *Loydan plast tortib yasash texnologiyasi: O'zbek kulolchiligidagi asosiy usullar*. Tashkent: Akademnashr.
9. Umarov, X. (2023). THE ROLE OF THE TYPE OF APPLIED ART IN ARCHITECTURAL MONUMENTS (ON THE EXAMPLE OF THE HOJAAMIN GRAVE COMPLEX). Евразийский журнал академических исследований, 3(3), 182-187.
10. Умаров, Х. Т. (2024). ЗНАЧИТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДРЕВНИХ ПАМЯТНИКОВ АКСИКЕНТА. ИСКУССТВО УЗБЕКИСТАНА XIX-XX В НАРОДНОМ ПРИКЛАДНОМ ИСКУССТВЕ. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(1), 313-318.
11. Qodirjonovich, Y. Q. (2023). THE CONTENT OF THE ART OF FINE AND APPLIED DECORATION IS GIVEN TO STUDENTS AS AN EXAMPLE IN LESSON PROCESSES AND THEIR APPLICATION IN TRAINING. International Journal Of History And Political Sciences, 3(02), 12-16.

Amaliy san’at va badiiy kulolchilik an’analari va ularni o‘qitishda muammolar va imkoniyatlar

Sulaymanova Sevaraxon Bahodirjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti tasviriy san’at kafedrasi o‘qituvchisi, p.f.b.f.d. (PhD)
sevaraxon3108@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada amaliy san’at va badiiy kulolchilik an’analari, ularning tarixi hamda zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi. O‘zbekistonning milliy hunarmandchilik maktablari, xususan, Rishton, G‘ijduvon, Xiva kabi kulolchilik markazlarida shakllangan an’analar va ularning bugungi kundagi rivojlanish yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, badiiy kulolchilikni o‘qitish jarayonida duch kelinayotgan asosiy muammolar, jumladan, zamonaviy ta’lim metodlarining yetishmovchiligi, moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi, yoshlarning an’anaviy san’atga qiziqishining pasayishi kabi omillar tahlil qilinadi.

Abstract: This article analyzes the traditions of applied arts and artistic ceramics, their history and place in the modern educational process. The traditions formed in the national craft schools of Uzbekistan, in particular, in the pottery centers of Rishton, Gijduvan, Khiva, and their current development directions are considered. The main problems encountered in the process of teaching artistic ceramics are also analyzed, including the lack of modern educational methods, insufficient material and technical base, and the decline in interest of young people in traditional art. The article also highlights the possibilities of eliminating these problems and gives recommendations for the introduction of innovative technologies, the economic development of crafts, and the popularization of national art among the younger generation. This study is of significant scientific and practical importance in the development of applied arts and ceramics.

Kalit so‘zlar: amaliy san’at, badiiy kulolchilik, hunarmandchilik, an’anaviy san’at, milliy madaniyat, kulolchilik maktablari, san’atni o‘qitish, ta’lim metodikasi, ijodiy ta’lim, moddiy-texnik baza, san’atga qiziqish, milliy meros, iqtisodiy rivojlanish.

Key words: applied arts, artistic ceramics, crafts, traditional arts, national culture, pottery schools, art education, educational methodology, creative education, material and technical base, interest in art, national heritage, economic development.

Amaliy san’at va badiiy kulolchilik milliy madaniyatimizning ajralmas qismi bo‘lib, o‘zbek xalqining san’atga bo‘lgan e’tiborini aks ettiradi. Ushbu yo‘nalishlar yosh avlodga nafaqat hunarmandchilik sirlarini o‘rgatish, balki ularning estetik didini shakllantirish, milliy qadriyatlarni singdirish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Biroq, zamonaviy ta’lim tizimida amaliy san’at va badiiy kulolchilikni o‘qitishda bir qator muammolar mavjud. Amaliy san’at va badiiy kulolchilik insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, asrlar davomida turli xalqlarning an’anaviy qadriyatlari va ijodiy salohiyatini aks ettirib kelgan. Xususan, O‘zbekiston hududida ushbu san’at turi chuqur ildizlarga ega bo‘lib, Rishton, G‘ijduvon, Xiva va boshqa kulolchilik markazlarida o‘ziga xos uslublar shakllangan.

Bugungi kunda badiiy kulolchilik nafaqat estetik qadriyat sifatida, balki iqtisodiy ahamiyatga ega hunarmandchilik sohasi sifatida ham rivojlanmoqda. Biroq, ushbu san’atni saqlab qolish va rivojlantirishda bir qator muammolar ham mavjud. Kulolchilik an’analari va amaliy san’atni o‘qitish jarayonida ta’lim tizimining zamonaviy talablariga moslashish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yosh avlodning qiziqishini oshirish kabi dolzarb masalalar paydo bo‘layapti.

Amaliy san’at va badiiy kulolchilik qadimgi davrlardan beri inson hayotida muhim o‘rin egallagan. Xususan, Markaziy Osiyoda kulolchilik qadimiy hunarmandchilik turlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston, Xitoy, Hindiston va Eron kabi mamlakatlarda badiiy kulolchilikning rivojlanish bosqichlari va an’anaviy uslublari haqida tadqiqotlar olib borilgan (Karimov S., 2015; Rashidova N., 2018).

Hozirgi kunda kulolchilik nafaqat an’anaviy, balki zamonaviy san’at yoʻnalishlarida ham rivojlanmoqda. Dizayn va texnologiyaning integratsiyasi yangi uslublarni shakllantirmoqda (Mamatqulov B., 2020). Amaliy san’at namunalarida ekologik toza materiallardan foydalanish muhim tendensiyaga aylanmoqda.

Amaliy san’at va badiiy kulolchilik an’analari hamda ularni oʻqitish metodikasi muhim madaniy va pedagogik mavzulardan biri hisoblanadi.

Amaliy san’at – bu estetik va funksional jihatdan ahamiyatga ega boʻlgan buyumlar yaratish san’ati boʻlib, turli materiallar va texnikalar orqali amalga oshiriladi. Unga quyidagilar kiradi:

- Kulolchilik
- Zargarlik
- Yogʻoch oʻymakorligi
- Kashtachilik
- Misgarlik
- Toʻqimachilik

Badiiy kulolchilik – amaliy san’atning qadimiy turlaridan biri boʻlib, turli loy va keramika materiallaridan ishlangan buyumlarga bezak berish san’ati hisoblanadi. Oʻzbekistonda kulolchilik an'analari asosan quyidagi hududlarda rivojlangan:

- Rishton – koʻk va havorang sirlangan sopol buyumlari bilan mashhur.
- Gʻijduvon – jigar rang va yashil tusdagi kulolchilik buyumlari ishlab chiqariladi.
- Xiva – sopol idishlarga geometrik naqsh va milliy ornamentlar solish an’anasi mavjud.
- Shahrisabz va Samarqand – an’anaviy naqshlar va sirlangan buyumlar ishlab chiqariladi.

Kulollar oʻz asarlarida milliy naqshlar, gul va geometrik shakllardan foydalanadilar. Har bir hudud oʻziga xos ranglar va uslublarga ega. Badiiy kulolchilik va amaliy san’at xalq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Uni oʻqitishda an’anaviy va zamonaviy metodlarni uygʻunlashtirish orqali oʻquvchilarga nafaqat texnik bilimlar, balki ijodiy tafakkur ham shakllantiriladi. Oʻqitish jarayonida milliy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy innovatsion yondashuvlarni qoʻllash muhimdir.

Rishton kulolchilik maktabi – Oʻzbekistondagi eng mashhur kulolchilik markazlaridan biri boʻlib, qadimiy an’analar va oʻziga xos uslublari bilan ajralib turadi. Rishton Fargʻona vodiysida joylashgan boʻlib, bu yerda kulolchilik san’ati ming yillar davomida rivojlanib kelgan. Rishton kulolchilik maktabi qadimgi Buyuk Ipak yoʻli davridan buyon rivojlanib kelmoqda. Aytishlaricha, bu maktabning ildizi 800-1000 yil oldinga borib taqaladi. Hozirgi kunda Rishton kulollari nafaqat Oʻzbekistonda, balki xalqaro koʻrgazmalarda ham faol ishtirok etib, milliy san’atimizni dunyoga tanitmoqda.

Rishton kulolchilik maktabining oʻziga xosligi quyidagicha:

1. **Tabiiy xomashyo** – Rishton kulollari ish uchun zarur boʻlgan eng sifatli loyni mahalliy manbalardan oladilar. Bu loy tarkibida kaolin koʻp boʻlib, qoʻshimcha tozalashni talab qilmaydi.
2. **Koʻk va havorang sir** – Rishton kulollari oʻz mahsulotlarida tabiiy mineral (kobalt va mis oksidlari) asosida tayyorlangan sirni ishlatadilar. Bu esa idishlarga oʻziga xos koʻk, yashil va havorang tuslarni beradi.
3. **Qoʻl mehnati va oʻziga xos naqshlar** – Kulollar mahsulotlarini qoʻlda tayyorlab, an’anaviy naqshlar bilan bezatadilar. Bu naqshlar orasida islimiy va gul naqshlari, shuningdek, turli hayvon va qush tasvirlari uchraydi.
4. **Oʻymakor va silliq naqshlar** – Rishton kulolchiligida oʻymakor naqshlar kam uchraydi, asosan silliq sir bilan ishlangan naqshlar afzal koʻriladi.

Mashhur mahsulotlari: Lagan (katta taom likopchalari), kosa va piyolalar, choynak va chinni buyumlar, sopol plitkalar va devoriy bezaklar.

G‘ijduvon kulolchilik maktabi – O‘zbekistonning eng qadimiy kulolchilik an’analaridan biri bo‘lib, Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanida rivojlangan. Bu maktab o‘zining yorqin ranglari, murakkab naqshlari va an’anaviy uslubi bilan mashhur. G‘ijduvon kulolchilik maktabi asrlar davomida rivojlanib kelgan va bu an’ana hozir ham davom etmoqda. Ustoz-shogird an’anasi saqlanib qolgan bo‘lib, eng mashhur ustalardan biri – **Narzullayevlar sulolasi**dir. Ular G‘ijduvon kulolchiligini dunyoga tanitgan.

Bugungi kunda G‘ijduvon kulolchilik markazi nafaqat mahalliy aholi, balki sayyohlar uchun ham diqqatga sazovor joy hisoblanadi. U yerda turli ko‘rgazmalar, mahorat darslari va hunarmandchilik festivallari o‘tkazilib kelinadi. **G‘ijduvon kulolchilik maktabining o‘ziga xosligi quyidagicha:**

1. **Ko‘p rangli sirlar** – Rishton kulolchiligidan farqli ravishda, G‘ijduvon maktabida ko‘k va yashil rang bilan bir qatorda sariq, jigarrang va oq rangli sirlar ham keng qo‘llaniladi.
2. **O‘ymakor va naqshinkor bezaklar** – G‘ijduvon kulollari idishlarga o‘ymakor naqshlar tushirib, ularga murakkab geometrik va gul naqshlarini ishlashadi.
3. **Qo‘l mehnati** – Har bir buyum to‘liq qo‘lda tayyorlanadi, shuning uchun har biri o‘ziga xos va takrorlanmas bo‘ladi.
4. **Sopol buyumlarning mustahkamligi** – G‘ijduvon kulolchilik buyumlari zich tuzilishga ega bo‘lib, ular juda mustahkam va uzoq yillar xizmat qilishi bilan ajralib turadi.

Mashhur mahsulotlari: lagan (taom laganlari), choynak va piyolalar, devoriy sopol bezaklar, xonadon uchun turli xil idishlar.

Xiva kulolchilik maktabi – O‘zbekistonning qadimiy kulolchilik an’analaridan biri bo‘lib, Xorazm viloyatida shakllangan. Bu maktab o‘ziga xos uslubi, geometrik naqshlari va tabiiy tuproq ranglaridan foydalangani bilan ajralib turadi. Xiva kulollari asosan amaliy va bezak buyumlari tayyorlash bilan mashhur. Xiva kulolchilik san’ati qadimgi Xorazm davlatidan beri davom etib keladi. Ayniqsa, **Xiva madrasalari, minoralari va saroylarida** qo‘llanilgan nafis sopol plitkalar bu maktabning rivojlanganligidan dalolat beradi. Bugungi kunda Xiva kulollari hunarmandchilikni davom ettirib, milliy an’analarni zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashtirib yangi mahsulotlar yaratmoqdalar. **Xiva kulolchilik maktabining o‘ziga xosligi quyidagicha:**

1. **Tuproq rangidagi sirlar** – Xiva kulolchilik buyumlarida asosan tabiiy jigarrang, yashil va och ko‘k ranglar qo‘llaniladi.
2. **Geometrik va islimiy naqshlar** – Xiva kulollari naqsh yaratishda asosan simmetrik va geometrik shakllardan foydalanadilar. Bu naqshlar an'anaviy arabeska va islimiy san'at unsurlari bilan uyg‘unlashgan bo‘ladi.
3. **Sopol plitkalar va devoriy bezaklar** – Xiva kulolchilik maktabining yana bir muhim xususiyati – sopol plitkalardan tayyorlangan devoriy bezaklar (mozaikalar). Aynan shu uslub Ichan-qal’a va boshqa tarixiy binolar bezaklarida keng qo‘llanilgan.
4. **Yassi va keng shakllar** – Xiva kulollari asosan yassi va keng idishlar (lagan, likopcha) hamda baland qirrali kosalar tayyorlashga e’tibor berishadi.

Mashhur mahsulotlari: sopol plitkalar (Xiva madrasalari va masjidlarida ishlatilgan), lagan va kosa, suv idishlari va choynaklar, bezakli xontaxta va devoriy sopol buyumlar.

Shahrisabz va Samarqand kulolchilik maktablari O‘zbekistondagi eng qadimiy kulolchilik an’analariga ega bo‘lib, har biri o‘ziga xos uslublari, naqshlari va ranglari bilan ajralib turadi. Bu maktablar tarixan Buyuk Ipak yo‘li ta’sirida rivojlangan bo‘lib, ulardagi kulolchilik san’ati o‘z davrida ko‘plab xalqlarning madaniy ta’sirini o‘zida mujassam etgan.

Shahrisabz kulolchilik san’ati asosan **soddalik va tabiiy ranglar** bilan ajralib turadi. Bu maktabning mahsulotlari **quyuq jigarrang, sarg‘ish va yashil ranglarda** bo‘lib, shakl va bezak

jihatdan amaliy idishlarga yo‘naltirilgan. Sahrisabz kulolchilik maktabining o‘ziga xos x**ususiyatlari:**

1. **Soddalik va tabiiy ranglar** – Kulol buyumlari kam bezakli, ammo nafis uslubda tayyorlanadi.

2. **Mustahkam va qalin sopol buyumlar** – Shahrisabz kulollari ishlab chiqaradigan idishlar qalin devorli va mustahkam bo‘ladi, shuning uchun ular kundalik hayotda uzoq muddat xizmat qiladi.

3. **Tabiiy tuproq siridan foydalanish** – Idishlarning sirtiga tabiiy mineral aralashmalar bilan ishlangan sir surtib, ularni issiq pechda pishirishadi.

4. **Amaliy idishlar ustunligi** – Asosan uy-ro‘zg‘or uchun kerakli idishlar: kosa, choynak, xum va tovoq ishlab chiqariladi.

Mashhur mahsulotlari: xum va maxsus suv idishlari – suvni salqin saqlash xususiyatiga ega, katta laganlar – ovqat tortish uchun mo‘ljallangan, ko‘za va kosa – kundalik foydalanish uchun.

Samarqand kulolchilik maktabi o‘zining **bezakliligi, geometrik naqshlari va ko‘k-yashil ranglari** bilan mashhur. Bu maktab asrlar davomida yuksak hunarmandchilik an’analarini saqlab kelgan. Ayniqsa, Samarqandning kulolchilik san’ati mahobatli masjid va madrasalarning bezaklarida ham o‘z aksini topgan. Samarqand kulolchilik maktabining o‘ziga xos x**ususiyatlari:**

1. **Ko‘k, yashil va oq ranglar ustunligi** – Samarqand kulollari o‘z buyumlarida **firuza, kobalt va oq sirlar** bilan ishlashadi.

2. **Murakkab naqshlar** – Geometrik shakllar va gullar Samarqand kulolchilik mahsulotlarining asosiy bezak elementlari hisoblanadi.

3. **Nafis va ingichka ishlov** – Samarqand kulollari an’anaviy kulolchilik texnikalarini qo‘llab, o‘ta nozik naqshlarni hosil qilishadi.

4. **Bezakli sopol plitkalar** – Samarqand madrasalari va maqbaralarida ishlatilgan sopol plitkalar ham bu maktabning an’anasidan kelib chiqqan.

Mashhur mahsulotlari: ko‘k va yashil naqshli laganlar – asosan bezak uchun ishlatiladi, chiroyli bezakli piyolalar va choynaklar – ko‘proq bayramona va mehmonlar uchun, sopol plitkalar – Samarqandning tarixiy obidalari bezaklarida ishlatilgan.

Shahrisabz kulolchilik maktabi amaliy va mustahkam idishlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, **Samarqand kulolchilik maktabi** nafis bezak va geometrik naqshlar bilan ajralib turadi. Ikkala maktab ham O‘zbekistonning milliy merosi hisoblanadi va hozirgi kunda ham rivojlanishda davom etmoqda.

Amaliy san’at va badiiy kulolchilikning o‘qitishdagi muammolar quyidagicha:

1. **Material va jihozlarning yetishmovchiligi**: Ta’lim muassasalarida sifatli xomashyo (keramik loy, sir va bo‘yoqlar) hamda zamonaviy jihozlarning yetishmovchiligi o‘quv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. **Malakali mutaxassislar tanqisligi:** Badiiy kulolchilik va amaliy san’at sohalarida maxsus mutaxassislarning kamligi sababli, ko‘plab ta’lim muassasalari malakali pedagoglarni jalb etishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

3. **Nazariy va amaliy o‘quv dasturlarining nomutanosibligi**: O‘quv dasturlarida nazariy bilimlarga haddan tashqari urg‘u berilishi natijasida amaliy mashg‘ulotlar yetarli darajada o‘tkazilmaydi.

4. **Innovatsion metodlarning yetarli darajada qo‘llanilmasligi**: Amaliy san’at va badiiy kulolchilikni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar va interaktiv o‘quv uslublari yetarlicha qo‘llanilmayapti.

5. **Ota-onalar va jamiyatning e’tiborsizligi**: Koʻplab ota-onalar va jamiyat a’zolari ushbu sohani shunchaki hunarmandchilik deb bilib, unga kam e’tibor qaratmoqda. Bu esa yoshlarning ushbu sohaga boʻlgan qiziqishining pasayishiga olib kelmoqda.

Amaliy san’at va badiiy kulolchilikning oʻqitishdagi imkoniyatlar va takliflar quyidagilardan iborat:

1. **Material va jihozlar ta’minotini yaxshilash:** Davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali ta’lim muassasalarini zarur materiallar va zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash.
2. **Malakali mutaxassislarni tayyorlash**: Amaliy san’at va kulolchilik boʻyicha maxsus oʻquv dasturlarini yaratish va xalqaro tajribadan foydalanish.
3. **Amaliy mashgʻulotlarni kengaytirish**: Nazariy bilimlarni amaliyot bilan uygʻunlashtirish uchun darslarda laboratoriya va ustaxonalardan koʻproq foydalanish.
4. **Innovatsion texnologiyalarni joriy etish**: Virtual reallik (VR), 3D modellashtirish va boshqa zamonaviy texnologiyalarni qoʻllash orqali ta’lim samaradorligini oshirish.
5. **Jamiyat va ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish**: Amaliy san’at va kulolchilikning jamiyatdagi ahamiyatini targʻib qilish uchun ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish.

Amaliy san’at va badiiy kulolchilikni oʻqitish jarayonida mavjud muammolarni hal etish orqali ushbu sohaning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratish mumkin. Ta’lim tizimidagi islohotlar, innovatsion metodlarning joriy etilishi va jamiyatning ushbu sohani qoʻllab-quvvatlashi kelajak avlodning san’atga boʻlgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Amaliy san’at va badiiy kulolchilik — bu nafaqat ijodiy ifoda vositasi, balki madaniy merosni asrab-avaylash va uni kelajak avlodlarga yetkazish vositasidir. Ushbu san’at turlarini oʻqitishdagi mavjud muammolar, xususan, material-texnik bazaning zaifligi, malakali kadrlar yetishmasligi, oʻquv dasturlarining nomutanosibligi, innovatsion yondashuvlarning cheklanganligi kabi holatlar bu yoʻnalishning toʻlaqonli rivojlanishiga toʻsqinlik qilmoqda. Biroq, bu sohada katta imkoniyatlar mavjud: ta’lim muassasalarini zamonaviy jihozlash, malakali mutaxassislarni tayyorlash, texnologik innovatsiyalarni joriy qilish, jamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali muammolarni bartaraf etish mumkin. Shu tariqa, amaliy san’at va kulolchilikni ta’lim tizimida samarali oʻqitish, nafaqat ijodkor yoshlarni yetishtirish, balki milliy oʻzlikni anglash va qadriyatlarni saqlashda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Joʻraqulov, H. *Oʻzbek amaliy san’ati asoslari*. Toshkent: Oʻzbekiston san’at nashriyoti. 2019.
2. Karimova, N. (2020). *Badiiy ta’lim metodikasi*. Toshkent: Oʻqituvchi nashriyoti.
3. Toʻxtasinova V. Amaliy san’at turlari: oʻquv qoʻllanma. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2020. – 220 c.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrdagi PQ–3422-son qarori “Oʻzbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”.
5. Rasulov, D. (2021). *An’anaviy kulolchilik va zamonaviy yondashuvlar*. Buxoro: Zarafshon nashriyoti.
6. Gʻulomova, M. (2022). “Amaliy san’at va dizayn: integratsiyalashgan ta’lim yondashuvlari”. // *Pedagogik mahorat* jurnali, №4, 45–49-betlar.
7. UNESCO. (2021). *Traditional Crafts and Creative Industries in Central Asia*. Paris: UNESCO Publishing.
8. www.hunarmand.uz – Oʻzbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasining rasmiy sayti.

BADIIY KULOLCHILIK AN’ANALARI SHARQ XALQLARI MADANIYATI “SHAYX ZAYD FESTIVALI” MISOLIDA.

Abduraxmonov Rustam Abdullayevich,
Namangan to’qimachilik sanoat texnologiya instituti “Dizayn” kafedrasi o’qituvchisi
E-mail: info@*ntsi.uz*
Baromov Ulug’bek Gapurjonovich,
Namangan to’qimachilk sanoat texnologiya instituti “Dizayn” kafedrasi o’qituvchisi
E-mail: info@*ntsi.uz*

Annotatsiya: Festival turizm bilan bog’liq bo’lib Arab Amirligida dunyo madaniyatini birlashtirish va kelajak avlodga qoldirishni targ’ib etadi. Xar bir xalq o’zining boy tarixiy meroslaridan biri bo’lgan hunarmandchiligi, raqs va falklyor qo’shiqlari hamda milliy taomlari namoishi bo’ldi. Islom svilizatsiyasiga ulkan xissa qo’shishdagi ushbu festival tarixni va bugunni birlashtiruvchi ko’prik vazifasini bajarib bermoqda. Ushbu festivalga O’zbekiston Respublikasini taklif etilishi festivalga bir muncha joziba qo’shishi bilan bir qatorda O’rta Osiyo boy madaniy tarixi bilan sayyoxlarni tanishtirib, o’z ko’zlari bilan ko’rish baxtiga muyassar bo’ladi. Sharq xalqlarini urf odatlari bir-biriga bir muncha yaqin bo’lib ko’ringani bilan tillardagi farq, liboslaridagi o’ziga xos o’xshashliklar, taomlarni tayyorlanishi, so’zlashish madaniyati, musiqa va qo’shiqlar har qanday tamoshabinni o’ziga rom qildi.

Kalit so’zlar: Festival, ansanbl, yog’och o’ymakorligi, kulolchilik, zargarlik, naqqoshchilik, minyatyura, kandakorlik, pichoqchilik, invetsiya, hunarmand.

O‘zbekiston kulolchilik san’atining eng boy merosini saqlab qolgan maskan hisoblanadi. Kulolchilik san’ati – milliy hunarmandchilikning eng muhim, shu bilan bir qatorda qadimiy tarmoqlaridan biri. Kulollar tomonidan yaratilgan sopol buyumlar go‘zalligi, bejirimligi bilan inson ko‘nglini shod qilsa, uy-ro‘zg‘or ishlarida ham keng foydalanish imkonini beradi. E’tiborga molik jihati, mamlakatimiz har bir hududining biri boshqasini takrorlamaydigan kulolchilik maktablari, an’analari bor. San’atshunoslarga ko‘ra, XX asrdan hozirgi O‘zbekiston hududlarida asosiy maktablar va markazlar tashkil topdi. Toshkent, Samarqand, Urgut, Buxoro, G‘ijduvon, Shahrisabz, Kitob, Kattako‘rg‘on, Denov markazlari mujassamligidagi Samarqand-Buxoro maktabi, Rishton va G‘urumsaroy markazlarini o‘zida ifoda etgan Farg‘ona maktabi, Xonqa, Modir qishlog‘i, Kattabog‘, Chimboy markazlarini o‘zida jamlagan Xorazm maktabidir. Har bir markaz o‘ziga xos mahalliy xususiyatlarini saqlagani, bunda hech bir kulolchilik maktabi boshqasini takrorlamasligi ahamiyatga molik.

Bugungi kunda mamlakatimizda bu san’at turini rivojlantirish, kulolchilik an’analarini milliy iftixor ramzi sifatida har bir xonadon, mahalla hamda idora va tashkilotlarda keng targ‘ib qilish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Bu borada o‘zbek kulolchilik san’ati mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish, boshqa mamlakat kulollari bilan hamkorlik ishlari ham yo‘lga qo‘yilgan.

O'zbekiston Respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasida madaniyat sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida Shayx Zayd nomidagi madaniy-tarixiy meros festivali o'tkazilmoqda.



ABU-DABI, 12-oktabr, 2021-yil (WAM) – Prezident Oliy hazratlari Shayx Xalifa bin Zoid Ol Nahayonning saxovati xomiyligi va Abu-Dabi valiahdi va Oliy qo’mondon o’rinbosari Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahoyonning hushyor raxbarligida Birlashgan Arab Amirliklari Qurolli Kuchlari va Prezident ishlari vaziri Shayx Mansur bin Zoid Ol Nahoyyon ko’magida Abu-Dabining Al-Vatba tumanida Shayx Zayd festivali o’tkazildi.

O’zbekiston Invetsiya va tashqi savdo vazirligi, turizimni rivojlantirish davlat qo’mitasi, Madaniyat vazirligi va ” Hunarmand “ uyushmasi hamkorligida Birlashgan Arab Amirligining Abu-Dabi shaxrida Shayx Zayd madaniy – tarixiy me’ros festivaliga taklif etilgan. O’zbekiston 26 ta davlat bilan bir qatorda milliy pavilyoni bilan qatnashib kelmoqda.

Festival tashkiliy qo’mitasi lochin va Al Maktaa ko’prigi tasvirlangan orginal va zamonaviy dizayn bo’lgan yangi vizual media tasvirini e’lon qildi. Bu ikki ajoyib tasvir marhum Shayx Zayd bin Sulton Ol Nahoyonning chuqur futuristik qarashlarini aks ettiradi. Yangi vizual uslub boy meros, yorqin kelajak va keying 50 yilga optimistik qarashni ifodalaydi. Lochin o’tkir ko’rish g’ururni anglatadi, Al Maktaa ko’prigi esa avlodlar va turli jahon sivilizatsiyalari o’rtasidagi bog’liqlikni ta’kidlaydi.

Shayx Zayed festivali keng xalqaro ishtirok muhitida o’tkazadi va BAAning insonoyat xabarini tarqatish sa’y-harakatlarini qo’llab-quvvatlaydi.

Festivalda asosan Arab davlatlari bilan bir qatorda Hindiston, Pokiston, Bangladesh, O’zbekiston va boshqa Afrika, Yevropa musulmon davlatlari xam qatnashishadi. Qatnashuvchi davlatlar o’zlarining qadimiy an-analarini boy madaniyatini ko’rsatishadi.

Festival doirasida barcha qatnashchi mamlakatlar ijrosidagi musiqaliy parad tashkil etilgan bo’lib, ushbu shou paradda xar bir xalq o’z milliy cholg’u asboblari bilan milliy musiqalari

sadosi ostida milliy raqslari bilan hamoxangligida paraddan o’tishdi. Shou parad har kuni bir xil vaqtda bo’lib paradning boshida O’zbekistonning milliy musiqachilari karnay-surnay, doira sadolari ostida milliy raqslarimizni ko’rish mumkundir.

Xar bir millat



uchun ajratilgan pavilyonda o’zlarini tarixiy arxitektura yodgorliklarini dekoratsiyasini keng foydalanishadi. Masalan Hindiston pavilyonida Tojmaxal ansablini ko’rish mumkundir.

Festival yuz minglab tashrif buyuruvchilar bu muhitdan bahramand bo’lishlari uchun har bir sessiyada tobora ko’proq ishtrokchilarni va yangi tadbirlarni jalb qilmoqda va madaniyatlarning uchrashuv joyi, dam olish va milliy hunarmandchilik uchun global platforma bo’lib qolmoqda.

O’zbekiston uchun ajratilgan joyda Samarqanddan Registon arxitektura ansablini ko’rish mumkun. O’zbekiston pavilyoniga arkli darvozadan kirib boriladi. Ro’parada saxna joylashgan bo’lib ushbu saxnada O’zbek milliy cholg’u asboblari bilan chiroyli kuylar har qanday shu atrofdan o’tayotgan sayyoxni o’ziga chorlaydi. Bundan tashqari milliy raqs sanatimiz festival qatnashchi davlatlar orasida eng jozibalisi deyish mumkundir, raqs va musiqa boshchiligida sayyoxlarni tashrifidan ham bilish mumkundir. Pavilyonning o’ng tomonida xujralar bo’lib ushbu xujralarda O’zbek hunarmandlari o’z mahsulotlari bilan joylashgan bo’lib, nafaqat o’z milliy hunarmandchilik maxsulotlarini namoish qilish bilan birga bajarib ko’rsatib o’tirishadi. Bu jixatni boshqa qatnashuvchi davlatlarda kam kuzatish mumkundir. Milliy hunarmadchilik maxsulotlarimiz yog’och o’ymakorligi, kulolchilik, zargarlik, naqqoshchilik, minyatyura, kandakorlik, pichoqchilik sanat turlari keng targ’ib etildi. Ayniqsa o’zbek milliy kulolchilik

hunarmandchilik turi nafaqat Arab xalqlarining balki festivalga tashrif buyuruvchi barcha sayyohlarni diqqatini tortib keldi.

Pavilyonni chap tomonida O’zbek milliy taomlari joylashgan bo’lib O’zbekistondan keltirilgan sabzavotlar, mevalar, ziravorlar yordamida mazaliy milliy taomlarni xo’rrandalarga tortiq etib kelishdi. Xattokiy tandirni maxsus O’zbekistondan olib kelinib, mazaliy kulcha nonlar va somsalar tayyorlab turildi. Shuni aloxida aytish axamyatliki O’zbek pavilyonida bir vaqtni o’zida ham konsert tomosha qilib, taom istemol qilib hamda milliy hunarmadchilik maxsulotlaridan sotib olish mumkundir. Bunday ko’rganmani boshqa davlatlarda ham kuzatish mumkundir.

Festival Shayx Zayd xaqiqiy Islom svilizatsiyasini namoish qilib berish bilan birga millatlarni birlashtiruvchi xalqlarni bir-biriga bog’lovchi vazifani bajarib berdi. BAAning asoschisi otasi sharafiga nomlangan ushbu festival har yili BAA madaniyati, urf-odatlari va merosini targ‘ib etadi.

Ziyoratchilar festival davomida san’at, hunarmandchilik, ovqatlanish va spektakllar orqali amirlik madaniyatini his etishlari mumkin. Favvora va lazerli shou dasturi har doim Abu-Dabidagi Shayx Zayd festivalida tomoshabinlarning sevimli joyi hisoblanadi. Festival doirasida O'zbekiston Respublikasi milliy ekspozitsiyasi ham uyushtirildi. Unda xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmasi tashkil etildi. Hech shubha yo'qki, qo'li gul o'zbek xalqining hunarmandlari yaratilgan milliy mahsulotlar albatta festival ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otadi.

Adabiyotlar:

1. Hakimov A. 2017. O’zbekiston hunarmandchiligi va amaliy san’ati. Тошкент
2. Rahimov M.2001 Rishtonning badiiy kulolchiligi. Toshkent
3. Александр Ж. 2018 “Dubay Abu-Dabiy. Два город в один weekend”.
4. Елана М. 2022 “История Арабиский стран. Государства залива в XX начали XXI века”.

NAQQOSHLIK VA MINIATYURANING XALQ HUNARMANDCHILIGIDAGI O‘RNI

Baxtiyor Asqarovich Ruzinov
Namangan davlat universiteti san’atshunoslik kafedrasi
o‘qituvchisi tel:+998996391967, abruz@mail.ru
Gulmira Abjalilova
Namangan davlat universiteti Grafika (miniatyura
va xattotlik) 2-bosqich talabasi
gulmiraabjalilova@gmail.com

ANNOTATSIYA - O‘zbekiston milliy xalq amaliy san’ati namunalari orqali bizga ma’lumki, Naqqoshlik, miniatyura sohasining o‘rni beqiyosdir. Har bir xalqning o‘ziga xos milliy bezak san’ati mavjud bo‘lib, bu hunarlarning ichida aynan o‘zbek milliy xalq amaliy san’ating mazmunan serqirraligi, rang barangligi, undagi bezaklarning kompozitsion topilishi, tabiatdan olingan turli daraxt, gullar, hayvonot dunyosini stilitsaziya qilish orqali naqsh elementlarini shaklini moxirona yarata olishgan.

Bu bilan hududidagi moddiy madaniy meros ob’ektlari bilan chambarchas bo‘lgan milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish, milliy naqqoshlik, miniatyura va boshqa xalq hunarmandchiligi namunalari hamda ayrim an’anaviy xalq amaliy san’ati uslublarini saqlab kelayotgan xalq ustalari ijodlari bilan tanishtirish. Xalq amaliy san’ati turlarining tarixiy, texnologik, milliy unsurlardan foydalanish tomonlarini, an’analarini manbalar orqali o‘rganish haqqoniy tariximiz va o‘zligimizni ifodalashga undaydi. Shu bilan birga ustoz – shogird an’analari davomchilari haqida ham yetarlicha ma’lumotlar berish maqsadga muvofiqdir.

Milliy tasavvurini namoyon qilish, ifodalash, baholash, o‘quv jarayonida ta’limning nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini uyg‘unlashtirish orqali an’anaviy hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi.

Kalit so‘zlar: Qadriyat, naqsh, stilizatsiya, perspektiva-qisqarish, badiiylashtirish, ranglarning omuxtaligi, kolorit, pardozlash, handasa, islimiy, miniatyura unsurlari bilan rasman tanishish, murakkab islimiy, geometrik, materialshunoslik, me’moriy yechim, milliylik, tarixiy-madaniy meros, handasa, muqarnas, guldasta, ark, gisht, qorishma, koshin, qadimiy texnologik qurilish ashyolarini anglash, milliy me’moriy tarixiy-madaniy yodgorliklarni ilmiy tarzda o‘rganish.

KIRISH

Bugungi yangi O‘zbekistonning dunyo miqiyosida rivojlanishi va taraqiyotida o‘zining ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-madaniy rivojlanishi jarayonlarida o‘quvchi yoshlarning ma’naviy dunyoqarashni shakllantirishda milliy qadriyatlar orqali tarbiya berish mexanizmlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga egadir. Maqolada Oliy o‘quv yurtlarida tasviriy va amaliy san’at fanini o‘qitishda hududiy milliy madaniy meros ob’ektlaridagi qadimiy naqshu nigorlar, me’morchilik inshootlaridagi mahobatli an’anaviy rangtasvir asarlaridan talabalarni bilim va ko‘nikmalarini oshirishdagi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonida talabalarga bilim berish, ularning bilish qobiliyatini rivojlantirish, hamda milliy qadriyatlarimizni asrab avaylash to‘g‘risidagi ta’lim-tarbiya berish kabi muhim vazifalar hal qilinadi. Ushbu masalalarni hal qilishda olib borilgan tadqiqot va olingan tajribalar natijalariga binoan, milliy naqsh va miniatyura unsurlarini o‘quv jarayoniga amaliyotlarni tadbiq etish tajribalari keltirilgan va uchraydigan muommolarni yechimi ifodalangan.

Ajdodlarimiz moddiy madaniy merosi, qadimiy an’analari, turli urf-odatlari biz uchun nafakat moziydan qolgan yodgorlik, balki jami ma’anaviy madaniy boyliklarning tarkibiy qismi, inson aql zakovati va tafakkurining bir buyuk maxsulidirki, har bir millat, elat ajdodlarining bilim maxsuli va ko‘p yillik ilg‘or

tajriba, ta’lim-tarbiya, odob-ahloqning namunaviy hulqi va boshqa ma’naviy o‘g‘itlaridan foydalangan xolda rivojlanib barkamol bo‘lib boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA - O‘zbek xalq amaliy san’ati haqida fikr yuritilganda dastavval shuni ta’qidlash kerakki, bu san’at o‘zining uzoq tarixiga, milliy an’analariga ega. O‘zbek xalq amaliy san’ati asrlar davomida rivojlanib, sayqallanib bordi. Nafis va serjilo naqshlar bilan ziynatlangan, asrlar osha o‘z ko‘rku salobatini yo‘qotmay kelayotgan mahobatli ma’moriy obidalar, latif o‘yma bezakli yog‘och ustunlar, eshik va dorbozalar, ko‘zni qamashtiruvchi go‘zal zargarlik buyumlari, zardo‘zlik buyum va miniatyuralar bilan ishlangan qo‘lyozma bitik-kitoblar bu fikrimizning isbotidir.

Bular o‘zbek xalqining ma’naviy boyligi, aqliy kamoli va ijodkorligidan dalolat beradi. Mashhur sarkarda Amir Temur: “Bizning qudratimizga ishonmaganlar kelib biz qurgan imoratlarni ko‘rsinlar”, degan edi. Darhaqikat, necha asrlar yuzini ko‘rgan bu inshootlar o‘zbek xalqining qudratidan darak beradi. Bizning o‘zbek xalq amaliy san’atimizning ildizlari ibtidoiy jamoa tuzimiga borib taqaladi. Arxeologik qazishmalar inson tomonidan jismga badiiy ishlov berish tosh asridayoq boshlanganini isbotlab berdi.

Eramizdan oldingi davrlardayoq hozirgi o‘zbekiston hududida joylashgan Shosh, Parkana, Baktriya, So‘g‘d va Xorazm viloyatlarida monumental naqshlar ishlash rivojlangan edi. Arxeologik tadqiqotlar jarayonida Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II asrlar), Dalvarzintepa (I asr) budda ibodatxonalari, Xorazmdagi Tuproqqa’la saroyi (III asr) va boshqa moddiy madaniy meros ob’ektlaridan topilgan devoriy rasmlar hamda buyumlarning har biri biz uchun bebaho xazinadir. Chunki ular o‘tmish san’atimiz va tariximiz haqidagi fikrlarimizni isbotlovchi tirik, yorqin manbalardir.

Qadimgi devoriy suratlarda asosan tirik jonzotlarning tasviri ishlangan. Ayniqsa, podsholar saroyidagi elchilarni qabul qilish marosimlari, ov va jang manzaralari tasvirini ko‘plab uchratish mumkin.

VII - VIII asrlarga kelib O‘rta Osiyoda qaror topib, huqmron bo‘lgan islom dini ta’sirida o‘zidan oldingi davr madaniyatiga, jumladan tasviriy san’atiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Vaqtlar o‘tishi bilan din ahllari bu aqidaga keskin tus berib, xudodan boshqa hech kim jonzotlarni yarata olmaydi, hatto xudo yaratgan jonzotlarning tasvirini chizish ham mumkin emas, aks xolda bu xudoga shak keltirish bo‘ladi, narigi dunyoga borganda parvardigor bu suratlarga jon ato etishini musavvirdan talab qiladi, mazmunidagi da’volarni qila boshlashdi.

Shundan so‘ng musavvirlar o‘rtasida tabiat manzaralarini, gullarni stilizatsiya qilib, badiiylashtirish orqali naqoshlik, miniatyura, kitobat san’ati, monumental naqshlar ishlash rivojlana bordi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR - O‘zbek xalq amaliy san’atining boshqa turlari ham inson aqli rivojlanishi jarayonida asta-sekin rivojlana bordi. Bu narsa avvalo ibtidoiy jamoa tuzimida mehnat qurollarini yasash bilan bog‘liq ekanligi tabiiy xol. Davrlar o‘tishi bilan mehnat qurollari ham takomillashib bordi. Asta-sekin ishlab chiqarish rivojlana boshladi. Turli mehnat qurollari va boshqa buyumlarni yasash, hunarmandchilikni rivojlanishi asta sekinlik bilan san’at darajasiga ko‘tarila bordi.

Bugungi kunda o‘zbek xalq amaliy san’atining dovrug‘i dunyoga yoyildi. O‘zbek xalq amaliy san’atining qaysi turi haqida so‘z bormasin, bizning faxrlanishga arzirli yutuqlarimiz bor. Yog‘och o‘ymakorligi san’atining piri komillaridan bo‘lgan marhum usta Qodirjon Haydarov, marhum ganchkor ustalar Abdulla Boltaev, Usta Shirin Murodov, Toshpo‘lat Arslonqulov, marhum naqqosh ustalar Tohir To‘xtaxo‘jaev, Jalil Hakimov va boshqa yetuk san’atkorlar o‘zbek xalq amaliy san’atida o‘zlarining maktablarini yaratib, bu sohani rivojlantirishga, o‘zbek milliy xalq amaliy san’ati shuhratini butun olamga tarkatishga salmoqli hissa qo‘shdilar va kishilar qalbida o‘chmas iz qoldirdilar.

Bugungi kunda uztoz usta Mahmud Usmonov, Ortiq Fayzullaev, Akbar Hakimov, Anvar Ilhomov, Asqarali Akparov, Mahmud To‘raev, Qobil Qosimov,

G‘ulom Yo‘ldoshev kabi usta san’atkorlar tabarruk uztozlar izidan borib, ularning ishlarini davom ettirmoqdalar. Ular amaliy san’atning turli sohalarida o‘z uslublarini yaratib, bu sohalarning yanada taraqqiy etishi uchun hormay-tolmay mehnat qilmoqdalar, ko‘plab shogirdlar yetishtirib, xalq amaliy san’atining umrboqiyligini ta’minlash uchun harakt qilmoqdalar. Shuningdek, o‘z amaliy ishlarini kelajak avlod uchun yetarlicha ilmiy ishlari natijalarini ilmiy maqola va turli darslik-o‘quv qo‘llanma adabiyotlar orqali yetkazib kelishmoqda.

Xalq amaliy san’ati O‘zbekiston hududidagi barcha viloyat va tumanlarida, azim shaharlar va chekka qishloqlarida rivojlangan. O‘zbek xalq amaliy san’atining turlari kirib bormagan biror xonadon yoki inshoot yo‘q. Chunki bizning xalqimiz san’atni jon-dilidan sevadi, uni ardoqlaydi. Bu borada naqqoshlik san’atini alohida ta’qidlamay ilojimiz yo‘q. Chunki serquyosh o‘lkamizning qaysi burchagiga bormang bir-biridan jozibador naqsh namunalarini uchratasiz. Katta – katta me’moriy obidalardan tortib, kichik masjidlarning shift va devorlarigacha maxobatli ajoyib san’at asarlari bilan ziynatlanganligini ko‘rasiz. Ayniqsa, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shaxrisabz, Xiva, Qo‘qon, Andijon, Namangan va boshqa hududlardagi naqshinkor imoratlar dunyo ahlini lol qoldirib kelmoqda. O‘zbekiston xalq amaliy san’atida Farg‘ona vodiysi o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Amaliy san’atning qaysi turi haqida yuritilmasin, vodiyda uning yuksak darajada rivojlanganini ko‘rish mumkin. Faqatgina bir tarixiy voqealarni esga olib o‘tishni lozim topdiq. Bu albatta Farg‘ona vodiysidagi 1621 da bo‘lib o‘tgan Axsikent zilzilasi oqibatida o‘ta qadimgi me’moriy obidalardan deyarli hech qanday imoratlar saqlanib qolmaganligini ko‘ramiz. Lekin, Farg‘ona vodiysi ham buyuk allomalar yurti ekanligini inobatga olsak ko‘plab nafaqat diniy balkim ilmiy-dunyoviy adabiyotlarni dunyo ilmi rivojiga xissa qo‘shib yozib qoldirganlar.

Masalan, naqqoshlik san’atini tahlil qilib ko‘raylik Farg‘ona naqshi Marg‘ilon, Qo‘qon, Farg‘ona, Namangan, Chust, Kuva, Rishton va Oltiariqda vujudga kelgan uslublardan iborat. XIX asr va XX asr boshlariga mansub bo‘lgan

naqshlar ko‘plab osori atiqalarda saqlanib qolgan. Qo‘qondagi Madalixon dahmasi, Dahmai Shohon, Xudoyorxon o‘rdasi va boshqa ob’ektlardagi naqshlar o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lsa-da, Farg‘ona naqshlarida ko‘proq Buxoro, Xiva naqshlarining ta’siri bor. Hattoqi, rus musavvir-naqqoshlarining uslublari ham unda-munda uchrab turadi. Chunki o‘sha davrlarda usta naqqoshlar ish ahtarib boshqa shaharlarga borar edilar yoki buyurtma bo‘yicha boshqa shaharlarga borib, naqsh bilan binolarni bezatar edilar. Lekin Farg‘ona vodiysida o‘ziga xos naqqoshlik maktabi rivoj topgan edi. Farg‘ona naqqoshlari girix, o‘simliksimon (islimiy) va gulli girix naqshlarini o‘z asarlarida keng qo‘llaganlar. Kompozitsiyalarning simmetriyali bo‘lishi prinsipiga amal qilganlar.

Vodiy naqqoshlarining ishlari boshqa naqqoshlik maktablariga doir asarlardan yana shunisi bilan farqlanadiki, bu naqshlar tabiatga yaqin, erkin ishlangan. Shu bilan birga, vodiy naqshlari boshqa naqshlardan ranglarining kontrastligi bilan ham farqlanadi. Shuningdek, Farg‘ona naqshlarida tabiatdagi gul, barg, g‘uncha va boshqa unsurlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanilgan. Chunonchi, Farg‘ona vodiysi naqshlariga qarasak, pista gul, anor, atirgul, majnuntol, bodomgul va boshqalarni ko‘rishimiz mumkin. Xullas Farg‘ona vodiysidagi naqsh kompozitsiyalari tabiatga juda yaqinligi bilan Xiva, Toshkent, Samarqand naqshlaridan ajralib turadi. Farg‘ona vodiysi maktabi naqqoshlari chetlari chiroyli qilib, ichiga islimiy naqshlar tushirilgan qizil, yashil bo‘yoqlar bilan ishlangan turunjni afzal ko‘radilar. Hozirda esa O‘zbekiston poytaxti Toshkent bo‘lib, butun san’at ahlining markazga birlashuvi sabab naqsh maktablari omuxtalashib bormoqda. Chunki qadimda usta shogirdlariga o‘rgatib o‘z maktabini saqlagan bo‘lsa hozirda esa markazdagi o‘quv yurtlariyu va viloyatlardagi o‘qish dasturlari bir xilda tuzilganligi sabab ustalar maktabi omuxtalashib boyib, rivoj topmoqda. Bundan kelib chiqadiki, albatta Oliy ta’limdagi fan dasturlari asosida O‘rta O‘siyo va respublikamizning taniqli amaliy san’at ustalari maktabining ishlarini ham respublikamiz bo‘ylab tarqalishiga imkoniyat yaratilmoqda. Albatta shu bilan

birgalikda esa miniatyura, naqqoshlik bilan qadimgi arab yozuvlari hattotlikni ham qayta o‘rganish yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu bilan bizning nafaqat tasviriy san’atimiz balkim qadimiy arab imlosini o‘rganish o‘zligimizni tiklash bu juda katta ilmiy salohiyatimizni tiklashga olib keladi. Shuning uchun miniatyura yo‘nalishida taxsil olayotgan talabalarga arab imlosini ham ilmiy tomonlama o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Farg‘ona vodiysi xalq amaliy san’atida yog‘och o‘ymakorligi san’ati ham o‘ziga xos uslublarda rivojlangan. Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, Namangan shaharlarida ham, vodiyning chekka qishloqlarida ham mashhur yog‘och o‘ymakor ustalari bilan bir qatorda hali el orasida shuhrat qozonib ulgurmagan, ammo bu sohada allaqachon o‘z uslubi va yo‘lini topib olgan usta hamda ustazodalar juda ko‘p. Hali vaqtlar kelib Farg‘ona vodiysi o‘zining yog‘och o‘ymakor ustalari bilan dunyoga dong taratsa, ajab emas. Ularga yaxshi sharoitlar yaratib berilsa, ijodiy ishlari reklama qilib turilsa, marhum usta Qodirjon Haydarovning izdoshlari o‘z asarlari bilan dunyo miqiyosiga chiqishlari mumkin. Chunki, barcha xalq amaliy san’atidagi buyumlarni tayyorlab yasab berish albatta yog‘och o‘ymakor ustalar zimmasida bo‘lib fanlararo bog‘lanish kabi bir-birlari bilan hamkorlikda ijod qilishadi.

Farg‘ona vodiysida qadim-qadimdan o‘zining mashhur san’atkorlari, qo‘li gul hunarmand ustalari bilan nom qozongan. Qo‘qon, Marg‘ilon, Quva, Rishton, Shahrixon, Andijon, Oltiariq, Chust, Kosonsoy, Namangan va boshqa joylardagi turli tarixiy obidalar, zamonaviy inshootlar, xonadonlarda uchraydigan naqsh, ganch, yog‘och o‘ymakorligi namunalari, pichoqlar, zargarlik, zardo‘zlik, kashtachilik buyumlari bu vodiyda xalq amaliy san’atining qadimdan mavjudligi, davrlar o‘tishi bilan rivojlanib borgani, bugungi kunda yanada takomillashib, chuqur ildiz otib borayotganidan darak beradi.

Ayniqsa, asosiy moddiy madaniy meros ob’ektlaridan Qo‘qondagi Xudoyorxon saroyi, G‘ishtli masjid, Jom’e masjidi, Quvadagi Zayniddinboy uyi,

Bog‘doddagi Oqil mingboshi masjidi, Saidahmadxoji, Andijondagi Jome’, Paxtaoboddagi Otaqo‘zi, Namangandagi Mulla Qirg‘iz, G‘oyibnazar qozi, Xo‘ja Amin madrasalari, Oltiariqdagi Qal’a, Do‘sti Xudo, Namangandagi Ota Valixon To‘ra, Chustdagi Mavlono Lutfillox, Saroy, Ko‘k to‘nli, Popdagi G‘urumsaroy, Haqqulobоddagi Haqqulobod masjidlari o‘zbek milliy me’morchiligimizning ajoyib namunalaridir. Ulardagi naqshlar o‘zining benihoya go‘zalligi bilan kishini o‘ziga rom etadi. Ulardagi milliy kolorit, o‘ynoqi va jozibador naqshu-nigorlar, serjilo ranglarni, handasiy uslubda terilgan koshinlar o‘z davri ruxiga mosdek kurilgandek bo‘lib ko‘rinadi. Tarixan rivojlanib kelayotgan avlodlar xotirasini saqlash va asrab-avaylash kerak bo‘lsa shu o‘tmishga nazar tashlab asori atiqalarga hurmatda bo‘lish va rivoji uchun kurashish har bir inson uchun burch ekanligini doimo dilda saqlash lozim va kerakdir.

XULOSA - Demak, qo‘yilgan muammolarning yechimini topishda tuzilgan dasturlar asosida talabalarga qulaylik tomoni shundaki, ular bevosita ob’ektdagi olib borilgan amaliy ishlarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, milliy qadriyatlarimizni qadriga yetadigan hamda ushbu jarayon orqali talabalarning xalq amaliy san’atiga qiziqishlarini e’tiborga olish muhim shartlaridan biridir. Bunday noan’anaviy auditoriyadan tashqari amaliy mashg‘ulotlarni ob’ektning o‘zida o‘quv jarayoniga qo‘llaganimizda talabalarni fanga bo‘lgan qiziqishlari ortadi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san’atini rivojlantirish orqali xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an’analarini saqlab qolish, band bo‘lmagan aholi, ayniqsa yoshlar va ayollarning hunarmandchilik bilan shug‘ullanishiga keng imkoniyat yaratilmoqda. O‘qituvchilar va talabalarning ilmiy-amaliy konferensiyalarga ma’ruzalar tayyorlashlari hamda fanga qiziqishni orttirish bilan birga ularda ma’suliyat hissini, milliy g‘urur va qadriyatlarimizni e’zozlashga qaratilgan tarbiyalash vositasi sifatida qo‘llash imkonini beradi.

REFERENCES

1. Ш.М.Мирзиёев., Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз.□Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

2. Муҳаммад муфтий Оҳангароний. Мавлоно Лутфуллоҳ манақиби. - Тошкент: Имом ал□Бухорий жамғармаси, 2002.

3. О.Қориев. Фарғона фиқҳ мактаби ва Бурҳонуддин ал□ Марғиноний.Тошкент: Фан, 2009.

4. П.Ш.Зоҳидов Меъмор олами.–Тошкент: Комуслар бош таҳририяти,1996.

5. С.С.Булатов Ўзбек халқ амалий безак санъати.– Тошкент:Меҳнат, 1991.

6. Засыпкин Б.Н.Архитектурние памятники Ферганы. Москва: Искусство Востока,1930

7. Бутенко В.Г.Школьникам о художественных ценностях памятников истории и культуры.– М., 1999.–113

8. Б.А.Рўзинов ва бошқалар.., Наманган вилояти маданий мероси. “Наманган” нашриёти, 2013йил.

9. Ruzinov, B. A. (2023). Tasviriy san’at rivojlanish tarixi va bugungi kundagi ahamiyatli jihatlarini o’rganish va taxlil qilish. *Models and methods for increasing the efficiency of innovative research*, *2*(19), 1-8.

10. Ruzinov, B. A. (2022). Akhsikent Earthquake. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, *9*, 209-212.

11. Ruzinov, B. A. (2022). Fargona vodiysi amaliy sanati. *Journal of new century innovations*, *10*(3), 70-74.

12. Рузинов, Б., & Абдуллаев, А. (2021). Кўҳна Ахсикент. *Общество и инновации*, *2*(2/S), 692-698.

13. Nuriddinov, B., & Ruzinov, B. (2021). Namangan, The City Of Flowers. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, *3*(01), 35-38.

14. Ruzinov, B. (2022). INTERDISCIPLINARY LINKS IN RESEARCH ON CULTURAL HERITAGE SITES AND ITS IMPACT ON THE YOUNGER GENERATION. *Science and Innovation*, *1*(3), 167-172.

15. Рузинов, Б., & Абдуллаев, А. (2021). Старый Ахсикент. *Общество и инновации*, *2*(2/S), 692-698.

16. Ruzinov, B. A. (2023). Farg ‘Ona Vodiysi Hunarmandchiligi Maktabi An’analari. *Miasto Przyszłości*, *36*, 189-192.

17. Қозоқов, Т. Қ., Рўзинов, Б. А., & Адилов, З. Р. (2023). ТАРИХИЙ-АРХЕОЛОГИК ТУРИЗМНИНГ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ.

18. Рўзинов, Б. А. НАМАНГАН ШАҲРИДАГИ МУЛЛА БОЗОР ОХУНД ЁДГОРЛИГИ АРХИТЕКТУРАСИ Адилов Зафар Равшанович.

19. Рўзинов, Б., Ражабова, С., & Исмоилов, Ю. (2013). Қосимов А. Наманган вилояти маданий мероси. *Наманган: Наманган*.

20. Ruzinov, B. A. (2022). Fargona vodiysi amaliy sanati. *Journal of new century innovations*, *10*(3), 70-74.

21. Ruzinov, B. A. (2022). FARGONA VODIYSI AMALIY SANATI. *Journal of new century innovations*, *10*(3), 70-74.

22. Рўзинов, Б., & Ражабова, С. (2006). Наманган вилояти маданий меросидан лавҳалар. *Наманган нашриёти*, *16*.

23. Рўзинов, Б. А., Нуриддинов, Б. Х., & Умаров, Х. (2021). ФАРҒОНА ВОДИЙСИ АМАЛИЙ САНЪАТИНИНГ ТАЪЛИМ ТАРБИЯДАГИ ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, *2*(3), 117-123

24. Ruzinov, B. A. (2023). Farg ‘Ona Vodiysi Hunarmandchiligi Maktabi An’analari. *Miasto Przyszłości*, *36*, 189-192.

25. Рўзинов, Б. А., Нуриддинов, Б. Х., & Умаров, Х. (2021). ФАРҒОНА ВОДИЙСИ АМАЛИЙ САНЪАТИНИНГ ТАЪЛИМ ТАРБИЯДАГИ ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, *2*(3), 117-123.

26. Ruzinov, B. A. (2023). Tasviriy san’at rivojlanish tarixi va bugungi kundagi ahamiyatli jihatlarini o’rganish va taxlil qilish. *Models and methods for increasing the efficiency of innovative research*, *2*(19), 1-8.

27. Ruzinov, B. A. (2023). Tasviriy san’at rivojlanish tarixi va bugungi kundagi ahamiyatli jihatlarini o’rganish va taxlil qilish. *Models and methods for increasing the efficiency of innovative research*, *2*(19), 1-8.

28. Askarovich, R. B. (2023). THE ROLE OF TOURISM AUTHORITY IN CHUST CULTURAL HERITAGE OBJECTS. *Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595)*, *3*(1).

29. Ruzinov, B. A. (2023). Tasviriy san’at rivojlanish tarixi va bugungi kundagi ahamiyatli jihatlarini o’rganish va taxlil qilish. *Models and methods for increasing the efficiency of innovative research*, *2*(19), 1-8.

30. Amanullaev, A. (2022). SPECIFIC FACTORS OF COMPREHENSIVE STUDY AND ANALYSIS OF THE HISTORY AND CULTURE OF THE UZBEK PEOPLE. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(02), 1-4.

31. Amanullaev, A. A. (2022). CURRENT ISSUES IN THE TRAINING OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(03), 1-3.

32. Абдимуминова, Д. А., & Амануллаев, А. А. (2018). Использование традиций этики" устоз-шогирд"(мастер и ученик) на занятиях прикладного искусства. *NovaInfo. Ru*, *2*(85), 203-206.

33. Abdumo‘minovich, A. A. (2023). QADIMDA USTALARNING SHOGIRD TAYYORLASHDA O’ZIGA XOS MILLIY ANANAVIY ASOSLARI. *Journal of Universal Science Research*, *1*(5), 1440-1447.

34. ABDUMO‘MINOVICH, A. A. (2023). BO’LG’USI TASVIRIY SAN’AT O’QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA HOZIRGI DAVR DOLZARB MASALALARI. *Journal of Universal Science Research*, *1*(5), 1423-1429.

35. Dildora, A. (2022). THE EMERGENCE OF SOME MODERN PROBLEMS IN THE FIELD OF ARCHITECTURE IN THE MODERN CONSTRUCTION OF ANCIENT CITIES RICH IN HISTORICAL MONUMENTS AND RELICS. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(02), 9-11.

36. Қизи, А. Д. А. (2023). РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИЙ ПРАКТИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, *1*(4), 201-203.

37. Абдумуминов, М. А. Ў. (2022). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ПУТЕМ ИЗУЧЕНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ ХУДОЖНИКОВ-ЖИВОПИСЦЕВ. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, *1*(2).32.

38. Sodiq, A. M. (2022). TO BE ABLE TO ANALYZE AND INTERPRET THE ARTISTIC VALUE OF COMPOSITION IN WORKS OF FINE ARTS AND TO INCREASE STUDENTS'KNOWLEDGE OF ARTISTIC PERCEPTION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036*, *11*(03), 149-151.

39. Ubaydullayev, M. A. (2023). DEVELOPMENT AND POPULARIZATION OF METHODS OF TEACHING STUDENTS OF THE DIRECTION OF FINE ARTS THROUGH INFORMATION TECHNOLOGY. *Евразийский журнал академических исследований*, *3*(2), 166-169.

40. Pulatov, D., & Ubaydullaev, M. (2023). FORMATION OF NEW CREATIVE DIRECTIONS IN MODERN FINE ART OF UZBEKISTAN. *Solution of social problems in management and economy*, *2*(2), 34-39.

41. Убайдуллаев, М. А. (2022). ПРОБЛЕМА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЗАРУБЕЖНОЙ ПЕДАГОГИКИ. *Science and innovation*, *1*(JSSR), 177-182.

42. Saymamutovich, P. D., & Akhmadjonovich, U. M. (2023). THE END OF THE 20TH CENTURY THE BEGINNING OF THE 21ST CENTURY UZBEKISTAN MAGNIFICENT SCULPTURE. *Open Access Repository*, *4*(2), 102-107.

43. Убайдуллаев, М. А. (2022). КОМПОЗИЦИЯ АСОСЛАРИНИНГ ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИДА ҚУЛЛАНИЛИШИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(12), 329-332.

44. Akhmadjanovich, M. U. (2024). THE SIGNIFICANCE OF CERAMIC PRODUCTS IN INDUSTRY. *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, *2*(12), 112-117.

"G‘URUMSAROY BADIIY KULOLCHILIK MAKTABI AN’ANALARINI QAYTA TIKLASH VA BADIIY KULOLCHILIK TA’LIMIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING ISTIQBOLLARI"

Andijon davlat universiteti “Tasviriy va amaliy san’at” kafedrasi o’qituvchisi

Soliyeva Diyora Bobur qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada G‘urumsaroy badiiy kulolchilik maktabining an’analarini qayta tiklash va rivojlantirish O‘zbekistonning boy madaniy merosini saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazish uchun muhim vazifalar haqida so’z boradi.

Kalit so’z: o’quvchi, hunarmand, ijodkor, kulolchilik, oila.

"PROSPECTS OF RESTORING THE TRADITIONS OF THE GURUMSARAY ARTISTIC CERAMIC SCHOOL AND TRAINING QUALIFIED PERSONNEL IN ARTISTIC CERAMIC EDUCATION"

Abstract: The restoration and development of the traditions of the Gurumsaray School of Artistic Ceramics is an important task for preserving the rich cultural heritage of Uzbekistan and passing it on to future generations.

Keywords: student, craftsman, creator, pottery, family.

Kirish. O‘zbekiston hunarmandchilik an’analariga boy yurtlardan biri bo‘lib, uning ajralmas qismi kulolchilik san’atidir. Mamlakatimizda kulolchilikning turli maktab va markazlari shakllangan bo‘lib, ular orasida Rishton, Buxoro, G‘urumsaroy, Toshkent, Xorazm, Samarqand va Qashqadaryo kulolchilik an’analari alohida o‘rin tutadi. Ushbu maktablarning har biri o‘ziga xos tayyorlash uslubi, naqsh bezaklari, rangi va pardozlash texnikalari bilan ajralib turadi. Bu xilma-xillik O‘zbekiston kulolchilik san’atining boy madaniy merosi va hunarmandchilik an’analarini aks ettiradi. Ushbu Kulolchilik maktablari orasida **G‘urumsaroy badiiy kulolchilik maktabi** alohida o‘rin tutadi. Ushbu maktab qadimiy kulolchilik uslublarini, noyob naqsh va sir ishlash texnikalarini o‘zida mujassam etgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Patricia Rice’ning **"Pottery Analysis: A Sourcebook" (1987)** asari keramika va kulolchilikni o‘rganish bo‘yicha muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi Muallif ushbu kitobda **keramika tahlili usullari, ishlab chiqarish**

texnikalari, bezak va sir bilan ishlash uslublari hamda ijtimoiy-madaniy kontekst haqida atroflicha fikr yuritadi, Dolinina, A. (1984). *Исламская керамика Средней Азии IX-XIII вв.* (Islamic Ceramics of Central Asia IX-XIII Centuries), Markaziy Osiyoda IX-XIII asrlarda Islomiy keramikaning rivojlanishi tahlil qilinadi, To‘xtamatova Huvaydo NamDU magistranti Yunusaliyev Muhammadqodir FarDU katta o’qituvchisi Maqolasida O’zbekiston xalq amaliy san’ati, uning tarixi,rivojlanishiga oid ilmiy manbalar va ularni yaratgan olimlar haqida so’z borgan Xalqning amaliy san’at orqali davomchilik yo’llaridan ketilishini,ustoz va shogirt an’analarini davom ettirilishini ilmiy asoslarda qanday yoritib berilgani keltirib o’tilgan, shuningdek, **Buvayev V. (2022). G‘urumsaroy kulolchilik maktabi tarixi va uning o‘ziga xos jihatlari. Oriental Art and Culture Scientific Methodical Journal, 3(4), 706-711.** Buvayev V. ushbu maqolasida **G‘urumsaroy kulolchilik maktabining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va uning o‘ziga xos jihatlari** haqida fikr yuritgan.

G‘urumsaroy kulolchilik maktabi O‘zbekiston xalq amaliy san’atining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning qadimiy uslublari va texnologiyalarini o‘rganish milliy hunarmandchilik tarixini tiklashga xizmat qiladi. G‘urumsaroy kulolchilik an’analarini qayta tiklash milliy mahsulotlarni mahalliy va xalqaro bozorlarga olib chiqish imkonini berib bu G‘urumsaroy badiiy kulolchilik maktabining **qadimiy an’analarini qayta tiklash, yosh hunarmandlarni tayyorlash, san’at va ta’limni rivojlantirish** uchun muhimdir. Shu bilan birga, milliy hunarmandchilikni **zamonaviy iqtisodiyot va turizm bilan uyg‘unlashtirish** orqali O‘zbekiston madaniy merosini dunyoga tanitishga xizmat qiluvchi yo’ldir.

Natijalar. G'urumsaroy qishlog'i yurtimizda kulolchilik an'analarini davom ettirib kelayotgan va ko'plab usta kulollar yetishib chiqqan qadimiy joy hisoblanadi. Shuningdek, vodiyda ikkinchi bo'lgan G'urumsaroy kulolchilik maktabiga manbaalarda yozilishicha, usta Ko'ki degan odam 1700 yillarda kelib, shu yerda yashab kulolchilikka asos solgan. Bunga qishloq tuprog'ining tozaligi, olovga o'ta chidamliligi, havosini tozaligini asosiy sabab bo'lgan. Usta Ko'ki kulolchiligini

uzoq yillar davom etishiga sababchi bo'lgan ustalar Usmon, Diyor, To'xta buva, Xokim tavoqchi, Turob tavoqchi, Sodiq kulol, usta Soti, usta Xayitboy, usta Maxmud, Maqsud tavoqchilar G'urumsaroy kulolchilik maktabining ham davomchilari sanaladilar. Ular qo'lida sayqal topgan barkash, nimbarkash, nimtavoq, damtovoq, qaymoqdon, kosa, piyola, qo'shquloq, katta ko'za kabi kulolchilik buyumlari bejirimligi, ranglarining tiniqligi va qulayligi bilan dovrug' qozongan. Biroq zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti va turmush tarzining oʻzgarishi tufayli ba’zi qadimiy an’analar unutilish xavfi ostida turibdi. Shu sababli, Gʻurumsaroy kulolchilik maktabi an’analarini saqlab qolish va qayta tiklash uchun muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirilmoqda.

Gʻurumsaroy kulolchilik maktabining an’analarini qayta tiklashning eng muhim yoʻllaridan biri ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va mavjud tarixiy manbalarni oʻrganishdir. Oʻzbekistonning qadimiy kulolchilik markazlari, jumladan, Gʻurumsaroy mahsulotlarini ilmiy nuqtayi nazardan oʻrganish orqali yoʻqolib borayotgan naqsh va sir tarkibini qayta tiklash mumkin. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan buyumlarni tahlil qilish, muzeylarda saqlanayotgan qadimiy kulolchilik namunalarini oʻrganish, shuningdek, yoshi katta ustalarning tajribalaridan foydalanish ushbu yoʻnalishda samarali natija berishi mumkin. Shuningdek, qadimiy ishlab chiqarish usullarini tiklash ham muhim vazifalardan biridir. Ma’lumki, Gʻurumsaroy kulollarining sir ishlash texnikasi va buyum tayyorlash uslubi oʻziga xos boʻlib, u asosan tabiiy materiallar va qoʻlda shakllantirish asosida amalga oshirilgan. Shu sababli, an’anaviy loy tarkibini oʻrganish, tabiiy pigment va sirlarni qayta tiklash, hunarmandchilik mahsulotlarini pishirishning qadimiy usullarini oʻrganish lozim. Masalan, elektr pechlar bilan bir qatorda, an’anaviy oʻtinli yoki koʻmirli pechlarda pishirish texnikasini tiklash, buyumning tabiiy tusini saqlab qolishda muhim rol oʻynaydi.

Bundan tashqari, yosh avlodga an’anaviy kulolchilik sirlarini oʻrgatish va maxsus ta’lim dasturlarini joriy qilish katta ahamiyatga ega. Kulolchilik san’atining davomiyligini ta’minlash uchun hunarmandchilik maktablari, kasb-hunar kollejlari va oliy ta’lim muassasalarida badiiy kulolchilik boʻyicha maxsus yoʻnalishlar ochish zarur. Yosh hunarmandlarga ustoz-shogird an’analari asosida ta’lim berish, tajribali ustalar ishtirokida amaliy mashgʻulotlar tashkil etish, an’anaviy kulolchilik sirlarini zamonaviy dizayn elementlari bilan uygʻunlashtirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilsa, bu sohaning rivojlanishiga katta hissa qoʻshadi.

Gʻurumsaroy kulolchilik maktabining an’analarini dunyo miqyosida ommalashtirish uchun esa xalqaro tajriba almashish va bozorlarga chiqish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun hunarmandlarning xalqaro festivallar, koʻrgazmalar va ilmiy konferensiyalarda qatnashishini ta’minlash, ularning ishlarini xorijiy kolleksiyachilarga va san’at ixlosmandlariga taqdim etish kerak. Shuningdek, Gʻurumsaroy kulollarining noyob ishlari eksport qilinadigan maxsus mahsulot sifatida xorijiy bozorga chiqarilsa, bu nafaqat iqtisodiy daromad keltiradi, balki oʻzbek milliy kulolchilik an’analarining butun dunyoda tanilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, hunarmandlarni moddiy va ma’naviy jihatdan qoʻllab-quvvatlash ham muhimdir. Davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan grantlar ajratish, kulollar uchun maxsus fondlar yaratish, milliy hunarmandchilikni rivojlantirish dasturlarini joriy qilish orqali ustalarga yanada keng imkoniyatlar yaratish mumkin. Hunarmandchilik markazlarini rivojlantirish orqali turistlar uchun kulolchilik ustaxonalari tashkil qilish, sayyohlik maskanlarida an’anaviy buyumlar ishlab chiqarish va ularni sotish imkoniyatini yaratish lozim. Mavzu doirasida amalga oshirilgan tadqiqot va amaliy ishlar natijasida **Gʻurumsaroy kulolchilik maktabi oʻz tarixiy mavqeyini tiklamoqda, ilmiy-nazariy bazasi kengayibzamonaviy texnologiyalar bilan uygʻunlashmoqda.** Shu bilan birga, **hunarmandchilik ta’lim tizimi rivojlantirilib, yosh avlodga oʻrgatilmoqda.** Bu natijalar milliy madaniy merosni saqlash va uni xalqaro darajada targʻib qilish uchun muhim asos boʻlib xizmat qilmoqda.

Xulosa. Gʻurumsaroy badiiy kulolchilik maktabining an’analarini qayta tiklash va rivojlantirish Oʻzbekistonning boy madaniy merosini saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazish uchun muhim vazifalardan biridir. Buning uchun ilmiy tadqiqotlar olib borish, an’anaviy usullarni tiklash, yosh hunarmandlarni tayyorlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va hunarmandlarni moddiy qoʻllab-quvvatlash talab etiladi. Agar ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, Gʻurumsaroy kulolchilik maktabi nafaqat Oʻzbekiston hududida, balki butun dunyo miqyosida oʻz mavqeini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamurov, A. A. (2023). Xalq badiiy hunarmandchilikda Rishton kulolchiligini yanada rivojlantirish hamda milliy madaniyatni o‘rganish. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, **3** (9), 212–217. https://www.oriens.uz

2. Buvayev, V. (2022). G‘urumsaroy kulolchilik maktabi. *Oriental Art and Culture Scientific Methodical Journal*, **3** (4), 706–711.

3.**Ochildiev, R. (2012).** O‘zbekiston kulolchilik san’ati tarixi va uslublari. Tashkent: Sharq.

4. **Mirzaev, M. (2001).** O‘zbek xalq amaliy san’ati: Kulolchilik. Tashkent: O‘zbekiston.

O‘ZBEKISTON TASVIRIY VA AMALIY SAN’ATINING RIVOJLANISH TARIXI

Ubaydullayev Mahmudjon Ahmadjonovich

Namangan davlat universiteti san’atshunoslik kafedrasi o’qituvchisi

maxmudjon.ubaydullayev6860@gmail.com

Obidov Eldorbek Mamirjon o’g’li

Namangan davlat universiteti Grafika (Xattotlik va Miniyatura) yo’nalishi 2-kurs talabasi

eldorbekobidov428@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’atining shakllanish jarayoni, uning tarixiy ildizlari va bosqichma-bosqich rivojlanishi keng tahlil qilinadi. Xususan, qadimgi davrlardan boshlab o‘rta asrlardagi yodgorliklar, islomiy naqsh bezak san’ati, Temuriylar davrida yuksak darajaga ko‘tarilgan miniatyura maktabi va boshqa san’at yo‘nalishlarining taraqqiyot yo‘li yoritiladi. Maqolada shuningdek, yurtimizda shakllangan hududiy amaliy san’at maktablari (masalan, Rishton kulolchilik maktabi, Buxoro zardo‘zlik maktabi, Marg‘ilon atlas-do‘zlik maktabi va boshqalar)ning o‘ziga xosliklari, ularning xalq ijodi va estetik qarashlar bilan bog‘liqligi o‘rganiladi.

Ushbu maqola san’atshunoslik sohasi bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar, talabalar va keng kitobxonlar ommasi uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, amaliy san’at, miniatyura, naqsh bezagi, milliy maktablar, Temuriylar davri, mustaqillik, san’atkorlar, hunarmandchilik, san’at tarixi, xalqaro ko‘rgazmalar.

Annotation: This scholarly article provides an in-depth analysis of the formation process, historical roots, and gradual development of visual and applied arts in Uzbekistan. It particularly highlights artistic achievements from ancient

times through the medieval period, including architectural monuments, Islamic ornamental art, and the flourishing miniature painting school during the Timurid era, as well as the progression of various other art forms.

The article also explores the distinctive characteristics of regional applied art schools that emerged in Uzbekistan—such as the Rishtan ceramics school, Bukhara gold embroidery tradition, and the Margilan atlas weaving school—emphasizing their connections to folk creativity and aesthetic worldview.

The academic direction of visual arts developed in the 20th century is examined, with attention given to prominent artists of the Soviet period and the ideological role of art during that time. Furthermore, the paper analyzes the socio-cultural transformations in the art sphere following the independence of Uzbekistan in 1991, particularly the revival of national identity, the reinvigoration of traditional art forms, and the integration of contemporary trends.

The article also discusses the active participation of Uzbek visual and applied artists in international exhibitions and biennales, and how their works serve to promote national values on the global stage.

This article offers both theoretical and practical insights for art historians, researchers, students, and the broader readership interested in the cultural and artistic heritage of Uzbekistan.

Keywords: visual art, applied art, miniature painting, ornamental design, national schools, Timurid era, independence, artists, handicrafts, art history, international exhibitions.

Kirish

O‘zbekiston – qadimiy sivilizatsiyalar beshigi, boy tarixiy-madaniy merosga ega bo‘lgan zaminda joylashgan mamlakatdir. Bu yurtda asrlar davomida shakllangan san’at an’analari xalqning estetik didi, hayot falsafasi va ruhiy dunyosining o‘ziga xos ifodasi bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, tasviriy va amaliy

san’at turlari oʻzining chuqur ildizlariga, shakl va mazmun jihatidan boyligiga ega boʻlib, Oʻzbekiston madaniy hayotining ajralmas qismi sanaladi.

Tasviriy san’at – bu borliqni badiiy obrazlar vositasida tasvirlashga asoslangan san’at turi boʻlib, rassomchilik, grafika, haykaltaroshlik kabi yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi. Amaliy san’at esa koʻproq kundalik hayot bilan bogʻliq boʻlib, hunarmandchilik, bezak san’ati, naqsh va tillasozlik, gilamdoʻzlik, kulolchilik, zardoʻzlik kabi koʻplab yoʻnalishlarni qamrab oladi. Har ikki san’at turi xalq hayoti, urf-odatlari, diniy e’tiqodlari va tabiatga boʻlgan munosabatini badiiy timsollar orqali ifodalaydi.

Oʻzbekiston tasviriy va amaliy san’atining rivojlanish tarixi, uning ma’naviy va madaniy kontekstlari, shuningdek, mahalliy va xorijiy ta’sirlar asosida oʻrganiladigan keng qamrovli mavzudir. Oʻzbekistonning tasviriy san’ati qadimiy an’analarga ega boʻlib, bu san’at shakllarining rivojlanishi koʻplab tarixiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga bogʻliq. Oʻzbekiston tasviriy san’atining tarixi asosan qadimgi davrlaridan to hozirgi kungacha boʻlgan davrda shakllangan.

Tasnifiy jihatdan Oʻzbekiston tasviriy san’ati bir necha davrlarga boʻlinadi, jumladan, qadimiy davr, oʻrta asrlar, yangilanish davri va mustaqillik yillari. Qadimiy Oʻzbekistonning tasviriy san’ati, asosan, arxitektura, haykal va dekorativ san’at shakllarida namoyon boʻlgan. Oʻrta asrlarda musulmon san’atining oʻziga xos xususiyatlari, xususan, minora va masjidlarning bezaklariga alohida ahamiyat berilgan. Ushbu davrda, xususan, Samarqand va Buxoro kabi shaharlar madaniy markazlarga aylangan, bu esa tasviriy san’atning rivojlanishiga erishish imkonini bergan [1].

Mustaqillik yillarida Oʻzbekiston tasviriy san’ati zamonaviy talablarga javob beradigan yangi yoʻnalishlar bilan boyidi. Bu davrda mahalliy san’atkorlarning ijodiga zaruriy e’tibor qaratildi, va hukumat tomonidan san’atni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha qator dasturlar amalga oshirildi. Oʻzbekiston Respublikasi madaniyat va san’at sohasida jahon tajribasini oʻrganish va undagi

eng yaxshi amaliyotlarni o‘ziga moslashtirishga muhim ahamiyat berdi [2.]. O‘zbekiston amaliy san’ati ham tarixiy va madaniy an’analarni davom ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Xalq amaliy san’ati, jumladan, kashtachilik, kulolchilik va yog‘och o‘ymachilik kabi sohalar, o‘zbek xalqining iqtisodiy va ma’naviy ahamiyatga ega [3.]. Misol uchun, Qashqadaryo vohasidagi kashtachilik an’analarini o‘rganish, o‘sha mintaqadagi tarixiy jarayonlar o‘rnini belgilaydi va milliy madaniyatni saqlab qolish muhimligini ko‘rsatadi [4.]. Bundan tashqari, O‘zbekiston san’atining zamonaviy shakllari, xususan, raqamli san’at va zamonaviy grafika sohalarida ham rivojlanmoqda. Bu ham O‘zbekiston san’atini global miqyosda tanitishda muhim rol o‘ynaydi. San’at va texnologiyaning o‘zaro ta’siri, sanat asarlarini yaratishda innovatsion yondashuvlar va usulni ko‘rsatadi va bu esa yangi san’at shakllarini rivojlantirishga olib kelmoqda [5.]. Shu bois, O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’atining rivojlanishi tarixi, avvalo, xalqning ma’naviy boyliklari, madaniy an’analari va ijodiy faoliyatining erkinaligi bilan mustahkamlanuvchi keng ko‘lamli jarayonlar natijasidir. Bu jarayonlarning natijasida O‘zbekiston nafaqat markaziy Osiyo, balki global madaniyatda o‘z o‘rnini topadi.

O‘zbekiston hududida qadimdan san’atning yuqori darajada rivojlanganiga arxeologik topilmalar, qadimgi devoriy rasmlar, shuningdek, yodgorliklar, maqbaralar va madrasa binolaridagi ganchkori naqshlar, rang-barang mozaikalar guvohlik beradi. X especially, Zarafshon vodiysi, Xorazm, Farg‘ona, Buxoro va Samarqand singari tarixiy-madaniy markazlarda san’atning turli shakllari o‘ziga xos maktab va uslublarni yaratgan. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekistonni Sharq san’ati taraqqiyotining markazlaridan biriga aylantirgan.

Sharq madaniyati bilan uyg‘unlashgan holda o‘ziga xos yo‘nalishda rivoj topgan O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’ati bugungi kunda ham o‘zining an’anaviy shakllarini yo‘qotmagan holda, zamonaviy tendensiyalar bilan uyg‘unlashib borayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida

ushbu san’at turlariga bo‘lgan e’tibor kuchaydi, milliy madaniyat va san’atni tiklash, rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi. Shu sababli, tasviriy va amaliy san’at nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki milliy o‘zlikni anglash va uni dunyoga tanitish yo‘lidagi kuchli madaniy ko‘prikka aylandi.

Ushbu maqolada ana shu boy san’at merosining tarixiy bosqichlari, yirik san’at maktablari, mashhur ustalar va rassomlar ijodi, shuningdek, mustaqillikdan keyingi davrdagi rivojlanish yo‘nalishlari atroflicha tahlil etiladi. Maqolaning maqsadi – O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’atining taraqqiyot yo‘lini, bugungi holati va kelajakdagi istiqbollarini ilmiy-nazariy jihatdan yoritishdir.

1. Qadimgi va o‘rta asrlar davrida tasviriy va amaliy san’at

O‘zbekiston hududi qadim zamonlardan buyon Sharq sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri hisoblanib kelgan. Bu hududda shakllangan ilk davlatlar – Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm kabi qadimgi madaniyat o‘choqlari o‘zining yuksak san’at namunalariga ega bo‘lgan. Arxeologik tadqiqotlar davomida Afrosiyob (Samarqand), Toprakkala (Xorazm), Varaxsha (Buxoro yaqinida) kabi yodgorliklardan topilgan devoriy rasmlar, sirlangan sopol idishlar, naqshinkor bezaklar, haykallar va metall buyumlar bu davr san’atining serqirra va yuksak darajada rivojlanganini isbotlaydi.

Ayniqsa, devoriy rasmlarda tasvirlangan marosimlar, tantanali yurishlar, hunarmandlarning mehnat jarayonlari va tabiat manzaralari qadim ajdodlarimizning estetik qarashlari, dunyoqarashi va ijodiy tafakkuri haqida muhim ma’lumot beradi. Bu davrda amaliy san’at turlari – keramika (sopol buyumlar yasash), metallga ishlov berish (qurollar, zargarlik buyumlari), to‘qimachilik, gilamdo‘zlik, yog‘och o‘ymakorligi keng taraqqiy etgan. Mahsulotlarda o‘simliksimon, hayvonot olamiga oid, afsonaviy obrazlar tasvirlangan bo‘lib, ularning barchasi diniy, mifologik va estetik g‘oyalarni ifodalagan.

Islom dini kirib kelishi bilan san’atda yangi bosqich boshlandi. Qur’oni Karimda jonli tasvirlardan tiyilish tavsiya etilganligi sababli, figurativ obrazlar o‘rnini arabeska, geometrik naqshlar va islimiy bezaklar egalladi. Xattotlik, naqsh bezak san’ati, me’moriy bezakchilik (ganchkori, koshinkori) rivoj topdi. Islom davrida Qur’on kitoblarining zarhal bezaklar bilan bezatilishi, masjid va madrasalarning rang-barang naqshlar bilan ziynatlanishi san’atning diniy va estetik birligidan dalolat beradi.

Temuriylar davri (14–15-asrlar) O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’ati tarixida alohida o‘rin tutadi. Bu davrda san’at va madaniyat davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlangan. Ayniqsa, miniatyura san’ati yuksak cho‘qqilarga ko‘tarildi. Bu san’at turi kitob bezagi sifatida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, asta-sekin mustaqil badiiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Kamoliddin Behzod – bu davrning eng mashhur miniatyura ustalaridan biri bo‘lib, uning asarlari tafakkur, estetik go‘zallik, insoniy ruhiyatning nozik tasvirlari bilan ajralib turadi. Uning ijodi Sharq miniatyura san’atining eng yuksak namunalaridan hisoblanadi va butun Islom dunyosida tan olingan.

Shuningdek, Temuriylar va keyingi Shayboniylar, Ashtarxoniylar davrida ham amaliy san’at turlari: zardo‘zlik, to‘qimachilik, kulolchilik, yog‘och o‘ymakorligi, sopolchilik, metallga ishlov berish san’ati keng rivoj topdi. Bu san’at turlari xalqning ehtiyojidan kelib chiqib yaratilgan bo‘lsa-da, o‘zining badiiy nafisligi, uslubiy xilma-xilligi bilan madaniy hayotning ajralmas qismiga aylangan.

2. Amaliy san’atning maktablari va uslublari

O‘zbekiston amaliy san’ati ming yilliklar davomida shakllangan va turli hududlarda o‘ziga xos maktab va an’analarni yaratgan. Har bir hududning tabiiy sharoiti, etnik tarkibi, madaniy merosi, hunarmandlar avlodi va tarixiy rivojlanish sur’atiga qarab san’at maktablari o‘ziga xos uslub, bezak tili va texnika jihatlarida farqlanadi.

Rishton kulolchilik maktabi (Farg‘ona vodiysi)

Rishton qadim zamonlardan buyon sopolchilik markazi sifatida mashhur. Bu yerda kulollar asrlar davomida sopol idishlar yasash an’analarini avloddan-avlodga oʻtkazib kelgan. Ayniqsa, koʻk-moviy rangli sir (kulol sirchasi) bilan bezatilgan naqshinkor idishlar – chinni, togʻora, kosa va laganlar Rishton kulolchilik san’atining eng yorqin namunalaridir. Bu mahsulotlarda tabiiy mineral boʻyoqlar va maxsus sir ishlatiladi.

Margʻilon toʻqimachilik maktabi

Margʻilon shahri qadimdan ipakchilik va toʻqimachilik san’ati bilan mashhur. Bu yerda ishlab chiqariladigan atlas va adras matolari oʻzining yengilligi, yorqin ranglari, tabiiy boʻyoqlari va murakkab naqshlari bilan ajralib turadi. “Ikat” usulida toʻqilgan matolar xalq orasida katta hurmatga sazovor boʻlgan boʻlib, bugungi kunda ham milliy liboslar, pardalar, bezaklar tayyorlashda keng qoʻllaniladi.

Buxoro zardoʻzlik va kashtachilik maktabi

Buxoro oʻzining zardoʻzlik (tilla va kumush iplar bilan tikish) san’ati bilan mashhur. Bu san’at turi ayniqsa saroylar, masjidlar va tantanali kiyimlar bezagida keng qoʻllanilgan. Zardoʻzlar ipak va atlas matolar ustiga gullar, islimiy naqshlar va diniy yozuvlar bilan bezaklar tikishgan. Shuningdek, bu yerda kashtachilik, metalldan bezak buyumlar tayyorlash, yogʻochdan oʻymakorlik san’ati ham yuqori darajada rivojlangan.

Xiva yogʻoch oʻymakorligi va sopolchilik maktabi

Xiva – oʻzining yogʻochdan yasalgan ustunlari, eshiklari, me’moriy detallaridagi nozik oʻyma bezaklari bilan mashhur. Bu san’at turida geometrik shakllar, arabeska naqshlar, oʻsimliksimon tasvirlar ustunlik qiladi. Xiva ustalari yogʻochdan nafaqat binolar uchun bezaklar, balki maishiy buyumlar – sandiqlar, soʻzanalar, gilamlar uchun doʻkon stendlari yasashgan. Shuningdek, Xivada sopolchilik an’analari ham yuksak darajada saqlanib qolgan.

Bu maktablar xalqning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, amaliy san’at orqali estetik tarbiya, milliy qadriyatlarni avlodlarga yetkazishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa, usta-shogird an’anasi orqali bu hunarlar asrlar davomida yashab kelmoqda. Har bir maktabning o‘ziga xos bezak tili, kompozitsiyasi va texnik uslublari borligi ularning boy san’at maktabi sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

3. XX asrda tasviriy san’atning yangi bosqichi

XX asr O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixida muhim burilish davri bo‘ldi. Sovet hokimiyati o‘rnatilishi bilan san’at davlat nazorati ostiga olingan bo‘lsa-da, bu davrda san’atning akademik asoslarda rivojlanishi, yangi ta’lim tizimlarining tashkil etilishi, rassomlar tayyorlash bo‘yicha maxsus o‘quv dargohlarining ochilishi san’at sohasining rivojiga zamin yaratdi. Shu davrda realistik uslub hukmron bo‘lib, rassomlar asarlarida hayotiylik, obrazlar aniq tasviri, mehnatkash xalq, paxtakor, ishchi, ilm-fan arboblari, siyosiy yetakchilar timsollarini aks ettirish asosiy mavzuga aylandi.

Sotsialistik realizm uslubi asosida chizilgan ko‘plab portretlar, manzaralar, tematik kompozitsiyalar bu davr rassomchiligining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib xizmat qildi. Rassomlar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga faol aralashar, o‘z asarlari orqali hukmron mafkurani targ‘ib qilardilar. Shunga qaramay, milliy ruhni saqlab qolishga harakat qilgan ijodkorlar ham mavjud edi. Ayniqsa, o‘zbek madaniy merosi, xalq urf-odatlari, kiyim-kechaklari, bayramlari tasvirlangan asarlar orqali o‘ziga xoslikni namoyon qilishga intilganlar.

Ushbu davrda yetuk rassomlar yetishib chiqdi. Jumladan, Chingiz Axmarov o‘zining monumental devoriy bezak ishlari, tarixiy va epik kompozitsiyalari bilan mashhur bo‘ldi. U yaratgan rasmlar o‘zining rang-barangligi, kompozitsion aniqligi bilan ajralib turadi. Raxim Ahmedov o‘zbek xalqining turmush tarzini, mehnat jarayonlarini yorqin ifoda etgan, Rauf Turg‘unboyev esa portret va tematik asarlari bilan o‘zbek tasviriy san’atining yetakchi vakillaridan biriga aylangan.

Shuningdek, bu davrda san’at maktablari, muzeylar, rassomlar uyushmalari faoliyati kuchayib bordi. Respublika koʻrgazmalari, xalqaro san’at festivallari oʻtkazila boshlandi. Bularning barchasi tasviriy san’atning sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarilishiga xizmat qildi.

4. Mustaqillik yillarida san’at taraqqiyoti

1991-yilda Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, barcha sohalar singari san’atda ham tub oʻzgarishlar sodir boʻldi. Avvalo, ijodiy erkinlikning kengayishi rassomlar va hunarmandlarga yangi imkoniyatlar ochdi. Endilikda rassomlar davlat buyurtmasi va mafkuraviy cheklovlardan holi tarzda milliy oʻzlik, tarixiy xotira, an’anaviy estetik qarashlarni aks ettirishga kirishdilar. Mustaqillik tasviriy va amaliy san’atda milliy identifikatsiyani tiklash, tarixiy manbalarga qaytish, madaniy merosdan ilhom olish uchun keng yoʻl ochdi.

Tasviriy san’atda tarixiy obrazlar – Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Alisher Navoiy kabi milliy qahramonlar, shuningdek qadimiy yodgorliklar, me’moriy ansambllar va tabiat manzaralari keng koʻlamda tasvirlana boshladi. Shaharlar va qishloqlarning hayoti, oʻzbek xalqining marosim va urf-odatlari rassomlar uchun ilhom manbaiga aylandi. Shu bilan birga, eksperimental, abstrakt, modernist yoʻnalishdagi ishlar ham yuzaga keldi.

Amaliy san’at sohasida esa jonlanish yanada kuchaydi. Hunarmandchilik an’analari tiklanib, ular zamonaviy dizayn bilan uygʻunlashtirildi. Xalq hunarmandlari tomonidan yaratilgan mahsulotlar – gilamlar, kashtalar, kulolchilik, zardoʻzlik va yogʻoch oʻymakorligi namunalari xalqaro bozorlarda ham oʻz oʻrnini topdi.

“Hunarmandlar uyushmasi”, “Oʻzbekiston hunarmandlari” forumi, “Ipak va ziravorlar” festivali, “Navroʻz” va “Asrlar sadosi” kabi tadbirlar mahalliy san’atkorlar, ustalar va yosh iste’dodlar uchun katta maydon yaratdi. Bu kabi koʻrgazmalar, tanlovlar, mahorat darslari orqali san’at xalq orasida keng targʻib qilindi. Ayniqsa, yoshlar orasida milliy san’atga qiziqish ortdi, san’at maktablari va

oliy o‘quv yurtlarida zamonaviy ta’lim dasturlari asosida mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Shuningdek, mustaqillik yillarida xorijiy davlatlar bilan madaniy hamkorlik kengaydi. O‘zbekiston rassomlarining asarlari xalqaro biennalelar, san’at ko‘rgazmalarida namoyish etila boshladi. Bu esa o‘zbek san’atining jahon miqyosida e’tirof etilishiga xizmat qildi.

5. Zamonaviy san’at tendensiyalari va global maydondagi o‘rni

XXI asrda O‘zbekiston san’ati jahon san’at maydonining ajralmas qismiga aylanish yo‘lida izchil taraqqiy etmoqda. Globalizatsiya, texnologik taraqqiyot, raqamli vositalarning san’atga kirib kelishi rassomlik va amaliy san’atda yangi yo‘nalishlar, g‘oyalar va ifoda shakllarini yuzaga keltirdi. Endilikda o‘zbekistonlik ijodkorlar nafaqat an’anaviy tasviriy vositalar bilan cheklanmay, balki **raqamli san’at, grafik dizayn, multimedia installyatsiyalar, videosan’at, 3D animatsiya, fotografiya** singari zamonaviy san’at vositalari orqali ham o‘z fikrini bayon etmoqdalar.

Zamonaviy san’atda faqat tasvir yoki estetik go‘zallik emas, balki **g‘oya, ijtimoiy muammo, madaniy identitet, shaxsiy izlanishlar, ekologik va ijtimoiy mavzular** ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa san’atni ko‘proq kommunikatsiya vositasi sifatida qarashga undaydi. O‘zbekistonlik yosh rassomlar va dizaynerlar bu borada jahon tendensiyalarini faol kuzatib borar, ularni o‘z milliy ruhiyati va estetik qarashlari bilan uyg‘unlashtirgan holda ijod qilmoqdalar.

Raqamli texnologiyalar rivoji tufayli ijodkorlar internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali o‘z asarlarini keng auditoriyaga taqdim etish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu esa san’atni demokratlashtirish, xalq ommasiga yaqinlashtirish jarayonini tezlashtirdi.

O‘zbekiston san’at sohasi uchun muhim tayanchlardan biri bu **Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti** hisoblanadi. Ushbu dargoh zamonaviy rassomlik, grafik dizayn, moda dizayni, monumental san’at va

boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlab, ijodkorlarning professional rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, **Toshkent arxitektura va qurilish instituti, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Ijod maktablari** va boshqa ta’lim muassasalari ham yosh iqtidorlarni kashf etish va ularga zarur bilim berish borasida muhim rol o‘ynamoqda.

So‘nggi yillarda o‘zbekistonlik rassomlar xalqaro miqyosda faol ishtirok etmoqda. Jumladan:

Venetsiya biennalasi – dunyodagi eng nufuzli zamonaviy san’at forumlaridan biri bo‘lib, unda O‘zbekiston pavilyonining tashkil etilishi san’atimizning xalqaro e’tirofga sazovor bo‘layotganidan dalolatdir;

Moskvadagi zamonaviy san’at festivallari, Turkiya, Qozog‘iston, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarda o‘tkazilayotgan biennalelar, ko‘rgazmalar va simpoziumlarda o‘zbekistonlik rassomlarning ishtiroki tobora ortmoqda;

Parij, London, Berlin, Tokio, Pekin, Dubay kabi san’at markazlarida o‘tkazilgan xalqaro ko‘rgazmalarda o‘zbek san’atkorlarining ishtiroki ularning global maydondagi o‘rnini mustahkamlab bormoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy o‘zbekistonlik rassomlar o‘z **asarlarida madaniy meros va an’anaviy san’at shakllari**ni yangi talqinda, zamonaviy g‘oya va texnikalar bilan uyg‘unlashtirishga intilmoqdalar. Masalan, miniatyura elementlari, naqsh san’ati, xalq hunarmandchiligi namunalaridan ilhomlangan holda yaratib borilayotgan yangi uslubdagi asarlar milliy san’atning zamonaviy talqini sifatida qaralmoqda.

Bundan tashqari, mustaqil san’at loyihalari, xususiy galereyalar, san’at maktablari, rassomlar studiyalari, tanlovlar, xalqaro san’at rezidensiyalari orqali yosh rassomlar o‘z ijodlarini namoyon qilish, xorijiy tajribalarni o‘rganish va almashish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

Xulosa

O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’ati o‘zining qadimiy tarixiy ildizlari, chuqur estetik an’analari va milliy o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu san’at turlari asrlar davomida xalqimizning ma’naviy dunyoqarashi, estetik didi va hayotga bo‘lgan qarashlarining ifodasi sifatida shakllangan. Ayniqsa, qadimiy davrlardan boshlab, islom sivilizatsiyasi ta’sirida rivoj topgan miniatyura, naqsh va amaliy bezak san’ati namunalarida xalqning betakror didi va madaniy qadriyatlari mujassam bo‘lgan.

Sovet davrida tasviriy san’at ko‘proq akademik realizm, siyosiy-ijtimoiy mavzular bilan uyg‘unlashgan holda rivojlandi. Bu davrda rassomlar orqali jamiyatda mavjud g‘oyalar va mafkura ifodalandi. Biroq, shu bilan birga, milliy ruh, o‘zbekona obrazlar, urf-odatlar va qadriyatlar ham yo‘qolib ketmadi – ular san’at asarlarida turli ramzlar va detallarda yashirin shaklda mavjud bo‘lib keldi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, san’atimizda yangi davr boshlandi. San’at erkinligi, milliy g‘urur va tarixiy xotirani tiklashga bo‘lgan intilish san’atkorlarga o‘z ijodida milliy mavzular, tarixiy siymolar, xalq og‘zaki ijodi va qadimiy manzaralarni yangicha talqinda ifodalash imkonini berdi. Tasviriy va amaliy san’atda milliylik va zamonaviylik uyg‘unlashib, yangicha uslub va shakllar paydo bo‘ldi. Ayniqsa, hunarmandchilik sohasining tiklanishi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida amaliy san’at xalqaro maydonda o‘zining munosib o‘rnini egalladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston san’ati jadal rivojlanmoqda. Zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan rassomlar endi nafaqat bo‘yoq va tuvalda, balki raqamli platformalarda, multimedia loyihalarda, installyatsiya va performanslarda ham o‘z g‘oyalarini ifodalayapti. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, Toshkent arxitektura va qurilish instituti kabi ta’lim muassasalari yosh ijodkorlar uchun bilim va tajriba manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston san’atkorlarining Venetsiya biennalasi, Moskva, Parij, London, Dubay kabi shaharlardagi xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etayotgani san’atimizning xalqaro miqyosdagi e’tirofga sazovor bo‘layotganini isbotlaydi. Milliy an’analarni zamonaviy yondashuv bilan uyg‘unlashtirgan holda yaratilgan asarlar xalqaro san’at ixlosmandlari tomonidan yuksak baholanmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’ati bugun nafaqat o‘z tarixiy merosining davomchisi, balki **milliy g‘urur va madaniy yuksalishning timsoli,** xalqaro maydonda esa **xalqimiz madaniyatining elchisi** sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu san’at orqali o‘zbekistonlik rassomlar butun dunyoga xalqimizning ma’naviy olami, go‘zallik haqidagi tasavvurlari, hayotga bo‘lgan estetik munosabati va ijodiy salohiyatini namoyon etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

24. Amanullaev, A. A. (2022). CURRENT ISSUES IN THE TRAINING OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(03), 1-3.

25. Абдимуминова, Д. А., & Амануллаев, А. А. (2018). Использование традиций этики" устоз-шогирд"(мастер и ученик) на занятиях прикладного искусства. *NovaInfo. Ru*, *2*(85), 203-206.

26. Abdumo‘minovich, A. A. (2023). QADIMDA USTALARNING SHOGIRD TAYYORLASHDA O’ZIGA XOS MILLIY ANANAVIY ASOSLARI. *Journal of Universal Science Research*, *1*(5), 1440-1447.

27. ABDUMO‘MINOVICH, A. A. (2023). BO’LG’USI TASVIRIY SAN’AT O’QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA HOZIRGI DAVR DOLZARB MASALALARI. *Journal of Universal Science Research*, *1*(5), 1423-1429.

28. Sodiq, AM (2022). TASVIRIY SAN’AT ASARLARIDA KOPOZİTsiyaNING BADDIY QIMMATINI TAHLIL VA TASHRIB BERA VA O’QUVCHILARNING BADDIY Idrok HAQIDAGI BILIMLARINI OSHIRISH. *XALQARO JURNALI IJTIMOIY FAN VA INTERDISPLINAR RESEARCH ISSN: 2277-3630 Ta'sir faktori: 7.429* , *11* (03), 149-151.

29. Sodiq, A. M. (2023). BOLAJAK TASVIRIY SANAT OQITUVCHILARIDA BADIIY-IJODIY MAHORATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MANZARA JANRIDAN FOYDALANISH USULLARI. *Journal of Universal Science Research*, *1*(5), 1430-1439..

30. Dildora, A. (2022). THE EMERGENCE OF SOME MODERN PROBLEMS IN THE FIELD OF ARCHITECTURE IN THE MODERN CONSTRUCTION OF ANCIENT CITIES RICH IN HISTORICAL MONUMENTS AND RELICS. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(02), 9-11.

31. Абдумуминов, М. А. Ў. (2022). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ПУТЕМ ИЗУЧЕНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ ХУДОЖНИКОВ-ЖИВОПИСЦЕВ. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, *1*(2).

32. Abdinabi, A. (2024). THE COMPOSITIONAL STRUCTURE OF THE WORKS OF ARTISTS WHO CREATED STILL LIFE IN PAINTING IS THEIR SCIENTIFIC ANALYSIS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *18*(01), 17-21.

33. Dildora, A. (2024). TEACHING COMPOSITION TO STUDENTS IN FINE ART EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND DEVELOPING ARTISTIC AND CREATIVE THINKING AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *18*(01), 22-27.

34. Abdinabi, A. (2024). THE COMPOSITIONAL STRUCTURE OF THE WORKS OF ARTISTS WHO CREATED STILL LIFE IN PAINTING IS THEIR SCIENTIFIC ANALYSIS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *18*(01), 17-21.

35. Sadiq, A. M. (2024). STUDYING THE STAGES OF THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF THE LANDSCAPE GENRE AND ITS IMPORTANCE IN THE DEVELOPMENT OF THE ARTISTIC AND CREATIVE SKILLS OF FUTURE VISUAL ARTS TEACHERS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *18*(01), 28-32.

36. Ubaydullayev, M. A. (2023). DEVELOPMENT AND POPULARIZATION OF METHODS OF TEACHING STUDENTS OF THE DIRECTION OF FINE ARTS THROUGH INFORMATION TECHNOLOGY. *Евразийский журнал академических исследований*, *3*(2), 166-169.

37. Pulatov, D., & Ubaydullaev, M. (2023). FORMATION OF NEW CREATIVE DIRECTIONS IN MODERN FINE ART OF UZBEKISTAN. *Solution of social problems in management and economy*, *2*(2), 34-39.

38. Убайдуллаев, М. А. (2022). ПРОБЛЕМА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЗАРУБЕЖНОЙ ПЕДАГОГИКИ. *Science and innovation*, *1*(JSSR), 177-182.

39. Saymamutovich, P. D., & Akhmadjonovich, U. M. (2023). THE END OF THE 20TH CENTURY THE BEGINNING OF THE 21ST CENTURY UZBEKISTAN MAGNIFICENT SCULPTURE. *Open Access Repository*, *4*(2), 102-107.

40. Убайдуллаев, М. А. (2022). КОМПОЗИЦИЯ АСОСЛАРИНИНГ ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИДА ҚУЛЛАНИЛИШИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(12), 329-332.

18.Ahmedbekova, M. (2024). Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilar bilimini oshirishning pedagogik va innovatsion jihatlari. Ижтимоий-Гуманитар Фанларнинг Долзарб Муаммолари / Актуальные Проблемы Социально-Гуманитарных Наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 4(9). https://doi.org/10.47390/spr1342v4i9y2024n51

19.Gulomova, N., Abdusalomova, X., & Abdusalomova, M. (2021). Yosh avlodni tarbiyalashda amaliy san’at ta’limining o‘rni va ahamiyati.. https://doi.org/10.36074/logos-01.10.2021.v2.33

20.Mamurov, S. (2024). Turizmda raqamli marketing xizmatlarining ahamiyati va ulardan samarali foydalanish istiqbollari. Kokand University Herald, 12, 15-19. https://doi.org/10.54613/ku.v12i.980

21.Mo‘minov, X. and Qodirjonov, O. (2024). O‘zbekiston respublikasida sud qonunchiligiga kiritilgan o‘zgarishlar va ularning ahamiyati. Ижтимоий-Гуманитар Фанларнинг Долзарб Муаммолари / Актуальные Проблемы Социально-Гуманитарных Наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 4(S/2). https://doi.org/10.47390/spr1342v4si2y2024n04

22.To‘xtamisheva, F. (2024). Mustaqillik yillarida qashqadaryo vohasi kashtado‘zligida o‘zgarishlar. Ижтимоий-Гуманитар Фанларнинг Долзарб Муаммолари / Актуальные Проблемы Социально-Гуманитарных Наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 3(12/1). https://doi.org/10.47390/sp1342v3i12.1y2023n21

23.Amanullaev, A. (2022). SPECIFIC FACTORS OF COMPREHENSIVE STUDY AND ANALYSIS OF THE HISTORY AND CULTURE OF THE UZBEK PEOPLE. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(02), 1-4.

G’urumsaroy kulolchilik maktabi va uni O`zbekiston kulolchiligida tutgan o`rni .G’urumsaroy kulolchilik maktabini vujudga kelishi, usta kulollar.

Yusupjanov Qudrat Qodirjonovich

Qodirjonovich22@gmail.com

Namangan davlat universiteti

@https://namdu.uz.

Pedagogika fakulteti “San’atshunoslik”kafedrasi o’qituvchisi

Annotation:. Ushbu maqolada Namangan viloyatining Pop tumanida joylashgan mo``jazgina G’urumsaroy qishlog’i O`rta Osiyoda xalq kulolchilik san`atining mashhur markazlaridan biri haqida qisqacha yoritilib berildi. G’urumsaroy kulolchiligining qachon vujudga kelgani ilmiy jihatdan to`la asoslanmagan bo`lsada o`tgan asrlarda yaratilgan bugungi muzey eksponantlariga asosan ko`hna sopolchilik namunalari bu yerda kulolchilik san`atining qadimdan mavjudligini tasdiqlagani haqida ochib berildi.

Keywords: kulolchilik,charx,angob,haykal,buyum,loy,mato.

Kirish.: Namangan viloyatining Pop tumanida joylashgan mo``jazgina G’urumsaroy qishlog’i O`rta Osiyoda xalq kulolchilik san`atining mashhur markazlaridan biri hisoblanadi.

G’urumsaroy Respublikamizning qo`hna kulolchilik o`choqlaridan biridir. Uning bir tomoni Chotkol va Qurama tog’ etaklariga tutashib ketgan. Ikkinchi tomonidan Sirdaryo oqadi. So`lim qishloq havosining musaffoligi kishiga huzur bag’ishlaydi. G’urumsaroyning ulkan boyligi sariq moyli tuproqdir. Bu tuproq nafis sopol buyumlar yasashda muhim ahamiyatga ega. Avvallari qishloqning

aholisining qarayib barchasi kulolchilik bilan kun kechirgan[11]. G’urumsaroy kulolchiligining qachon vujudga kelgani ilmiy jihatdan to`la asoslanmagan bo`lsada o`tgan asrlarda yaratilgan bugungi muzey eksponantlariga asosan qo`hna sopolchilik namunalari bu erda kulolchilik san`atining qadimdan mavjudligini tasdiqlaydi.

Material va metodlar: Asrimizning boshlarida yashab ijod etgan Usta Kenja Sotim tovoqchi, Raxim tovoqchi, Turop tovoqchi, Otajon tovoqchi kabi nomini xalq xanuzgacha xurmat bilan tilga oladi. Ular yasagan tovoq, lagan, qo`shquloq, kosa singari bejirim sopol idishlar xonadonlarda avaylab saqlanib kelinmoqda.

Natijalar taxlili: G’urumsaroy qishlog’i yurtimizda kulolchilik an`analarini davom ettirib kelayotgan va ko`plab usta kulollar etishib chiqqan qadimiy joy hisoblanadi. Shuningdek, vodiyda ikkinchi bo`lgan G’urumsaroy kulolchilik maktabiga manbaalarda yozilishicha, usta Ko`ki degan odam 1700 yillarda kelib, shu erda yashab kulolchilikka asos solgan. Bunga qishloq tuprog’ining tozaligi, olovga, o`ta chidamliligi, havosini tozaligini asosiy sabab bo`lgan.

Usta Ko`ki kulolchiligini uzoq yillar davom etishiga sababchi bo`lgan ustalar Usmon, Diyor, To`xta buva, Xokim tavoqchi, Turob tavoqchi, Sodiq kulol, usta Soti, usta Xayitboy, usta Maxmud, Maqsud tavoqchilar G’urumsaroy kulolchilik maktabining ham davomchilari sanaladilar. Ular qo`lida sayqal topgan barkash, nimbarkash, nimtavoq, damtovoq, qaymoqdan, kosa, piyola, qo`shquloq, katta ko`zalagancha kabi kulolchilik buyumlari bejirimligi, ranglarining tiniqligi va qulayligi bilan dovrug’ qozongan. Bu ustalarning ayrimlari haqida qisqa ma`lumotlarni keltiramiz[12].


[11] Abduvaxobova Sevara Alisher Qizi (2022). TEMA« SOVERShENSTVOVANIYe ZANYaTIY IZOBRAZITELbNbIM ISKUSSTVOM I RAZVITIYe SPOSOBNOSTEY UChAЩIXSYa». Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1 (2), 104-107. Doi: 10.5281/zenodo.7182013

[12] Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. S. O. (2020). Development Of Students' Descriptive Competencies In Pencil Drawing Practice. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, *2*(08), 261-267.

Xokim-tovoqchi va Xokim buva deb el ardoqlagan Xokim Satimov 1902 yilning 10 mayida G’urumsaroy qishlog’ida tavallud topgan. Amakisi Turop tovoqchidan kulolchilik sirlarini egallagan sobiq Ittifoq davrida yashab ijod qilgan Xokim-tovoqchi Moskva, Sankt-Peterburg, Pol’sha, Olmoniya, Frantsiya, Avstraliya, Chesovlovakiya, Yugoslaviya kabi qator shaharlar va davlatlarda ko`rgazmalarda qatnashgan birinchi G’urumsaroylik ustalardan hisoblanadi.

1974 yildan Sobiq Ittifoq Rassomlar uyushmasi a`zosi bo`ldi. 1980 yildan Xalq ustasi unvoniga sazovor bo`lgan. Sobiq Ittifoqning ko`plab diplom va faxriy yorliqlari, medallar sohibi. Ustaning o`ziga xos tomonlari yasagan buyumlarining shakli jihatidan kattaligi, naqshlari yo`g’on olinishi va ranglarning to`q holatda qo`llashida namoyon bo`ladi. U ko`proq barkash, xum, kuza, xurma, damtovoq kabi katta hajmli buyumlar yasagan. Pishirish uslubida esa uzoq muddat davomida o`t qalashi bilan ajralib turgan.

Namangan viloyati Pop tumani G’urumsaroy kulollari shajarasi



Активация Wind
Чтобы активировать
раздел "Параметры".

Xokim-tovoqchining eng asosiy xizmati qadimgi, an`anaviy G’urumsaroy kulolchilik sir-asrorlarini farzandi Xayitboy Satimovga o`rgatish bilan bir qatorda o`z san`atini dunyoga mashhur qilganligidadir.

Xokimov-tovoqchi Xokim buvaning to`ng’ich farzandi bo`lib, u 1928 yil 23 martda G’urumsaroyda tavallud topgan. U an`anaviy xalq maktabi sanalmish uztoz-shogird maktabini otasi Xokim Satimovdan oldi[13]. Otasining yordamchisi bo`lgan Xayitboy juda erta usta bo`lib etishdi. Uning otasi buyumni yasash va pishirish uslubi bir xil bo`lgan, biroq buyumlar bezashda tubdan farq qilgan. Ranglarni och rangda bergan, xoshiya chiziqlari nozikligi bilan ajralib turgan. SHakli jihatidan ham u yasagan buyumlar otasi Xokim-tovoqchi buyumlaridan kichikligi bilan farq qiladi.

1986 yildan sobiq Ittifoq Rassomlar uyushmasi a`zosi bo`ldi. Xalq ustasi unvoni berildi. U ham Sobiq Ittifoqning ko`plab diplom va faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan. Moskva, Sankt-Peterburg shaharlari ko`rgazmalarida faol qatnashgan. Pol’sha Olmoniya, Frantsiya, Avstraliya, CHexoslovakiya, YUgoslaviya kabi qator davlatlarda ham ko`rgazmalarda faol ishtirok etgan.

1974 yili Qo`qonda o`tkazilgan xalq san`atiga doir Sobiq Ittifoq konferentsiyasi O`zbekiston xalq san`atining, shu jumladan, Farg’ona vodiysi kulolchiligini yanada yuksalishida katta ahamiyatga ega bo`ldi. 70-yillar o`rtasidanoq respublika Sobiq Ittifoq va xalqaro ko`rgazmalarda ota-bobolari kasbini davom ettiruvchi kulol Hakim Sotimovning ijodiga mansub G’urumsaroyning nihoyatda go`zal oq-zangori tusli buyumlari namoyish etila boshlandi. Ustaning ijodi Frantsiya va Italiyada o`tkazilgan xalqaro keramika konkurslari tomoshabinlarini hayratga soldi.

13 oglu Sharipjonov, M. S. OLIY PYEDAGOGIK TA’LIMDA TALABALARGA MUAMMOLI MASHG’ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI.

O`tmishda dong taratgan kulolchilik markazi 60-yillarga kelib putur eta boshladi, kulollar o`z ishlarini yig’ishtirdilar, ularning aksariyati bu hunarning zarurligi va ijtimoiy jihatdan foydali ekanligiga bo`lgan ishonch yo`qoldi. Ushbu san`atni davom ettiruvchilarni topish nihoyatda mushkul bo`lib qoldi.

XX asr oxirlarida G’urumsaroyda uch kulol – Mahmud Rahimov, Maqsudali Turopov va Hakim Sotimovning o`g’li Hayitboy Hakimovlar ijod qilishgan. Ular G’urumsaroyning kulolchilik an`alariga amal qilganlar. Bu erda Farg’ona maktabining an`analari ko`p darajada saqlanib qolgan. G’urumsaroylik kulollar ijodida o`ziga xoslik buyumlar shaklini rivojlantirishga hamda badiiy kompozitsiyalarni yangilashga intilish bilan uyg’unlashgan[14].

G’urumsaroyda yashagan uchala usta ham kulollarning bitta sulolasidan kelib chiqqan. Maxmud Hakimovnig aytishicha o`tgan asrning boshlarida yashagan Usta Ko`ki bu sulolaning asoschilaridan biri bo`lgan. Kulollar bir-biriga yaqin qarindosh, ya`ni Maqsudali Turopov va. Maxmud Hakimov esa amakivachcha bo`lganlar.

Raximov Mahmudjon 1928 yil 8 martda G’urumsaroyda tavallud topgan. U ham kulollar sulolasining davomchisi bo`lgani sababli yoshligidanoq otasi usta Raxim-tavoqchidan kulolchilik sirlarini o`rgana boshladi, biroq otasining hayotdan bevaqt o`tishi Maxmud Raximovni usta Kenja qo`lida tahsil olishiga sabab bo`ldi.

Usta Maxmudjon Raximov esa “G’urumsaroy moviy keramikasi” maktabining asoschisi. Uning bu boradagi ishlari yuqori baholanib, O`zbekiston keramikasining eng yaxshi namunasi sifatida Italiyaning Fazine shahridagi muzeyga qo`yilgan.

[14] Mirzahamdamovna, QB (2022). BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILARIDA BADIIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHGA AMALIY SAN'ATNING O'RNI. *SARQ UYGLANISHI: INNOVATSION, TA'LIM, TABIY VA IJTIMOIY FANLAR ILMIY JURNALI* .

1975 yilda Sobiq Ittifoq Rassomlar uyushmasi a`zosi bo`ldi. Rossiyaning ermitaj muzeyida hozirga qadar uni qo`lida sayqal topgan buyumlar saqlanib kelinadi. U ham ko`plab davlatlarda ko`rgazmalarda ishtirok etgan G’urumsaroylik ustalar sulolasining yirik vakili sanaladi.

Maxmud Raximov yasagan buyumlar naqsh kompozitsiyasi aniqligi bilan ajralib turadi. Tovoqlardagi naqsh kompozitsiyani uchta asosiy guruhga ajratish mumkin.

1. Ikki yonida novda tasvirlangan qumg’on tasviri;
2. Xochsimon katta naqsh;
3. Uncha katta bo`lmagan chorbarg.

Usta buyumlari o`zining har xil shakli bilan ajralib turadi. Buyumlari an`anaviy tarzda ishlangan bo`lib, bir qarashda yangilik sezilmaydi, biroq o`ziga xoslik sezilib turadi.

Maxmud Rahimov asarlari uchun bezakning monumental oydinligi va soddaligi xosdir. Bu buyumlarda motivlar doirasi cheklangan, kompozitsiyalar juda oddiy – ko`p qavatli sxemalar yo`q: faqat markaziy qism va hoshiyalarda jo`n naqshlar berilgan[15]. Yuzali idishlarning markaziy qismida asosan uchta motiv variatsiyalarini uchratamiz – qumg’on yoki choydish, chorbarg va uchlari kengayib boruvchi butsimon naqsh tasvirlari, hoshiya ornamentining ko`rinishlari ham ko`p emas. Shunga qaramay uning asarlari katta joziba kuchiga ega. Ular nafis zangori kolorit go`zalligi bilan ham, idish va kosalar shakliga nihoyatda uzviy ravishda birlashib ketgan odmi naqshning kamsuqumligi bilan ham o`ziga jalb etadi. Turg’un motivlardan ustalik bilan foydalana olishda kulollik mahorati namoyon bo`lgan.

[15] Abdinabi, A. va Rayhona, T. (2024). Tasviriy san'at turlari va janrlarida badiiy ijod asoslarining o'ziga xos xususiyatlari. *Web of Teachers: Inderscience Research* , *2* (3), 219-228

Maqsudali Turopov 1928 yil G’urumsaroyda tavallud topdi. Xayitboy Xokimov bilan amakivachcha bo`lgan usta ham mashhur kullollar sulolasining eng so`nggi va eng yirik vakili sanaladi.

Maqsudali Turopovga xos bo`lgan jihatlar buyumlarni bezash va shakllarni tanlashdagi katta erkinlikda namoyon bo`ladi. U katta laganlar (diametri yarim metrli), o`rtacha hajmdagi kosa va yuzali idishlar, qo`sh-quloqlar kabi xilma-xil idishlar yasagan. Uning ijodida o`ziga xoslikka intilishni kuzatmaymiz, balki an`anaviy ishlash jarayonini o`z xolicha talqin etishini ko`ramiz[16].

Polsha Olmoniya, Frantsiya, Avstraliya, CHexoslovakiya, YUgoslaviya, Amerika, Turkiya kabi qator davlatlarda ko`rgazmalarda faol qatnashgan. SHu davlatlarning muzeylari va shaxsiy kollektsiyalarda ishlari saqlanib kelinmoqda.

1997 yili O`zbekiston Badiiy Akademiyasi ijodkorlar uyushmasi a`zosi bo`lgan xalq ustasi Maqsudali Turopovning eng katta xizmati unitilib ketish xavfi tug’ilgan G’urumsaroy kulolchilik san`ati sirlarini shogirdlariga o`rgatib ketganligidir. Boshqa ustalardan keyin ularning shogirdlari ko`rgazmalarda ishtirok etmay qo`ygan bo`lsa, Maqsudali Turopov shogirdlari esa ijod qilib kelmoqdalar. Ustaning o`gitlari bois kulolchilik san`ati o`zining davomchilari qo`lida sayqal topmoqda.

Xiva, Samarqand, Buxoro shahridagi qadimgi obidalar qish chillasida, yomg’ir, qor, shamol, xatto yoz oyining jazirama issig’ida ham o`z rangini yo`qotmaydi. G’urumsaroyning, kulolchilik buyumlari ham ana shunday xususiyatga ega. Buni siri g’urumsaroylik kulollar buyumlarni tayyorlashda bo`yoqlarga o`zlari tayyorlagan maxsus ishqor qo`shishadi. Qishloq yon-atroflarida “Qirqbo`g’in”, “Go`lak” kabi o`simliklarni pishganida terib olib,

16 Winetsky, D. E., Negoescu, D. M., DeMarchis, E. H., Almukhamedova, O., Dooronbekova, A., Pulatov, D., ... & Goldhaber-Fiebert, J. D. (2012). Screening and rapid molecular diagnosis of tuberculosis in prisons in Russia and Eastern Europe: a cost-effectiveness analysis. *PLoS medicine*, *9*(11), e1001348.

quritiladi. Quritilgan giyohni olovda yoqib, kuli xumdonda eritiladi. Hosil bo`lgan eritma, ezib, oq toshga qo`shib, suvga aralashtiriladi. Tayyor bo`lgan eritma idishga solib tindiriladi. U ishqorga aylanadi. Ana shu ishqor tufayli yuz yillar davomida bo`yoqning ranggi o`chmaydi.

G’urumsaroy kulolchilik maktabi davomchisi Turob tavoqchining o`g’li Maqsud tavoqchi bo`lib, u shu maktabni saqlanib qolishida muhim o`rin tutadi. Uning qilgan ishlari yuqori baholanib, YUNESKO tomonidan “Jahon ustasi” sertifikati berilgan. O`zbekistonda hamda sobiq ITTIFOQ rassomlar uyushmasining a`zoligiga qabul qilingan.

G’urumsaroylik kulollar ishqorli sir bo`yoq olish uchun zarur “gulak” o`tini yig’ishdan tortib, qo`lda qoliplash va naqsh chizishgacha bo`lgan barcha ishlarni faqat an`anaviy usulda bajarganlar. Ana shunday universallik G’urumsaroy kulollarining ijodini belgilovchi qadimiy xususiyatdir.

Xulosa: Xulosamizni yakunlar ekanmiz G‘urumsaroy kulolchilik maktabi o‘zining yuqori sifatli mahsulotlari, rang-barang naqshlari va an'anaviy uslublari bilan ajralib turadi. Bu san'at nafaqat o‘zining milliy merosini, balki vaqt o‘tishi bilan zamonaviy kulolchilik san’ati bilan ham uyg‘unlashgan. G‘urumsaroy kulolchiligining buyumlari o‘ziga xos va yuksak badiiy qiymatga ega bo‘lib, bugungi kunda ham O‘zbekistonning kulolchilik an'analari va san'ati tarixida muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abduvaxobova Sevara Alisher Qizi (2022). TEMA« SOVERShENSTVOVANIYe ZANYaTIY IZOBRAZITELЬNЫM ISKUSSTVOM I RAZVITIYe SPOSOBNOSTEY UChAIЩIXSYa». Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1 (2), 104-107. Doi: 10.5281/zenodo.7182013.

2. Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. S. O. (2020). Development Of Students' Descriptive Competencies In Pencil Drawing Practice. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, *2*(08), 261-267.
3. oglu Sharipjonov, M. S. OLIY PYEDAGOGIK TA’LIMDA TALABALARGA MUAMMOLI MASHG’ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI.
4. Mirzahamdamovna, QB (2022). BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILARIDA BADIIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHGA AMALIY SAN'ATNING O'RNI. *SARQ UYGLANISHI: INNOVATSION, TA’LIM, TABIY VA IJTIMOIY FANLAR ILMIY JURNALI* .
5. Abdinabi, A. va Rayhona, T. (2024). Tasviriy san'at turlari va janrlarida badiiy ijod asoslarining o'ziga xos xususiyatlari. *Web of Teachers: Inderscience Research* , *2* (3), 219-228.
6. Winetsky, D. E., Negoescu, D. M., DeMarchis, E. H., Almukhamedova, O., Dooronbekova, A., Pulatov, D., ... & Goldhaber-Fiebert, J. D. (2012). Screening and rapid molecular diagnosis of tuberculosis in prisons in Russia and Eastern Europe: a cost-effectiveness analysis. *PLoS medicine*, *9*(11), e1001348.

KULOLCHILIK AN'ANAVIY USULLARINING ZAMONAVIY INTERYER DIZAYNDA TALQINI

Andijon davlat universiteti “Tasviriy va amaliy san’at” kafedrasi o’qituvchisi
Qutbiddinov Hikmatillo Qudratillo o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada an'anaviy kulolchilik usullari va ularning zamonaviy interyer dizayniga integratsiyasi tahlil qilinadi. Maqolada an'anaviy hunarmandchilik uslublari orqali zamonaviy estetikani boyitish, meros va innovatsiyaning uyg‘unligini yaratish imkoniyatlari yoritilgan. Sifat tahlili asosida tarixiy va zamonaviy dizayn namunalari tahlil qilinib, kulolchilikning hozirgi davrda ham dolzarbligi va moslashuvchanligi ko‘rsatib beriladi. Tadqiqotda interyerda muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgan kulolchilik elementlari, xususan, faktura, rang va shakllar aniqlanib, ularning makon xarakteri va identitetiga qo‘shayotgan hissasi yoritilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, an'anaviy kulolchilik texnikalarini interyer dizayniga tatbiq etish orqali estetik go‘zallik va madaniy qadriyatlar uyg‘unligi ta’minlanadi.

Kalit so‘zlar: an'anaviy kulolchilik, interyer dizayn, zamonaviy estetika, madaniy meros, zamonaviy talqin.

Abstract: This article analyzes traditional pottery techniques and their integration into contemporary interior design. It highlights how traditional craftsmanship methods enrich modern aesthetics, creating a unique blend of heritage and innovation. Through qualitative analysis, examples from both historical and contemporary designs illustrate pottery’s adaptability and relevance in modern settings. The study identifies key pottery elements effectively used in interiors, including texture, color, and form, contributing significantly to spaces' character and identity. Results indicate that integrating traditional pottery techniques enhances both aesthetic appeal and cultural value in interior spaces, offering designers and architects novel ways to foster cultural continuity within modern contexts.

Keywords: traditional pottery, interior design, contemporary aesthetics, cultural heritage, modern interpretation.

Kirish

Kulolchilik san'ati insoniyatning eng qadimiy san'at turlaridan biri bo‘lib, madaniyat, tarix va estetik qadriyatlarning muhim ifodasidir. Insoniyat dastlabki davrlardan buyon tabiiy resurslardan foydalanib, kundalik ehtiyojlarini qondirish

uchun sopol idishlar va boshqa turli xil buyumlar yaratgan. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qadimgi Mesopotamiya, Misr, Xitoy va Oʻrta Osiyo hududlarida kulolchilik buyumlari nafaqat amaliy vosita sifatida, balki madaniy-ma'naviy ramz sifatida ham keng qo'llanilgan. Tarixiy manbalarga koʻra, kulolchilik mahsulotlarining shakli, naqshlari va ishlab chiqarish texnikasi xalqlarning oʻziga xos madaniy belgilarini aks ettirgan.

Zamonaviy davrda kulolchilik an'anaviy uslublarining interyer dizaynidagi talqini ushbu qadimiy san'atning yangicha shaklda qayta tug'ilishini ta'minlamoqda. Bugungi kunda kulolchilik mahsulotlari dizayn san'atida nafaqat dekorativ, balki madaniy va ekologik jihatdan ham e'tiborni jalb qilmoqda. Ayniqsa, insonlarning ekologik barqarorlik va tabiiy resurslardan samarali foydalanishga intilishi natijasida kulolchilik mahsulotlariga boʻlgan qiziqish yanada ortmoqda. An'anaviy kulolchilik usullarining texnologik jihatdan oddiyligi, tabiiy va ekologik materiallardan foydalanilishi zamonaviy dizaynerlar uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda.

Oʻzbekiston hududidagi kulolchilik san'ati oʻziga xos tarixga ega boʻlib, ayniqsa Rishton, Gʻijduvon, Samarqand va Xiva kabi qadimiy shaharlar bu san'atning rivojlanishida muhim rol oʻynagan. Bu hududlarda yaratilgan kulolchilik mahsulotlari oʻziga xos naqsh va texnologik uslublari bilan ajralib turadi. Bugungi kunda ham ushbu hududlardagi kulollar tomonidan qo'llanilayotgan an'anaviy texnikalar zamonaviy interyer dizaynida keng qo'llanmoqda. Ayniqsa, milliy va an'anaviy naqshlar bilan bezatilgan sopol idishlar, dekorativ plitkalar va devor panellari interyerlarda milliy madaniyat va tarixiy merosni aks ettirishda samarali vosita boʻlib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy interyer dizaynining asosiy vazifalaridan biri – bu yashash muhitini estetik jihatdan boyitish bilan birga, madaniy va tarixiy xotirani ham saqlab qolishdir. Bu vazifani amalga oshirishda an'anaviy kulolchilik mahsulotlarining ahamiyati beqiyos. Chunki kulolchilik mahsulotlari orqali odamlar oʻzining tarixiy va madaniy ildizlari bilan yanada chuqurroq bogʻlanish imkoniyatiga ega boʻladilar. Shu bilan birga, interyerda kulolchilik mahsulotlarining qoʻllanilishi vizual jihatdan ham jozibadorlikni oshirib, yashash muhitining psixologik qulayligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Material va metodlar

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tarixiy va zamonaviy kulolchilik namunalarining chuqur tahlilini ta’minlovchi qiyosiy-tahliliy usul tanlandi. Ushbu metod turli davrlarga oid kulolchilik buyumlarini interyer dizaynidagi qoʻllanilishi

jihatidan tizimli tarzda oʻrganishga imkon yaratdi. Tadqiqot jarayonida, avvalo, kulolchilik san'atining tarixiy rivojlanish bosqichlarini oʻrganishga alohida e'tibor berildi. Xususan, qadimgi Osiyo, Oʻrta Sharq va Yevropa hududlarida yaratilgan kulolchilik mahsulotlarining ishlab chiqarish texnologiyasi, dizayni va madaniy xususiyatlari ilmiy adabiyotlar hamda arxeologik tadqiqotlar natijalari orqali batafsil koʻrib chiqildi. Tadqiqotda foydalanilgan manbalar orasida tarixiy yozuvlar, madaniy tadqiqotlar, etnografik hujjatlar va ilmiy maqolalar mavjud boʻlib, ushbu manbalardan olingan ma'lumotlar ilmiy jihatdan asoslangan xulosalar qilish imkoniyatini berdi.

Ikkinchi bosqichda, zamonaviy interyer dizaynida kulolchilik buyumlarining integratsiya usullari va imkoniyatlarini aniqlash maqsadida amaliy va eksperimental tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqot uchun Andijon, Rishton, Samarqand kabi an'anaviy kulolchilik markazlarida yaratilgan zamonaviy va tarixiy uslubdagi sopol buyumlar tanlab olindi. Ushbu namunalar foto va videomateriallar orqali hujjatlashtirilib, keyinchalik vizual tahlil orqali batafsil oʻrganildi. Bundan tashqari, interyer dizaynerlari, arxitektorlar va kulolchilik san'ati ustalari bilan ekspert intervyulari o'tkazilib, sohaning amaliy jihatlari yuzasidan ilmiy-ma'rifiy munozaralar tashkil etildi. Intervyular davomida olingan ma'lumotlar sifat va mazmun jihatidan chuqurroq tahlil qilindi va tizimlashtirildi. Ekspertlarning fikr-mulohazalari interyer dizaynida kulolchilik elementlarining oʻziga xos jihatlari va qoʻllanilishi boʻyicha amaliy yechimlar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Yigʻilgan materiallar va oʻtkazilgan tahlillar asosida interyer dizaynida kulolchilik buyumlarini samarali integratsiya qilish usullarini aniqlovchi asosiy parametrlar ishlab chiqildi. Bular jumlasiga mahsulotlarning shakli, rangi, teksturasi va naqshlarining zamonaviy dizayn kontseptsiyalari bilan muvofiqligi kiritildi. Shuningdek, eksperimental metod orqali zamonaviy interyerlarda kulolchilik mahsulotlarining vizual estetik va funksional samaradorligi sinovdan o'tkazildi. Tadqiqot davomida olingan natijalar zamonaviy dizayn talablariga mos keladigan sopol mahsulotlar turlarini va ularning qoʻllanilish shakllarini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, kulolchilik san’atining an’anaviy texnikalari zamonaviy interyer dizaynida muvaffaqiyatli qoʻllanilmoqda va bu holat estetik, funksional va madaniy jihatdan muhim oʻzgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Interyer muhitida kulolchilik mahsulotlarining qoʻllanilishi

makonning umumiy atmosferasiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, dizaynga o‘ziga xoslik, iliqlik va tabiiylik bag‘ishlaydi. Tahlillarga ko‘ra, sopol buyumlar bilan bezatilgan interyerlarda vizual tafovut kuchayadi, bu esa ayniqsa minimalistik yoki skandinav uslubidagi dizayn konsepsiyalarida o‘z aksini topadi. Gil asosidagi mahsulotlarning yorug‘lik bilan o‘zaro ta’siri, ayniqsa sirt fakturasidagi mikrorelieflar orqali yorug‘likning sinishi va sochilishi fazoda vizual dinamika hosil qiladi.

Bu holat interyerda fazoviy chuqurlikni kuchaytirish, psixologik ravishda xotirjamlikni ta’minlash va insoniy sezgirlikni uyg‘otish kabi natijalarga olib keladi. Tadqiqot davomida kulolchilik mahsulotlarining turli funksional yo‘nalishlarda, xususan, yoritgichlar, panellar, devor mozaikalari va mebel elementlari sifatida muvaffaqiyatli qo‘llanilishi aniqlandi. Sopol materiallarning tabiiy tarkibi ularning ekologik xavfsizligini kafolatlab, zamonaviy dizaynning barqarorlik tamoyillariga mos kelishini ko‘rsatadi. Interyer dizaynerlari orasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida, sopol buyumlarning dizaynga qo‘shgan hissasi, ularning psixologik ta’siri va foydalanuvchi ehtiyojlariga mosligi yuqori baholangan. Milliy naqshlar va an’anaviy rang palitralari bilan bezatilgan kulolchilik mahsulotlari interyerga milliy identitet va madaniy xotira elementlarini kiritish imkonini beradi.

Ushbu yondashuv interyer dizaynini nafaqat zamonaviy estetika bilan boyitadi, balki madaniy qadriyatlarni jonlantirishga ham xizmat qiladi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, sopol elementlar interyerda kontrast, ritm va takroriylik prinsiplariga asoslangan kompozitsion uyg‘unlikni shakllantiradi. Bu esa fazoviy strukturaning yaxlitligiga xizmat qilib, makonda tafakkur va his-tuyg‘ular uyg‘unligini ta’minlaydi. Vizual tahlil jarayonida ko‘plab hollarda sopol elementlar interyerning markaziy e’tibor nuqtasiga aylangani kuzatildi. Bu holat foydalanuvchining diqqatini kerakli sohalarga jalb qilishga xizmat qiladi va interyerning funksional zonalarini belgilashda samarali vosita hisoblanadi. Eksperimental amaliyotlar davomida gil mahsulotlarining issiqlik izolyatsiyasi va akustik ta’siri ham ijobiy baholandi.

Bu jihatlar ayniqsa jamoat binolari, kutubxonalar va dam olish maskanlarida muhim texnik parametrlar sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqotda aniqlangan ijtimoiy-psixologik omillar ham kulolchilik elementlarining interyerga integratsiyasini kuchaytiruvchi vosita sifatida qayd etildi. Jumladan, foydalanuvchilar orasida nostalgiya, tarixiylik, milliy qadriyatlarga yaqinlik kabi hissiyotlar shakllangan interyerlarga bo‘lgan ijobiy munosabat kuchli ifodalangan. Bularning barchasi

kulolchilik mahsulotlarining interyer dizayni orqali ijtimoiy-madaniy xotirani tiklash va mustahkamlash vositasi sifatida qaralishiga asos bo‘ladi. Shu asosda tadqiqotdan quyidagi muhim xulosalar chiqarildi: kulolchilik mahsulotlari orqali yaratilgan interyerlar insonlar ongida madaniy ong va estetik idrokni uyg‘otadi; ular makon psixologiyasini optimallashtiradi va shaxsiylashtirish imkonini beradi. Ushbu natijalar kulolchilik san’atini zamonaviy interyer dizaynida innovatsion va konseptual yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, u kulolchilikning nafaqat amaliy, balki gumanitar, ijtimoiy va ekologik jihatdan ham dolzarb san’at turi sifatida qayta talqin etilishini ta’minlaydi.

Muhokama

Zamonaviy interyer dizaynida kulolchilik san'atining ahamiyati faqat bezak vazifasini bajarmaydi, balki madaniy identifikatsiya vositasi sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Bu holat kulolchilik mahsulotlari orqali interyerda tarixiy va madaniy xotirani jonlantirish, milliy qadriyatlarni estetik vositalar orqali uzluksiz tarzda aks ettirish imkonini beradi. Xususan, milliy uslubda tayyorlangan sopol buyumlar, naqsh va bezaklar bilan boyitilgan dekorativ elementlar turli xil dizayn kontseptsiyalarida madaniy belgilarni mujassamlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan qaralganda, kulolchilik buyumlari o‘zbek xalqining an’anaviy badiiy qarashlari va san’atga bo‘lgan estetik yondashuvini zamonaviy dizayn vositalari orqali qayta talqin etishga xizmat qiladi.

Kulolchilik mahsulotlarining interyer dizaynida qo‘llanilishi – bu faqatgina estetik yondashuv emas, balki ekologik va funksional ehtiyojlarga ham javob beruvchi yechimdir. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, gil va sopol mahsulotlarning inson salomatligiga zararsizligi, ularning atrof-muhitga do‘stona xususiyatlari, ularni barqaror dizayn tamoyillariga moslashtiradi. Shu bilan birga, sopol yuzalarning termal va akustik xususiyatlari ularni nafaqat uy-joylarda, balki jamoat binolari, kutubxonalar, muzeylar kabi keng jamoaviy makonlarda ham qo‘llash imkonini yaratadi. Bunday yondashuv orqali dizaynerlar nafaqat funksional, balki madaniy va hissiy jihatdan boy makonlar yaratishga muvaffaq bo‘ladilar.

Shuningdek, kulolchilik san’ati mahsulotlari bilan ishlash dizaynerlar uchun kreativ yondashuvlarni shakllantiradi. Har bir sopol mahsulotning o‘ziga xos fakturasi, formasi va estetik ko‘rinishi uni noyob badiiy obyektga aylantiradi. Bu esa dizaynerga yangi ekspressiv imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqarilayotgan sopol mahsulotlar yuqori aniqlikdagi naqshlar, murakkab geometrik shakllar va innovatsion sir qoplamalar bilan boyitilgan. Ular yordamida interyer dizaynida eksperimentlar o‘tkazish,

yangi yondashuvlar yaratish mumkin. Mazkur holat kulolchilik mahsulotlarini o‘tmishdan kelayotgan qadriyatlar va hozirgi zamonning texnologik imkoniyatlarini uyg‘unlashtiruvchi kuchli vositaga aylantiradi.

Bundan tashqari, kulolchilik san’atining turli hududlar uchun xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ularning interyer dizaynida qo‘llanishi madaniy differensiallikni ifodalash imkonini beradi. Misol uchun, Rishton kulollari tomonidan yaratilgan moviy rangdagi naqshlar sovuqlik va tozalik timsoli sifatida talqin qilinadi, G‘ijduvon ustalarining yorqin ranglari esa shijoat va hayotiylik ifodasini beradi. Shu bilan birga, har bir hududga xos naqsh, simmetriya va ritmlar orqali yaratilgan mahsulotlar foydalanuvchining vizual idroki va hissiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat dizayn psixologiyasi nuqtai nazaridan ham muhim hisoblanadi, chunki makon psixologik muvozanat va vizual uyg‘unlik orqali inson ruhiyatini sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, kulolchilik san’atining zamonaviy interyer dizayndagi talqini – bu nafaqat badiiy, balki ilmiy, madaniy va texnologik jarayonlarning kesishgan nuqtasidir. Unda tarix, hunarmandchilik, ekologik tafakkur va zamonaviy estetik qarashlar bir butun tizimga birlashadi. Kelajakda ushbu yo‘nalish bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlar dizayn nazariyasiga yangi ilmiy yondashuvlar olib kirishi, shu bilan birga milliy badiiy merosni global madaniy kontekstda integratsiyalash imkonini kengaytirishi mumkin. Shuningdek, kulolchilik mahsulotlarining makon va jamiyat o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarishi, uni estetik va identitet jihatidan boyitishi ushbu san’atning zamonaviy dizayn kontekstida naqadar muhim ekanligini yaqqol tasdiqlaydi.

Xulosa Yuqoridagi ilmiy tahlillar va tajriba natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, an'anaviy kulolchilik usullarining zamonaviy interyer dizayniga integratsiyasi dizayn sohasida yangi yo'nalishlarni shakllantirmoqda. Kulolchilik mahsulotlari estetik jihatdan yuqori darajada qabul qilinadigan, vizual jozibali va funksional imkoniyatlarga ega bo‘lgan san’at namunalaridir. Ular milliylikni ifoda etuvchi vosita sifatida interyer dizaynining asosiy elementlaridan biri bo‘lishi mumkin. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ushbu mahsulotlar yordamida madaniy xotira, tarixiy qadriyatlar va ekologik barqarorlikni aks ettiruvchi makonlar yaratish mumkin. Ayniqsa, sopol mahsulotlarning tabiiyligi, qo‘lda yasalganligi va mahalliy san’atning boy an’analarini o‘zida mujassamlashtirganligi zamonaviy dizayn talablari bilan uyg‘unlikda qo‘llanilish imkonini beradi.

Interyer dizaynida kulolchilik elementlarining qo‘llanilishi foydalanuvchiga nafaqat estetik zavq ulashadi, balki psixologik jihatdan taskin, iliqlik va madaniy identitet hissini uyg‘otadi. Bu holat ayniqsa uy sharoitida qulay muhit yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, jamoat joylarida – kutubxonalar, muzeylar, mehmonxonalar va ta’lim muassasalarida kulolchilik mahsulotlarining qo‘llanilishi ushbu makonlarga madaniy mazmun va o‘ziga xos estetik obraz beradi. Interyerda an’anaviy sopol buyumlar orqali yasalgan dekordagi xarakterli naqshlar va ranglar orqali milliy xotira elementlari yangicha talqinda jonlantiriladi. Shu jihatdan, kulolchilik mahsulotlari orqali yaratilgan interyerlar madaniy merosni zamonaviy dizayn vositasida ifodalashga xizmat qiluvchi kuchli kommunikativ vositaga aylanadi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u nafaqat amaliy dizayn misollarini tahlil qilgan, balki kulolchilik san’atining estetik, psixologik, ekologik va ijtimoiy jihatlarini mukammal o‘rganishga harakat qilgan. Olingan natijalar dizaynerlar, arxitektorlar va san’atshunoslar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuvlar va metodlar kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun model sifatida tavsiya etiladi. Bundan tashqari, mazkur ilmiy ish kulolchilik mahsulotlarini dizayn sohasi bilan integratsiyalash orqali milliy hunarmandchilikning yangi iqtisodiy va madaniy qiymatini ochib berishga ham xizmat qiladi. Demak, ushbu yondashuv dizayn san’atini faqat tashqi ko‘rinishga emas, balki ma’naviy, ijtimoiy va ekologik qadriyatlarga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullaev, N. (2015). O'zbek kulolchilik san'atining rivojlanish tarixi. Toshkent: Yangi Nashr.
2. Risatti, H. (2007). A Theory of Craft: Function and Aesthetic Expression. University of North Carolina Press.
3. Dormer, P. (1997). The Culture of Craft. Manchester University Press.
4. Adamson, G. (2010). The Craft Reader. Berg Publishers.
5. Cooper, E. (2000). Ten Thousand Years of Pottery. British Museum Press.

CHUST PICHOQCHILIK SAN’ATI XX–XXI ASRLARDA: AN’ANADAN ZAMONAVIYLASHTIRISHGA

Olimjonova Maftuna
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
maftuna_olimjonova@mail.ru

Anotation: this article is written about the art of knifemaking and its famous schools in Uzbekistan, in particular the Chust School of knifemaking and its peculiarities in the 20th-21st centuries.

Keywords: knife craft, chust school, technology, steel, boric acid, lead, jackalac, bunch, peak, artel, master, shajara.

Kirish.

O‘zbekistonning boy madaniy merosi xalq amaliy san’atining turli yo‘nalishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ulardan biri qadimiy **pichoqchilik san’atidir.** Bu qadimiy hunarmandchilik sohalaridan biri bo‘lib, asosan pichoq yasash, uni bezash, tig‘ini charxlash va dastasini san’at darajasida ishlashni o‘z ichiga oladi.

Pichoqchilik, pichoqsozlik -pichoq, ustara, xanjar va boshqa kesgir asboblar yasash kasbi; hunarmandlikning qadimgi turlaridan biri. Ilk paleolit davridan ma’lum. Dastlabki kesgir qurol toshdan yasalgan. Jez davrida mis va jezdan Pichoqchiliklar yasash boshlangan. Temirning kashf etilishi Pichoqchilik san’ati taraqqiyotida katta burilish bo’ldi. Sharq mamlakatlarida, xususan, O’rta Osiyoda Pichoqchilik juda qadimdan rivojlangan. Keyinchalik Yevropa mamlakatlarida rasm bo’lgan. Temir pichoqlar haqidagi ma’lumotlar qadimgi yunon epik shoirlari Gomer va Gesiod asarlarida uchraydi. 14-asrda Germaniya, Angliya, Avstriya, Frantsiyada Pichoqchilikni kasb sifatida taqiqlab, pichoqni oshxonalarda ishlatishgan. O’zbekiston hududida (Afrosiyob, Bolaliktepa, Varaxsha va boshqalarda) olib borilgan arxeologiya qazishmalar natijasida miloddan avvalgi 2-ming yillikka oid pichoq namunasi topilgan. Devorlarga chizilgan rasmlardan pichoqdan xo’jalik va ovchilikdan tashqari harbiy maqsadlarda ham foydalanilganligini bilish mumkin. 6-12-asrlarda pichoq yasash rivojlanib, uni bezash texnologiyalari o’zgargan. 15-17-asrlarda yonga osib yuriladigan pichoq turlari paydo bo’ldi. Buni Navoiy, Bobur asarlarida ishlangan miniatyuralardan ko’rish mumkin. Keyinchalik Pichoqchilikning o’ziga xos maktablari paydo bo’ldi. Farg’ona vodiysi, Samarqand, Toshkent, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida qadimdan 20 ga yaqin Pichoqchilik markazlari bo’lib, ular o’zining ishlash texnologiyasi, shakli, ixchamligi va bezaklari bilan farq qilgan. Bu markazlarga Chust, Shahrixon, Qorasuv, Qo’qon, Xiva, Toshkent va boshqalar. Pichoqchilik maktablari kiradi. Pichoq O’rta Osiyoda erkaklarning eng zarur ish quroli, bezagi tariqasida foydalanilgan. Shuning uchun O’zbekistondagi pichoqsozlar pichoqni san’at darajasiga ko’targanlar. Qadimda hunarmandlar bir-biri bilan birikib bir mahallada yashaganlar va mahalla shu nom bilan atalgan. Masalan, Toshkent shahrida Pichoqchilik mahallasi saqlanib qolgan.

Bu san’at turi O‘zbekiston, xususan **Buxoro, Xiva, Qo‘qon, Andijon va Chust** kabi hududlarda rivojlangan. Ayniqsa, **Chust pichoqchiligi** o‘zining nozik ishlanmalari, mustahkamligi va estetik jihatdan jozibadorligi bilan ajralib turadi. Bu maqolada XX va XXI asrlarda Chust pichoqchilik san’atining rivojlanish bosqichlari, o‘garishlari va bugungi kundagi holati tahlil qilinadi.

Chust pichoqlari — bu O‘zbekiston pichoqchilik san’atining eng yorqin va qadimiy namunalaridan biri. **Namangan viloyatining Chust shahri** qadimdan pichoqchiligi bilan

mashhur boʻlib, bu yerda pichoq yasash san’ati ustozdan shogirdga avloddan-avlodga oʻtib kelmoqda.

Chust pichoqlari ustalarining koʻpchiligi hunarni otadan bolaga, ustozdan shogirdga oʻrgatgan. Bu esa san’atning uzluksiz rivojlanishiga xizmat qilgan.

Dastlabki pichoqlar temirdan yasalar, qoʻlda oʻyma bezaklar bilan bezatilardi.

“Pichoq — bu oddiy asbob emas, u xalqning madaniy yodgorligidir” — deydi mahalliy tarixchi Q. Joʻrayev (2021-yilgi suhbatdan).

Chust pichoqlarining oʻziga xos jihatlari:

1. Tigʻi:

- **Poʻlatdan** yasaladi, ba’zida esa **damashq poʻlat** (katta bosimda qatlamsimon poʻlat) ishlatiladi.
- Tigʻlar **qiyshiq**, ya’ni ozgina egri shaklda boʻladi — bu pichoqqa kuchli va qulay kesish xususiyatini beradi.
- Ustalar tigʻga **maxsus naqshlar** va ba’zida **ustaning ismi** yoki tamgʻasini tushiradilar.

2. Dastasi:

- Koʻpincha **shoh**, **suyak**, **qoraqayin**, **yongʻoq yogʻochi** yoki **qimmatbaho toshlar**dan ishlanadi.
- Chust uslubidagi dastalar odatda **katta va qulay** boʻlib, ish tutishda qulaylik yaratadi.
- Ba’zi dastalar **naqqoshlik** va **kuyilgan naqshlar** bilan bezatiladi.

3. Qin (gʻilof):

- **Charm**, **qattiq teri**, yoki yogʻochdan yasaladi.
- Odatda **rangli naqshlar**, **milliy bezaklar** va **ustaning imzosi** tushiriladi.

4. Ishlanish usuli:

- Har bir pichoq qoʻlda ishlanadi.
- Ishlab chiqarish jarayoni **bir necha kun yoki hafta** davom etadi.
- Har bir pichoq **noyob**, ya’ni ayni shu nusxada boshqa yoʻq.

Chust shahri qadimdan hunarmandchilik markazi boʻlgan. Arxeologik topilmalarga koʻra, bu hududda **temirchilik va pichoqchilik** kamida **X-XII asrlarda** mavjud boʻlgan.

Mahalliy hunarmandlar dastlab **kundalik ehtiyojlar** uchun pichoqlar yasashgan — qishloq xoʻjaligida, ovchilikda, oshxona ishlarida. **Amir Temur va undan keyingi davrda** harbiy qurollar bilan bir qatorda, sifatli pichoqlarga ham ehtiyoj ortgan.

XVI-XVII asrlarda **Fargʻona vodiysi**, ayniqsa **Chust**, sifatli va nafis ishlangan pichoqlari bilan mashhur boʻlib, ular **Boʻstonlik, Toshkent, Qoʻqon, Andijon** kabi shaharlar bozorlarida katta talabga ega boʻlgan. **Qoʻqon xonligi** davrida Chust pichoqchiligi rivojining choʻqqisiga chiqqan. Hunarmandlar maxsus **ustaxonalar**da ishlagan, har bir pichoq ustaning oʻz tamgʻasi bilan belgilangan. Ayniqsa **bezakli, naqqoshlik pichoqlar** oʻsha davr amaldorlari, boylar, va xonlar uchun tayyorlangan.

XIX asr oxiri – XX asr boshida Chust pichoqlari Rossiya bozorlariga ham chiqib boradi. Sovet davrida hunar rasmiylashtirilgan, koʻplab ustalar **artel** (kooperatsiya) asosida ishlagan. Shunga qaramay, ustalar milliy uslubni saqlab qolishga harakat qilishgan. O’zbekistonda bu davrda hunarmandchilikni rivojlantirish borasida viloyatlarda artellar va hunarmandlar tayyorlaydigan o’quv yurtlari ochildi. Chust shahrida “qizil kuch” arteli (1932), keyin pichoq ishlab chiqarish zavodi qurildi (1970), ishlab chiqarish kombinati tashkil etildi (1978). Sovet davrida koʻplab ustaxonalar davlat nazorati ostida faoliyat yuritgan, sanoatlashtirish siyosati olib borilgan boʻlsa-da, ammo shu bilan birga, ustalar oʻzining milliy uslubini saqlab qolishga harakat qilishdi. Chust ustalari oʻz an’analarini davom ettirdilar.

Bu davrda pichoq yasashda temir, zanglamaydigan po’lat, dastasi uchun esa yog’och va shoxdan foydalanilgan. Bezaklarida geometrik va gulli naqshlar ishlatilgan. Saidahmad usta (1920–1987), Xudoyberdi usta (1945–2001) kabi pichoqchi ustalar chustda davrning mashhur ustlari bo’lganlar. Bu davrda ishlangan pichoqlar asosan xo‘jalik, oshxona va bezak maqsadida tayyorlangan.

1990-yillardan boshlab, pichoqchilik yana **milliy san’at** sifatida qadrlana boshladi. Bugungi kunda Chustda pichoqchilikni davom ettirayotgan **100 dan ortiq usta** bor. Mahalliy hamda xorijiy sayyohlar orasida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Har bir **Chust pichoqqa** usta o‘zining **tamg‘asini** (belgisini) qo‘yadi — bu pichoqning "pasporti"hisoblanadi.

Bulardan bugungi kunda avloddan-avlodga o’tib kelayotgan, an’anaviy pichoqchilik san’atini davom ettirayotgan ustlar shajarasidan Azimboy buva pichoqchi ustalar shajarasi hisoblanadi. Bu shajara: Azimboy buva (1786-1878), Abduraim buva (1856-1943), Abduraimov Karimjon (1924-1994), Abdurahimov Ahadjon (1964), ularning o’g’illari: Orifjon Karimov, Qodirjon Karimov, Odiljon Karimov, Xayrillo Karimov hamda Ahadjon ustaning akasi Abdurahimov Mahammadjon va uning o’g’illari Azamjon Karimov va Bahtiyor Karimovlar bugungi kunda an’analarno davom ettirib kelmoqdalar.

Chust pichoqlari hunarmandchiligida an'anaviy texnikalar va zamonaviy usullar uyg'unlashgan. Ularning tayyorlanish jarayoni juda mehnat talab qiladigan va mahoratni talab qiladigan jarayonlardir.

Chust pichoqlari tayyorlash texnikasi juda murakkab bo'lib, ko'plab qadamlarni o'z ichiga oladi:

1. Temirni tayyorlash:





- **Yuqori sifatli temir**: Chust pichoqlari tayyorlashda yuqori sifatli temir yoki po'lat ishlatiladi. Bu temir o'ziga xos maxsus xususiyatlarga ega bo'lib, pichoqlarni kesish va ishlatishda uzoq vaqt chidamli bo'lishini ta'minlaydi.
- **Qizdirish va shakllantirish**: Temir yuqori haroratda qizdirilib, zarur shaklda (pichoqning tayoq, sirg'asi va boshqalar) shakllantiriladi.

2. Shaklni berish:

- Pichoqning uchi va qirrasi to'g'ri shaklda bo'lishi kerak. Buning uchun maxsus asboblar yordamida temirga xususiy shakllar beriladi.
- Shakllash jarayoni qo'lda yoki maxsus zarbali asboblar yordamida amalga oshiriladi.

3. Temirni qattiqlashtirish:

- Shakllantirilgan temir yuqori haroratda qizdirilib, sovutiladi. Bu jarayon pichoqning metallining qattiqligini oshiradi va kesish sifatini yaxshilaydi.
- Qattiqlashtirish jarayonidan keyin, pichoq yana bir marta ishlov berilib, uning o'zgarmas shakli va kcsish qobiliyati ta'minlanadi.

4. Silliqlash va o'tkirlashtirish:

- Pichoqning kesish yuzasi aniq va o'tkir bo'lishi uchun uni silliqlash kerak.
- Silliqlash jarayonida pichoqning kesish qirralari va uchlari tekislanadi, uning o'tkirligi ta'minlanadi.

5. Dasta tayyorlash:

- Chust pichoqlarida dastalar ham juda muhim ahamiyatga ega. Odatda, pichoq dastalari yog'ochdan, hayvon shohlaridan, qimmatbaho toshlardan yoki metallardan tayyorlanadi.
- Dastaning dizayni ham pichoqning umumiy ko'rinishiga katta ta'sir qiladi.

6. Xakalak







(Gulband) tayyorlash:

Gulband-dasta va pichoq tig’ini birlashtirsh uchun foydalaniladi. Bunda maxsus qolip tayyorlanib, qo’rg’osin, babid kabilardan foydalaniladi. Ular eritilib qolibga quyiladi. Qo’rg’oshinni eritish va tayyorlash jarayoni birmuncha oson bo’lishiga qaramay, tayyor bo’lgach pichoqni ushlaganda qora modda chiqishi bilan harakterlanadi. Babid yordamida tayyorlangan gulband qo’rg’oshinga o’xshab qora rang chiqarmaydi. Babid eritish jarayoni qo’rg’oshinga qaraganda murakkabroq hisoblanadi. Bu modda pichoq dastasi tag qismiga ham quyiladi





.

. Bezash:

- Chust pichoqlarining o'ziga xos va chiroyli ko'rinishi uchun turli bezaklar, naqshlar, o'ymakorlik ishlari bajariladi.
- Bu bezaklar pichoqning tutqichida yoki pichoqlarning o'zida bo'lishi mumkin.

Chust ustalari asosan yarim oy va yulduz, “chust” yozuvli tamg’alardan foydalanadilar. Bugungi kunda lazer yordamida bezash zamonaviy bezak turiga aylangan.




Tamg’alar yordamida pichoq tig’lari o’yilib ular ustiga “borik kislotasi” sepilib, ustidan mis qo’yiladi. Qizdirish jarayonida boric kislota ustida mis erib tig’ga qadaladi.

Bezaklar inkrustatsiya uslubida pichoq dastalariga ham qilinishi mumkin.

8.







Sinov va sozlash:

- Tayyorlangan pichoq sinovdan o'tkazilib, uning kesish sifatini va ishlashini tekshirish uchun ishlatiladi.
- Agar zarur bo'lsa, pichoq qayta sozlanadi.

9. Tugallash va taqdimot:

- Tayyorlangan pichoq oxirgi polishing (yog'och va metall yuzalarini silliqlash) jarayonidan o'tkaziladi.
- Pichoqni maxsus qadoqlash va sotish uchun tayyorlash ham amalga oshiriladi.



Abdurahimov Ahadjon

Pichoq yasash **7–8 bosqichdan** iborat boʻlib, har biri alohida usta tomonidan bajarilishi mumkin. Ayrim qadimiy pichoqlar **muzeylarda** saqlanadi, ayrimlari esa **kollektsionerlar** qoʻlida.

XXI asrga kelib, Chust pichoqchiligi yana bir bor yuksalish bosqichiga chiqdi. Erkin bozor iqtisodiyoti va milliy hunarmandchilikka qiziqish ortgani sababli bu san’atga talab oshdi.

- **Zamonaviy uslublar:** An’anaviy uslublar saqlangan holda, zamonaviy dizaynlar va sifatli materiallar bilan ishlash rivojlandi.
- **Internet orqali savdo:** Ustalar oʻz asarlarini xalqaro bozorlarga internet orqali taklif qilishmoqda.
- **Yosh avlod:** Hunar maktablari, ustaxona va koʻrgazmalar orqali yoshlar bu san’atni oʻrganishga qiziqish bildirishmoqda.

Xulosa:

Chust pichoqchiligi — bu oʻtkir va foydali asbobdan koʻra koʻproq narsani anglatadi. Bu hunar xalqimizning madaniy xotirasi, estetik qarashlari va badiiy didining mahsulidir. XX–XXI asrlarda bu san’at koʻplab sinovlardan oʻtgan boʻlsa-da, oʻzining milliy ruhini yoʻqotmagan. Aksincha, zamonaviy imkoniyatlar bilan uygʻunlashib, yangi avlod pichoqchilari tomonidan davom ettirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Joʻrayev, Q. *Oʻzbek hunarmandchiligi tarixi*, Toshkent, 2021.
2. Karimov, F. “Yosh ustalarning yangi avlodi”, *San’at va hunar* jurnali, 2023.
3. Oʻzbekiston Milliy hunarmandchilik muzeyi arxivi, 2022-yilgi koʻrgazma materiallari.
4. Saidahmad usta ustaxona kundaliklari, Chust tumani madaniyat markazi, 1978.
5. www.daryo.uz — “Chustda yangi hunar maktablari ochilmoqda”, 2024.

ЎРТА ОСИЁНИНГ РУС ПОДШОҲЛИГИ ТОМОНИДАН БОСИБ ОЛИНИШИ АНЪАНАВИЙ КУЛОЛЧИЛИК ШАКЛЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ

Мўйдинова Дилнозахон Мадаминовна

НамДУ докторанти.

dilnozamaribxonova1997@gmail.com

Аннотация: Мақолада ўзбек кулолчилик мактабларининг ривожланиш даврлари, хусусан Фарғона кулолчилик мактаби тарихидаги мухим хисобланган даврлардан бири “Ўрта Осиёнинг Рус подшоҳлиги томонидан босиб олиниши ва совет иттифоқи даври” йоритиб берилган. Ушбу давр XIX аср бошларидан 1970-йилларгача бўлган вақтни ўз ичига олади. Рус миллати томонидан худудларимиз босиб олиниши нафақат сиёсий ва ижтимоий, балким, маданаий ҳаётга ҳам ўтказган таъсири, кулолчилик устахоналари, артел ва заводлардаги кулолларнинг фаолияти батафсил баён қилинган.

Калит сўз: Кулолчилик, устахона, артел, завод, Риштон, Қўқон, Андижон, Ғурумсарой, кўргазма, музей.

Annotation: The article describes the periods of development of Uzbek pottery schools, in particular, one of the important periods in the history of the Fergana pottery school, “the conquest of Central Asia by the Russian Empire and the Soviet Union.” This period covers the period from the beginning of the 19th century to the 1970s. The impact of the occupation of our territories by the Russian nation on not only political and social, but also cultural life, the activities of potters in pottery workshops, artels and factories are described in detail.

Key words: Pottery, workshop, artel, factory, Rishton, Kokan, Andijan, Gurumsaray, exhibition, museum.

Аннотация: В статье описаны периоды развития узбекских гончарных школ, в частности, один из важнейших периодов в истории Ферганской гончарной школы

«период оккупации Средней Азии Российской Империей и период Советского Союза». К этому периоду относится период с начала XIX века по 1970-е годы. Подробно описано влияние оккупации наших территорий русским народом не только на политическую и общественную, но и культурную жизнь, деятельность гончаров в гончарных мастерских, артелях и заводах.

Ключевые слова: Гончарное дело, мастерская, артель, фабрика, Риштон, Кокан, Андижан, Гурумсарай, выставка, музей.

Ўзбек кулолчилик мактабларининг ўзига хос бир нечта ривожланиш даврлари мавжуд бўлиб, хусусан Фарғона кулолчилик мактаби тарихидаги мухим даврлардан бири “Ўрта Осиёнинг Рус подшоҳлиги томонидан босиб олиниши ва совет иттифоқи даври” хисобланади. Ушбу давр XIX аср бошларидан 1970-йилларгача бўлган вақтни ўз ичига олади. “Бу вақтда Фарғона водийси ҳудудида сопол махсулотларини ясаш ва ишлаб чиқариш Риштон, Қўқон, Андижон, Намаган(ленинский), ва Чуст ҳудудларида кенг тарқалган.”[17] Рус миллати томонидан худудларимиз босиб олиниши нафақат сиёсий ва ижтимоий, балким, маданаий ҳаётга ҳам катта таъсир ўтказди. Завод ва фабрикаларда ишлаб чиқарилган нисбатан арзон буюмлар маҳаллий халқ асрлар давомида фойдаланиб келган буюмларга ўхшатиб ясалиши ва безатилишни бошлайди ва сопол бумлар билан кескин рақобатни юзага келтирди. “Жумладан, кулолчилик махсулотларини ўрнини босувчи Россиядаги ака-ука Кузнецовлар шахсий заводида тайёрланган буюмлар шакли, ранги ва нақшларига кўра гўзал Риштон кулолчилиги намуналарига ўхшаш қилиб бажарилган”[18]. Шунинг учун ҳам ахоли орасида ушбу буюмлар харидоргир бўлган. XIX асрнинг иккинчи ярмига келиб Ўрта Осиёга Хитой чинниларининг кириб келиши у йердаги ички зиддиялар туфайли тўхтаб

[17] Рахимов М.К. 1961. Художственная керамика Узбекистана. Ташкент.22-б.

[18] Жумаев Қ. XIX аср Риштон кулолчилиги анъаналарининг М.С.Кузнецовлар хусусий заводи чинни ва фаянс буюмларига таъсири. Риштон кулолчилиги: кеча, бугун, эртага. Халқаро конференция материаллари тўплами. –Фарғона: Farg’ona nashriyoti, 2023. -79б.

қолади. Аср бошида Риштонда 42та устаҳона мавжуд бўлган. Лекин енди Россия, Буюк Британиянинг таркибида бўлган Ҳиндистон ва Шарқий Европадан сопол ўрнини босувчи бир қанча махсулотлар кела бошлайди[19]. Ўрта Осиё ҳудудига илк темир йўлнинг олиб келиниши кулолчилик маҳсулотлари бозори инқирози муқаррар еканлигини билдирар еди. Аввалига келган моллар Самарқанд ва Бухорода қолиб кетар еди. Фарғона водийсига темир йўл бир муддат кечроқ кириб келади. Шу туфайли ҳам Ўзбекистон ҳудудида сирланган кулолчилик анъаналари Водий худудида узоқроқ ва соф ҳолда сақланиб туради. Қолаверса чинни буюмлар нархи қимматлиги сабаб уларни оддий халқ сотиб ололмас еди. Шундай бўлсада, XIX асрнинг охирларига келиб, водий кулолчилигида инқироз кузатила бошлади. 1889-йилда Тошкентдан Фарғонага темир йўлнинг очилиши ҳамда Россиядан кулолчилик маҳсулотларининг ўрнини босувчи фаянс ва чинни буюмларни оммавий кириб келиши, водий ҳудудида ҳам сопол махсулотларга бўлган талабни тушуриб юборган.

1917-йилги инқилобдан сўнг анъанавий кулолчилик яна бир бор кескин ўзгаришларга учрайди. Кулолларнинг якка тартибда ишлаб даромад қилишига тақиқлар ўрнатилади. Бошқа ҳунармандлар сингари кулолларнинг ҳам асбоб ускуналари мўмай даромад қилиш қуроли сифатида баҳоланиб фойдаланишга қаратилган тақиқлар ўрнатилади. Қолаверса бу даврга келиб Россиядан янгича техник воситалар, кимёвий бўёқлар ва сирлар кириб келиши натижасида саноқли усталаргина шуғулланган ишқорли сирлаш технологияси унутилиб йўқ бўлиб кетаётган, давлат томонидан кўплаб шахсий устахоналар ёпиб ташланган, ёки давлат ихтиёрига ўтгазилган еди. Андижон, Ғурумсарой ва Хўжанд мактабларида кўплаб устаҳоналар ёпиб ташланади, усталар бўлса ўз касбини ўзгартирадилар. 1900-1910 йилларда Риштонда 130дан ортиқ устахоналарда 250 уста ва уларнинг

[19] Кодзаева Л. Риштанская школа керамики вчера и сегодня. Риштон кулолчилиги: кеча, бугун, эртага. Халқаро конференция материаллари тўплами. -Фарғона, Farg’ona nashriyoti.2023. 24-б.

бир қанча шогирдлари ишлаган[20]. Шу каби кулолчилик тараққий этган бир нечта ҳудудларда сопол маҳсулотлари ишлаб чиқаришга мўлжалланган Артеллар ташкил қилинади. 1960-йилгача бошқа ҳунармандчилик устахоналари қаторида кулоллар ҳам шаҳсий устахоналарини ёпадилар ёки, кулоллар устахоналари билан биргаликда артелга бирлаштирилади ва устахона ўрнида Артеллар қошидаги цехлар ташкил қилинади, бу йердаги ишлар давлат томонида назорат қилинади.

Бир томондан усталарга эркин ишлашга қўйилган тақиқлар салбий таъсир қилган, усталар сони камайган, ижодий ишлар деярли йўқолиб кетган бўлса, бошқа томондан 1920-йилларга келиб кулолчилик ҳунари Халқ санъати сифатида еътироф етила бошлаган. Бунга асосий сабаблардан бири “1900-йилда Парижда бўлиб ўтган Бутунжаҳон кўргазмасида кулолларнинг ишлари юқори даражада баҳоланган. Шундан сўнг, 1902-йилга келиб Санкт-Петербург шаҳрида ўтгазилган Бутуниттифоқ кўргазмасида ҳам усталаримиз ишларига катта қизиқиш уйғонган ва бу борада изланишлар бошланган. 1927-йилга келиб Тошкент шаҳрида илк марта ҳалқ ҳунармандлари кўргазмаси ташкил етилган ва давомли равишда ҳар йили ўтказиш анъана тусига кирган. 1937-йилга келиб еса Тошкентда биринчилардан бўлиб “Музей кустарних ремесел” музейи очилган ва 1997-йилга келиб “Ўзбекистон давлат амалий санъат музейи” га ўзгартирилган”[21].

Аввалига ҳунармандлар артеллар билан ҳамкорликда ишлаш услубида фаолият юритишни маъқул кўришган ва ижод қилишда давом етишган. Шунингдек, артелларда оилавий тарзда аёллар ҳам фаолият кўрсатганлар. Идишларга шакл бериш фаолият тури билан асосан еркаклар шуғулланган бўлса, нақш солиш ишлари билан аёллар ҳам шуғулланишган. Кўп усталар турмуш ўртоқлари билан бирга ишлашга жалб етилган. 1948-йилга келга келиб Риштонда тўртта артел

[20] Рахимов М.К. 1961. Художственная керамика Узбекистана. Ташкент.24-б.
[21] Офицерова Е. Керамика Ферганы в фондах ГМЗ «Царицыно»(Москва). Формирование коллекции, ее особенности. Риштон кулолчилиги: кеча, бугун, эртага. Халқаро конференция материаллари тўплами. – Фарғона: Farg’ona nashriyoti, 2023. -99б.

фаолият олиб борган. Андижон ва Наманган ҳудудларида ҳам бир нечта артеллар фаолият юритган.

Лекин 1940-йилга келиб, давлат бошлиғи Н.С.Хрушев бошқаруви сиёсати остида усталарнинг артелларга бирлаштириш сиёсати янада қаттиқлашади ва шахсий устахоналарда ижод қилиш “ноқонуний” етиб белгиланган[22]. Иккинчи жаҳон уруши даврида кўп еркаклар урушга жалб қилинган бўлсада, артелларда ишлар тўхтаб қолмайди. Уста кулоллар фронт ортида урушга ва махаллий аҳолига сопол буюмларини оммавий тарзда ишлаб чиқариш билан шуғулланишган. Артеллар билан ҳамкорликда ишлайдиган барча сехлар ва устахоналар ёпиб ташланади ва усталар мажбурий мехнат, пахта терими ва дала ишларига жалб қилинади. Лекин, бу ҳолат узоқ давом етмайди. Чунки, бозорларда маҳаллий идишларнинг тақчиллиги ва аҳолининг бошқа буюмлар қаторида сопол идишларга бўлган талаби ортди[23].

1960-йилга келиб СССР ҳукуматида бир қанча ўзгаришлар содир бўлади. Дастлаб 3та янги вазирлик: Енгил саноат вазирлиги, Маҳаллий саноат вазирлиги ва Ҳизмат кўрсатиш вазирлиги ташкил топади ва уларнинг қошида ишлаб чиқариш фабрикалари ва заводлар ташкил қилинади. Бу даврда Риштонда мавжуд бўлган 4та артеллар Маҳаллий саноат вазирлиги қошида ташкил етилган “Риштон сопол ишлаб чиқариш заводи” таркибига бирлаштирилади[24]. Водийнинг бошқа ҳудудларида ҳам ишлаб чиыариш заводлари таркибида кичик кулолчилик цехлари очилган, қолаверса чекка худудлардаги усталарга ҳам ўз устахоналарида цех ташкил қилиб давлат билан ҳамкорлик қилган ҳолда ишлашга руҳсат берилган. Аммо, Риштонлик усталарга аввал ўз устахоналарида ишлашга руҳсат берилган

[22] Офицерова Е. Керамика Ферганы в фондах ГМЗ «Царицыно»(Москва). Формирование коллекции, ее особенности. Риштон кулолчилиги: кеча, бугун, эртага. Халқаро конференция материаллари тўплами. – Фарғона: Farg’ona nashriyoti, 2023. -99б.

[23] Abduvahobov M., интервюдан. Андижон, 2024.

[24] Солиев С., Сиддиқов А., Деҳқонов А., Йигиталиев З. Бугунги Риштон: кулолчилик иқтисодиётимизнинг ўсиш нуқтасидир.- Риштон, 2021.- 3б.

бўлса, заводлар ташкил қилинганидан сўнг барча устахоналар ёпиб ташланган ва усталар мажбурий равишда заводда ишлашга жалб қилинган. Риштонда Артел ва заводларнинг очилиши кулолчиликнинг бадиий жиҳатдан бир мунча ўзгаришлар бўлишига сабаб бўлган.

Буюмларга солинадиган нақшлар ҳам бирмунча соддалашган ва СССР мафкурасига ҳос тарзда мотивлар, пахта нақшлари, наққошлик елементлари, ислимий нақшлар сопол буюмларда акс этишни бошлаган. Аввалига артелларда минерал бўёқлардан фойдаланилган бўлса, эндиликда заводда анча арзон ҳисобланган тайёр кимёвий бўёқлар ва оганизм учун зарарли бўлган қўрғошинли сирни қайта ишламасдан фойдаланиш натижасида мураккаб ишланган эски андозалар ҳам, мумтоз услубдаги нақш мотивлари ҳам йўқолиб кетган. Бунинг натижасида совет иттифоқи бозори арзон оммавий идишлар билан тўлиб кетган. Усталарнинг эслашича кулолчилик заводида фақат уста кулоллар ишламаган. Ендигина мактабни тугатган, Олий таълимга кира олмаган ёки ҳарбий ҳизматдан келган, бандлиги таъминланмаган ёшлар оммавий тарзда заводда ишлашга жалб этилган. Ҳеч қачон бу ҳунар билан шуғулланмаган ёшларни қисқа муддатда ишчи қилиб тайёрлаш натижсида келиб чиққан, содда, бадиий қадр қимматини йўқотган буюмлар, Фарғона кулолчилигига қизиқиш билдирган саъатшунослар, тарихчи ва коллекционерлар эътиборини жалб қилган, улар таъбири билан айтганда “Риштон кулолчиликиги инқирози” ҳисобланган.

1960-йилларга келиб Ғурумсарой, Наманган ва Андижонда ҳам вазият жуда оғир аҳволга келган еди. Бошқа марказлардаги сингари усталар ўз ишларини бутунлай йиғиштириб, устаҳоналарини ёпиб ташдладилар. Бозорда сопол маҳсулотларини ўрнини босувчи чинни, фаянс ва алюминий буюмлар оммалашиб кетган, усталар бу ҳунарнинг зарурлиги ижтимоий жиҳатдан фойдали еканлигига шубҳа қилишар еди. Уларнинг фарзандлари эса бу касбни давом еттиришни истамас едилар. “Ғурумсаройда 1960-80-йилларда усталар Т.Шерматов,

Ҳ.Сатимов, М.Рахимов, М.Туропов ва бошқалар ишлаган”[25]. С.Алийеванинг Ўзбекистон сирланган кулолчилиги монографиясида Ғурумсарой, Наманганлик ва Андижонлик бир нечта усталарнинг номи ва туғилган йиллари ҳам кўрсатиб берилган. Ушбу мъалумотларга кўра Гурумсаройда айнан шу даврда 14та уста, Наманганда 9та уста, Андижонда 4та уста фаолият кўрсатган[26]. Аммо ушбу усталарнинг кўплари тўғрисида мълумотлар ва ишларидан намуналар сақланиб қолмаган.

Хозирги даврга келиб Риштон кулолчилик маркази анъаналари қайта тикланган ва кулолчилик маркази сифатида фаолият юргазиб келади. Андижон ва Ғурумсарой марказларида эса фақат биттадан усталар кулолчилик анъаналарни давом эттириб келишмоқда.

Хулоса. ўзбек кулолчилик мактабларининг ривожланиш тарихида Ўрта Осиёнинг Рус подшоҳлиги томонидан босиб олиниши мухим давр хисобланади. Совет иттифоқининг сотциалистик сиёсати натижасида минг йиллардан буён авлоддан авлодга ўтиб келаётган анъанавий санъатимизнинг бир нечта услуб ва технологиялари йўқотилиб, унутилди. Мутахассислар томонидан хозирги кунга қадар ушбу анъаналар тиклаш жараёнларига оид изланишлар олиб борилмокда.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Рахимов М.К. Художственная керамика Узбекистана. Ташкент. 1961.
2. Ҳакимов А.А. Ўзбекистон ҳунармандчилиги. - Тошкент: Очун, 2023.
3. Алиева С.Ш. Художственная поливная керамика Узбекистана IX- начала XXI в. – Тошкент, Санъат. 2009. 128-б.
4. Жумаев Қ. XIX аср Риштон кулолчилиги анъаналарининг М.С.Кузнецовлар хусусий заводи чинни ва фаянс буюмларига таъсири. Риштон кулолчилиги: кеча, бугун, эртага. Халқаро конференция материаллари тўплами. –Фарғона: Farg’ona nashriyoti, 2023. -79б.

[25] Ҳакимов А.А. Ўзбекистон ҳунармандчилиги. - Тошкент: Очун, 2023. – 448 б.

[26] Алиева С.Ш. Художственная поливная керамика Узбекистана IX- начала XXI в. – Тошкент, Санъат. 2009. 128-б.

5. Кодзаева Л. Риштанская школа керамики вчера и сегодня. Риштон кулолчилиги: кеча, бугун, эртага. Халқаро конференция материаллари тўплами. -Фарғона, Farg’ona nashriyoti.2023. 24-б.
6. Офицерова Е. Керамика Ферганы в фондах ГМЗ «Царицыно»(Москва). Формирование коллекции, ее особенности. Риштон кулолчилиги: кеча, бугун, эртага. Халқаро конференция материаллари тўплами. – Фарғона: Farg’ona nashriyoti, 2023. -99б.

UO‘K 745.52(575.2)"20

XX asrda qirg‘iz xalqi amaliy san’atidagi naqsh turlari va keng tarqalgan naqsh elementlari

N.A.Kurbanova

Farg‘ona shahar 3-umumiy o‘rta ta’lim maktab tasviriy san’at fani o‘qituvchisi

nkurbanova484@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qirg‘iz xalqining XX asrda naqqoshlik san’ati va uning xalq amaliy san’atidagi ahamiyati, naqsh turlari va eng keng qo‘llaniladigan naqsh elementlari haqida ma’lumotlar berilgan. Qirg‘iz naqqoshlik san'ati milliy madaniyatning ajralmas qismi bo‘lib, u xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Maqolada turli naqsh turlari, jumladan, zoomorfik, geometrik, o‘simliksimon naqshlar va sovet emblematikasi kabi elementlar haqida tahlil qilingan.

***Kalit so‘zlar**: Ornament, Zoomorfik naqsh, Geometrik naqsh, O‘simliksimon naqshlar, Sovet emblematikasi.*

Аннотация. В данной статье представлены сведения о кыргызском народном искусстве вышивки XX века, его значении в народном прикладном искусстве, типах орнаментов и наиболее часто используемых элементах орнамента. Кыргызское искусство вышивки является неотъемлемой частью национальной культуры, отражающей исторические, социальные и культурные ценности народа. В статье проанализированы различные типы орнаментов, включая зооморфные, геометрические, растительные орнаменты и элементы советской эмблематики.

***Ключевые слова:** Орнамент, зооморфный орнамент, геометрический орнамент, растительный орнамент, советская эмблематика.*

Annotation. This article provides information about the Kyrgyz people’s embroidery art of the 20th century, its significance in folk applied arts, ornament types, and the most commonly used ornament elements. Kyrgyz embroidery art is an integral part of national culture, reflecting the historical, social, and cultural values of the people. The article analyzes different types of ornaments, including zoomorphic, geometric, plant-based ornaments, and elements of Soviet emblematics.

***Keywords:** Ornament, Zoomorphic ornament, Geometric ornament, Plant-based ornament, Soviet emblematics*.

KIRISH

Naqqoshlik san‘ati faqatgina ijodkorning bir buyumga bergan bezagigina emas, balki xalqning ijtimoiy, madaniy tarixi, turmush tarzi va dunyoqarashining muhim bir qismiga aylangan san’at turlaridan biridir ham. Har bir ornament, naqsh yoki bezak, o‘zida xalqning urf-odatlari, an’analari, e’tiqodlari, qadriyatlari va dunyo haqidagi tasavvurlarini mujassamlashtirib, ayni vaqtning o‘zida ma'lum bir davr, makon va xalqning madaniy merosini, uning tarixiy o'zgarishlarini, tabiat bilan bo'lgan aloqasini va umuman uning hayot tarzini aks ettiradi.

TAHLIL VA METODOLOGIYA

Naqqoshlik san'ati, ayniqsa, milliy o'zlikni ifodalovchi va farqli tushunchalar asosida rivojlanadi. Har bir naqsh yoki ornament biror bir ramz, belgi yoki g'oya sifatida shakllanadi va bu ramzlar, ko'pincha, xalqlar orasida tarixiy tajribalarga, qabilaviy yoki diniy tasavvurlarga,

tabiatdagi o'zgarishlarga, shuningdek, umumbashariy qadriyatlarga bog'liq bo'ladi. Masalan, ko'plab xalqlarda gullar, hayvonlar va tabiat elementlari orqali hayotning aylanishi, yangi hayotning boshlanish va yuksalish ramzlari ifodalanadi.Naqqoshlik san'ati bilan bog'liq nafaqat buyumlar, balki bu san'atning ijodiy jarayoni ham xalqning jamoaviy ruhiyatini, uning estetik va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Ushbu san'at nafaqat go'zallikni yaratishga, balki xalqning qadriyatlarini va tarixini keyingi avlodlarga etkazishga ham yordam beradi. Har bir naqsh, har bir bezak, xalqqa o'zining tarixiy merosini, madaniyatini va urf-odatlarini eslatib turadi, shu bilan birga, xalqlarning o'zaro aloqalari va madaniyatlarining bir-biriga ta'siri haqida ma'lumot beradi.

Bugungi kunda har bir xalqning madaniy tarixini o‘rganish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Qirg‘iz xalqining ham san’at tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, Tasviriy san’at sohasida ham, amaliy san’at sohasida ham ulkan merosga ega. Me’morchilik, tasviriy san’at va xalq amaliy bezak san’atining eng buyuk yodgorliklarini o‘rganar ekanmiz yana bir bor san’atning muhim bir sohasiga e’tibor qaratmaslik mumkin emas. Ham o‘zi bir san’at ham amaliy bezak san’atining har bir tarmog‘ining asosi bo‘lgan naqqoshlik (ornament) san’atini o‘rganar ekanmizTarixchi Y. Ya. Gerchuk ornamentga quyidagicha ta'rif beradi: "[27]Ornament - bizning kundalik hayotimizning o'zgarmas ishtirokchisi, inson va insoniyatning abadiy hamroxi. Biz uni bizni o'rab turgan narsalarda va o'zimizda ko'rib turamiz, har yerda. Gilamdagi va stol ustidagi naqshlar, mebellarda va bizning kiyimimizda. Ba'zilariga biz havas qilamiz, ular hayolni hayajonga solishi, quvontirishi mumkin, boshqalari esa bizga bexabar o'tib ketadi, biz ularni ko'rmaymiz, san'at asari sifatida his qilmaymiz."

XX asr qizg‘iz xalqi naqqoshlik san’atini juda ko‘p olimlar o‘rganganlar. . Иванов С.В. “Киргизский орнамент как этноге- нетический источник”, С.Дудин “Киргизский орнамент”, А.Ю. Мальчик. “Кыргызский орнамент Нового времени”, “Новые орнаментальные мотивы в прикладном искусстве Кыргызстана XX века”,
Г.К. Зайнулина “Орнамент.Виды орнаментов”, Рындин М.В. “Киргизский национальный узор” , Эльвира Чыныева “Кыргиз улуттук орнаментинин коммуникация системасындагы ролу” kabi adabiyotlar, ilmiy ish va o’quv qo’llanmalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, qirg‘iz xalqining naqqoshlik san’ati naqadar keng tarixga egaligini ko‘rishimiz mumkin.

Эльвира Чыныевао‘zining “Кыргиз улуттук орнаментинин коммуникация системасындагы ролу” magistrlik dissertatsiyasida “[28]Орнамент – латин тилинен чыгат, маани си - "кооздоо, көркөмдөө", "чийин, оймо".” yani“Ornament –lotincha so'zdan olingan bo'lib, ma’nosi-"bezatish, bezak", "chizish,naqsh"deya tariff bergan.
Ornament – bu san'atning eng qadimiy va keng tarqalgan shakllaridan biri bo‘lib, dastlabki ornamentlar rudaviy hayot va tabiat bilan bog‘liq edi: hayvonlar, o‘simliklar, tabiiy shakllar va elementlar tasvirlari ko‘plab madaniyatlarda uchraydi. Keyinchalik, ornamentlar ko‘plab san’at turlarida, jumladan arxitektura, kiyim-kechak, suvenirlar, maishiy buyumlar, zargarlik ishlanmalari va boshqalarda keng qo‘llanildi.
Qirg‘iz xalqining naqqoshlik san’ati, ayniqsa, turli xil ornamentlarni yaratish borasida katta boylikga ega. Ular o‘zlarining milliy an'analari, urf-odatlari, qadriyatlari va tarixini o‘ziga xos tarzda aks ettirgan. Qirg‘iz naqqoshlik san’ati an'anaviy ravishda xalqqa va tabiiy muhitga bo‘lgan chuqur hurmatni ifodalaydi.

[27] Герчук Ю.Я. Что такое орнамент? Москва – 1998, стр.1.

[28] Э.Чыныева. Кыргыз улуттук орнаментинин коммуникация системасындагы ролу. Бишкек. 2011. 35-бет

M.V.Rindin o‘zining “Qirg‘iz milliy naqshlari” nomli kitobida [2] “[29]Qirg‘iz ornamenti 173 ta asosiy elementdan iborat bo‘lib, ular boshqa elementlar bilan birlashganda 3500 dan ortiq bezak sub’yektlarini tashkil qiladi. Qirg‘iz naqshining 173ta asosiy elementlari 4 guruhga bo‘linadi: 1) hayvonot olami-98 ta element, 2) O‘simlik dunyosi-20 ta element, 3) lanshaft va tabiat hodisalari 10 ta element 4) maishiy-39 ta va diniy-6 ta” deya naqshlarni 4 turga ajratib bergan hamda har bir naqsh turiga mansub elementlarni asoslab bergan.

A.Y.Malchik o‘zining “Архитектарный орнамент КиргизстанаXX-началаXXI века” ilmiy maqolasida 1930-1980 yillarda qurilgan binolarda asosan 4 turdagi naqshlar keng yoyilganini takidlab o‘tgan . Ular quyidagilardir:

1. Zoomorfik naqsh
2. Geometrik naqsh
3. O‘simliksimon naqshlar
4. Sovet emblematikasi

Yuqorida sanab o‘tilgan naqsh turlarining har biriga taaluqli bo‘lgan naqsh elementlarini sanab o’tgan. Masalan: Zoomorfik naqsh elementlariga: кочкормюйюз, тертмюйюз, текемюйю, каргатырмакбкушканат, иткуйрук. Geometrik naqsh turlarida doira-Айчык, uchburchak-амулет, hayoliy (fantaziya)- киял, zigzak- ийрек, shaxmat shakli- чымынканат. O‘simliksimon naqsh elementlaridan- Гюл, бадам, анар, тогуздебекabi elementlarni hamda sovet emblematikasiga oid o‘roq bolg‘a hamda besh qirrali yulduzni aynan XX asrda eng ko‘p qo‘llaniladigan elementlar safida sanab o‘tgan.

S.Dudin esa “Киргизский орнамент” adabiyotida “[30]Mening qo'limda mavjud material va qirg'izlarning o'zlari tomonidan turli hududlarda o'ralgan takroriy savollar asosida, qirg'iz ornamentlarining asosiy elementlari sifatida quyidagilar keltiriladi: qo'ylarning boshli va boshsiz ramalari, qo'yning oldi va yon tomonidagi figuralari, otning boshidan, tuyadan va qushning (berkut) izlaridan, o'simliklarning barglari va gullari alohida va o'simliklar to'liq holda, quyosh; geometrik shakllardan oddiy va murakkab naqshli xochlar, uchburchaklar, romblar va - har xil ornament guruhlarini ajratish uchun - chiziqlar va chiziqlar uchraydi.Qaysi o'simliklar, barglar va gullar ishlatilganini, shuningdek, to'liq o'simliklarni aniqlash juda qiyin, garchi bu mutlaqo mumkin emas deb aytish ham qiyin. Qirg'izlar menga, ularning naqshlarida tez-tez dorivor va hayvonlar tomonidan yaxshi ko'rilgan, ozuqa o'simliklari va o'tlar ishlatilganini aytishdi. Misol uchun, ular yovvoyi o'rgimchak (uchburchak), kovel va kasatik (iris) barglarini aniq ko'rsatishdi, ularni, albatta, cho'l pastki qismida ko'k gilam kabi yashil qoplab turadi.Barcha holatlarda, butunlay tasvirlangan hayvonlar, masalan, qo'y, tuya, it va berkut ham uchraydi, lekin ular kam va hamma joyda uchramaydi. Bu tasvirlar faqat zaif stilizatsiya bilan yoki hatto stilizasiz bo'lib, faqat sodda yoki konturli rasmlar sifatida ko'rsatilgan — mazarlar va toshlarda, yozilgan yoki o'yilgan (aslida, zarb qilingan) va tikilgan yoki kesilgan konturda (yog'och buyumlarda). Egri chiziqli shakllar bilan ishlov berilgan elementlar geometrik shakllarga qaraganda ko'proq ishlatiladi” deya qirg‘iz xalqi naqqoshligini hayvonlarning tana qismi yoki to‘liq holatidagi naqshlar, o‘simliklar va geometrik naqshlarga ajiratib o‘tgan va ularga tegishli bo‘lgan ayrim elementlarga ta’rif bergan. Dudin qirg‘iz xalqi amaliy san’atining ko‘plab sohalarini tahlil qilgan, o‘rgangan. Gilamdo‘zlik, kulolchilik ganch o‘ymakorligi naqshlari va ulardagi elementlar guruhlagan. Xalq amaliy san;atida eng keng tarqalgan naqsh turi o‘simliklarga oid naqshlar ekanligini o‘z ilmiy ishlarida yoritgan.

[29]M.V.Rindin.Qirg‘iz milliy naqshlari. Leningrand.Frunze.1948.18-bet

[30] *С.Дудин. Киргизский орнамент. Москва 1928*

О.Э Капалбаев o‘zining “Место и роль орнаментов в декоративно-прикладном искусстве” maqolasida “[31]O‘rta Osiyo xalqlarining san'ati bo‘yicha yetakchi mutaxassis va rassom S.M. Dudin 1901-1925-yillarda qirg‘izlar va qozog‘lar o‘ymakorliklariga bag‘ishlangan maqolalarini nashr etib, uning birinchi maqolasida 1901-yilda Kashgar orqali Pishpek, Tokmok, Arpa vodiysi orqali o‘tib, qaytishda Erkeshtam, Alay vodiylari hududida bo‘lgan ekspeditsiyasida qirg‘izlarning yog‘och buyumlariga (sanduk, kebeje, idish-ona, bo‘rsiqning qovog‘i va boshqalar) tushirilgan o‘ymakorliklar haqida maqola yozgan” deya, S.M.Dudinning qirg‘iziston xalqining amaliy san’atini o‘rganishdagi mehnatlariga urg‘u berib o‘tgan. Bundan tashqari u o‘zining maqolasida ko‘plab san’atshunos va tarixchi olimlarning aynan qirg‘iziston xalqining naqqoshlik san’atiga oid qisqacha ma’lumotlar va naqsh turlari ajiratib bergan. Ular yetti guruhga bo‘lingan. Birinchi guruhga keng tarqalgan hayvonlar dunyosi kiradi. Shu bilan birga, aytib o'tish kerakki, ba'zi hayvonlar tanasi bilan naqshga tushirilgan. Masalan, ilon, yarasa, qurbaqa, chayon, qurt, o'rgimchak va boshqalar; hayvonlarning ayrim a'zolari (zoomorfik) "moynak", "tuyak", "qanot", "bo'yin", "tirnoq", "dum", "yashil", "qorin", "qovurg'a", "böyrak", "yurak" va hayvonlar, qushlarning izlari tushgan. Ikkinchi guruhga o'simliklar dunyosi kiradi. Juda ko'p uchraydigan naqshlar: "qarag'ay shoxlari", "g'ijja guli", "gul toj", "gul barglari", "gul shoxlari", "tol bargi" va boshqalar. Uchunchi guruhga xo'jalik, turmush va madaniyatga tegishli bo'lgan buyumlar naqshlanadi. Ular: "keraga", "taka", "tirmoq", "pichoq", "chaynok qoyg'ich", "tabak", "tulga", "kayik", "pichoq uchlari", "temir o'z komuzning tili", "chumuchning tutuvchi", "ship" va boshqalar. To'rtinchisi ozroq guruhni tashkil etadi, lekin aralashgan yoki uzoqlashtirgan xarakterga ega. Bu naqshlar atrof-muhitning ba'zi qismlarini ham tasavvur qilolmagani uchun umumiy bir shakllar yoki texnikaning yig'indisi sifatida berilgan. Masalan: "chiyelenishgan", "iyri", "bekitilgan", "tutashgan", "churkab borayotgan", "sinik", "sekiruvchi", "suzuvchi", "to'riysidan kesilgan", "og'ir bajarilishi" yoki umumiy qilib aytilgan "xayol" naqshi va boshqalar. Beshinchi guruh atrof-muhit, tabiatga aloqador bo'lib, "kun", "kunduz nuri", "oy", "yarim oy", "yulduz", "bulut", "buloq", "sharqiratma", "daryo", "suv" va boshqalar naqshlarini o'z ichiga oladi. Oltinchi kichik guruh odamning a'zolarining nomi bilan ataladi. Masalan, "kash", "bosh", "erin", "manja", "taman" va boshqalar. Yettinchi guruh matolar bilan bog'liq naqshlar. "Chit naqshi", "chit", "jibek mato", "o'zbek jibek matosi naqshi" va boshqalar.

NATIJA.

XX asrda Qirg‘iz xalqining naqqoshlik san’atini o‘rganar ekanmiz, turli manbaalarda turli ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin. Bu san'atning rivojlanishi va shakllanishida, albatta, tarixiy voqealar, madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlar katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ayniqsa, Sovet davrida bu san'atda o‘kuzatilgan bo‘lib, yangi ideologiyalar va tasvirlar, shuningdek, eski milliy an'analar zgarishlar va uslublar orasidagi uyg‘unlashuv natijasida yangi naqsh va bezak turlari shakllangan.

Sovet davri emblematikasi va tasvirlarining naqqoshlik san’ati bilan bog‘lanishi, ayniqsa, qurilishlarda va maishiy buyumlarda keng tarqalgan. Bunda, sovet ramzlari, masalan, o‘roq, bolg‘a va besh qirrali yulduz kabi elementlar, o‘zining milliy naqshlarga integratsiyasi orqali yangi, o‘ziga xos san’at shakllarini yaratdi. Bu naqshlar, bir tomondan, ideologik mazmunga ega bo‘lsa, boshqa tomondan, ularning estetikasini va ma'naviyatini saqlab qolgan. Shuningdek, milliy naqshlarning yangi shakllari va elementlari ko‘plab xalq hunarmandchiliklari va amaliy san’atda keng qo‘llanila boshladi.

Qirg‘iz naqqoshlik san'ati turli manbaalarda turli shakllarda talqin qilinadi. Ba'zi tadqiqotchilar uni faqat milliy g‘oyalarni aks ettiruvchi san'at sifatida ko‘rsatgan bo‘lsa, boshqalar esa uning

[31]*Капалбаев О.Э.*Место и роль орнаментов в декоративно-прикладном искусстве.Киргизстан.2018

